Create a model of stone motion in the MATLAB/SIMULINK environment and study the graph function in the Borland Delphi 7 programming language. Select the following necessary blocks in the name of the Stimulant library browser: integrator (integral signal), Gain (multiplies the input signal by a given factor), Constant (sets a constant signal), Display (displays the signal value as a number), Scope (virtual oscilloscope), XY Graph (virtual plotter), Relational operator (set carrier), Stop simulation (stop simulation).




Figure-1. Structural diagram of the stone trajectory model




Figure-2. Stone flight trajectory

From equation (2) we obtain, putting in equation (1) and we obtain the following equation $y = 1 + 10 \cdot \frac{x}{10\sqrt{3}} - 4.905 \cdot \frac{x^2}{300}$, $y = 1 + 0.58x - 0.016x^2$. First of all, we create a new project in the Borland Delphi 7 program. Select the PaintBox icon in the standard component menu, click the mouse on the form where we want to place it. Capturing them with the mouse, adjust the size of the windows and their position. After that, double-click the Paint Box button. The text of the program is given below.




Figure-3. Graph of the change in time of the flight height of the stone




Figure-4. Graph of the stone's trajectory in the program language

The program code is:

```
unitUnit14;
interface
uses
Windows, Messages, SysUtils, Variants,
Classes, Graphics, Controls, Forms,
Dialogs, ExtCtrls;
type
TForm1 = class(TForm)
PaintBox1: TPaintBox;
Procedure PaintBox1Click(Sender:
TObject);
private
{ Private declarations }
public
{ Public declarations }
end;
var
Form1: TForm1;
implementation
{$R *.dfm}
procedure TForm1.PaintBox1Click(Sender:
TObject);
var x0,y0:integer;
i:integer;
x,x1,x2:real;
fx,fy:integer;
begin
x0:=50; y0:=350;
```

```
Canvas.Pen.Color:=clBlue;
Canvas.MoveTo(50,20);
Canvas.LineTo(50,350);
Canvas.Pen.Color:=clBlue;
Canvas.MoveTo(860,350);
Canvas.LineTo(50,350);
Canvas.TextOut(870,350,'X');
Canvas.TextOut(60,10,'Y');
Canvas.MoveTo(50,20);
Canvas.LineTo(40,40);
Canvas.MoveTo(50,20);
Canvas.LineTo(60,40);
Canvas.MoveTo(860,350);
Canvas.LineTo(840,360);
Canvas.MoveTo(860,350);
Canvas.LineTo(840,340);
Width:=910;
Height:=400;
x1:=0;x2:=37.9;
x:=x1;

while x<x2 do
begin
fx:=x0+round(15*x);
fy:=y0-round(40*(1+0.58*x-0.016*x*x));
for i:=1 to 100 do
Canvas.Pixels[fx,fy]:=clRed;
x:=x+0.01;
```

end;
end;

end.

The equations of a damped oscillatory motion have the form $y = 10e^{-t} \cos \pi t$ и $y = 10e^{-t} \sin \pi t$. We construct a graph of this oscillation in Scope (oscilloscope), model it in the MATLAB/SIMULINK environment and draw a graph of Borland Delphi 7 programs.




Figure-5. Damping graph and schematic simulation MATLAB/SIMULINK.

Create a new project. Select the PaintBox icon in the Standard component menu, click the mouse in the place of the form where we want to place it. Insert the two components Button1 and Button2 into the form. Capturing them with the mouse, adjust the size of the windows and their position. Please note that in the text of the program there are two new variables of the same type Button1, Button2. In each of these variables with the extension. To enter the program code, you must correctly select the initial coordinates, step and scale. As a result, pressing the button Button1 and Button2 will sequentially display the function graph. The program code and schedule is shown below.




Figure-6. Borland Delphi7 program for damped oscillations.

The program code is:

```
unitUnit1;
interface
uses
  Windows, Messages, SysUtils, Variants,
  Classes, Graphics, Controls, Forms,
  Dialogs, StdCtrls, ExtCtrls;
type
  TForm1 = class(TForm)
    Button1: TButton;
    PaintBox1: TPaintBox;
    Button2: TButton;
  procedure Button1Click(Sender: TObject);
  procedure Button2Click(Sender: TObject);
  private
    { Private declarations }
  public
    { Public declarations }
  end;
  var
    Form1: TForm1;
  implementation
    {$R *.dfm}
  procedure TForm1.Button1Click(Sender:
  TObject);
  var i:integer;
  x0,y0,x,x1,x2,fx,fy:integer;
  begin
  Canvas.Pen.Color:=clBlack;
  PaintBox1.Canvas.MoveTo(30,200);
  PaintBox1.Canvas.LineTo(30,0);
  PaintBox1.Canvas.MoveTo(600,100);
  PaintBox1.Canvas.LineTo(0,100);
  PaintBox1.Canvas.MoveTo(600,100);
  PaintBox1.Canvas.LineTo(585,105);
  PaintBox1.Canvas.MoveTo(600,100);
  PaintBox1.Canvas.LineTo(585,95);
  PaintBox1.Canvas.MoveTo(35,15);
  PaintBox1.Canvas.LineTo(30,0);
  PaintBox1.Canvas.MoveTo(25,15);
  PaintBox1.Canvas.LineTo(30,0);
```

```
Canvas.Pen.Color:=clBlack;
PaintBox1.Canvas.TextOut(590,80,'X');
Canvas.Pen.Color:=clBlack;
PaintBox1.Canvas.TextOut(45,0,'Y');
x0:=30;y0:=100;
begin
x1:=0;x2:=500;
x:=x1;
while x<x2 do
begin
fx:=x0+round(x);
fy:=y0-round(100*exp(-
0.01*x)*cos(5*x*pi/180));
for i:=0 to 500 do
PaintBox1.Canvas.Pixels[fx,fy]:=clRed;
x:=x+1;
end;
end;
end;
procedure TForm1.Button2Click(Sender:
TObject);
var i:integer;
x0,y0,ux,uy:integer;
x,x3,x4:real;
begin
x0:=30;y0:=100;
begin
x3:=0.01;x4:=500;
x:=x3;
while x<x4 do
begin
ux:=x0+round(x);
uy:=y0-round(100*exp(-
0.01*x)*sin(5*x*pi/180));
for i:=0 to 500 do
PaintBox1.Canvas.Pixels[ux,uy]:=clGreen;
x:=x+1;
end;
end;
end;
end.
```

This program allows us to build and calculate the graph of the movement of the body, as well as analyze its trajectories. The program can be used in laboratory and practical classes in physics and this contributes to the formation of creative and scientific thinking in students.

Reference

1. В.В. Васильев, Л.А. Смак, А.М. Рыбникова. Математическое и компьютерное моделирование процессов и систем в среде MATLAB/SIMULINK. Киев-2008, ст-41-46.
2. В.П. Дьяконов. Simulink5/6/7. Самоучитель. ДМК издательство. Москва-2008г.
3. Шупрута В.В. Delphi2005. Учимся программировать. NTPress-2005г, ст-241-263.
4. Савельев И. В. Курс физики. М.: Наука 1989г.
5. www.samouchiteli.ru
6. www.mathsoft.com

ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРНИ WEB ИЛОВАЛАР КЎРИНИШИДА ИШЛАБ ЧИҚИШНИНГ АҲАМИЯТИ


Б. С. Самандаров, Ж. А. Нуруллаев
Қорақалпоқ давлат университети

Кейинги йилларда дастурий воситаларни яратишда тасирчан ўзгаришларнинг бир кўриниши web браузер стилидаги фойдаланувчи интерфейсларини ишлаб чиқиш бўлмоқда. Ўз ўрнида бунинг самарали афзалликларига махсус мижоз дастурий қатламларига бўлган эҳтиёж бартараф этилиши, платформа танлови муаммосининг ечилиши ва энг асосийси дастурий воситага ҳоҳлаган жойдан мурожаат қилиш имкониятининг пайдо бўлиши киради [1, 2]. Шунингдек, web иловалардан фойдаланишда килент томонда қандай операцион тизим ўрнатилганлигининг аҳамияти йўқ [3].

Веб технологиялари асосида фаолият кўрсатадиган дастурий воситаларнинг ташкил этувчиларини расмий равишда учта ўзаро мустақил турга ажратиш мумкин:

- мижоз томонда ўринланувчи модул – бундай дастурий воситалар браузерга мос хоҳлаган тилда ёзилиши мумкин;
- сервер томонда ўринланувчи модул – бундай дастурий воситалар танланган web сервер томонидан қўллаб-қувватланувчи тилларда ёзилиши мумкин. Кейинги вақтларда php тили кенг қўлланилмоқда;
- маълумотлар базаси – қаралаётган предмет соҳаси, дастурий воситаси ва бошқа параметрларга МБ кўра бажарилиши керак бўлган мақсад ва вазифалардан келиб чиқиб танланади.

WEBда ишлашга мўлжалланган дастурий воситалар архитектурасини яратишда иложи борица модуллар орасидаги боғлиқликлар камайтирилади. Бу маълумотларга таянган ҳолда модулларни браузер бошқарувида, web-сервер бошқарувида ишловчи ва маълумотлар базаси каби турларга ажратилади ҳамда умумлашган архитектура модели 1-расмдаги кўринишга эга бўлади.



1-расм. ДВ модул аъзолари боғлиқлик архитектураси


Юқоридаги боғлиқлик архитектурасига кўра икки хил алоқа модели келиб чиқади, яъни, браузер билан сервер орасида ва сервер билан МБ орасида алоқа.

WEB технологиялари асосида ишлашга мўлжалланган дастурий восита модуллари фақатгина ўзига тегишли маълумотлар тўпламидан фойдаланади. У ҳолда браузер ва Web-сервер орасидаги боғлиқликларни камайтириш учун HTML разметкали тил фақатгина браузерда ишлаши ва Web-сервер саҳифага керак маълумотларни тақдим этилиши лозим. Натижада, бунда қуйидагилар вазибалар аниқланади:

- фойдаланувчи интерфейсига бўлган талаблар;
- сервер учун мўлжалланган дастурий воситани дастурлаш интерфейси;
- сервер ва клиент орасида ўзаро алоқа воситаси (протокол);
- ўзаро алоқа воситасини (протокол) баён қилувчи ҳужжат тайёрланади.

Webда ишлашга мўлжалланган дастурий воситалар фойдаланувчи интерфейсига бўлган умумий талабларга кўра интерфейсни яратиш давомида: фойдаланувчилар гуруҳини ўзига жалб қила олиш, дизайн уникаллиги (ягоналиги), эсда қолиш (сессия) ҳамда ҳар хил платформаларга мослашувчанлик ечимларини излаш лозим.

Сервер томон учун мўлжалланган дастурий воситани дастурлаш интерфейси танлаш ва дастурий восита тузилмасини қуришда унинг ҳар қандай платформаларда фаолиятини таъминлашга эришиш лозим. Бунинг учун ҳозирги кунда оммалашган webга мўлжалланган дастурий воситалар конструкцияларини қуриш технологиясини қўлланиш талаб қилинади.



2-расм. WEB илова учун MVC лойиҳалаш тузилмаси

MVC (Model View Controller) концепциясини қўлланилиши натижаси фойдаланувчи интерфейсини шакллантириш ва дастур интерфейси учун катта афзалликларга эгадир. Ҳозирги куннинг аҳамиятли муаммоларидан бири ҳар хил фойдаланувчиларнинг турли платформаларда ишлаши ҳамда уларни қўллаб қувватланишидир. Фойдаланувчига зарур маълумотларни шакллантириб берувчи модул сўровларнинг қандай қурилмадан (шахсий компьютер ёки мобил телефондан) эканлигини фарқлаши лозим. Бунда маълумотни шакллантириб берувчи модул бир хил маълумотни турли платформаларга мос ҳолда шакллантиришга эришилади.

Таклиф қилинаётган дастурий восита модул аъзолари боғлиқлик архитектураси ва MVC лойиҳалаш тузилмаси асосида электрон ресурсларни баҳоловчи ERB дастурий воситаси ишлаб чиқилган. Ушбу дастурий восита ёрдамида электрон таълим ресурсларини шакллантирувчи ва бошқарувчи ахборот тизимлари электрон ресурсларини ҳолатини баҳолаш, мониторинг қилиш асосида қарор қабул қилишга кўмаклашувчи тизим ишлаб чиқилган.

Адабиётлар

1. Самандаров Б.С. Электрон ахборот ресурслар ҳолатини баҳолашнинг адаптив модели. //Узб.журнал «Проблемы информатики и энергетики». – Ташкент, 2016. – №1. – С. 39-45.

2. Самандаров Б.С. Жумақулов А.Ж. Синдаров А.Э. MOODLE виртуал таълим тизими учун мониторинг юритиш тизимини яратиш // Республика илмий-техник конференцияси – Ахборот технологиялари ва телекоммуникация муаммолари. Тошкент, 2013, 85-87 б.

3. Астапенко Н.В., Носов А.А. Разработка web-приложения «мероприятия» для сайта кафедры ИС // Математические структуры и моделирование. 2014. № 4(32). С. 152–156.

О ЗАДАЧЕ ОПТИМИЗАЦИИ НЕГЛАДКИХ ЦЕЛЕВЫХ ФУНКЦИЙ ТИПА МАКСИМУМА И МИНИМУМА

С. Отакулов, Т. Хайдаров

*Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми
Джиззхакский политехнический институт*

Математическое моделирование задач выбора наилучшего решения из множества возможных вариантов, встречающихся при экономическом планировании, проектировании и управлении процессами техники и производства, приводят к разнообразным задачам математического программирования [1]. Методы математического программирования играют важную роль при разработке численных методов построения оптимального управления в динамических системах и в решении проблем синтеза оптимальных автоматических систем управления [2].

Методы решения конечномерной недифференцируемой оптимизации составляет важное направление современного негладкого анализа и имеет многочисленные приложения в различных областях науки и техники. Вопросы

оптимизации негладких функций и развитие метода спуска в задаче минимизации таких функций привели к классам субдифференцируемых и квазидифференцируемых функций [3].

Минимаксные и максиминные задачи математического программирования являются важным источником негладкой оптимизации. Каждая негладкая функция, возникающая в результате максимизации (или минимизации) функционала по определенному параметру имеют специфику, связанную с заданием самого функционала и ограничений на параметры, по которым выполняется предварительная оптимизация. Поэтому эффективность методов решения каждой негладкой задачи оптимизации и разработка их алгоритмов существенно зависит от свойств целевых функций типа максимума и минимума.

Рассмотрим функции типа максимума и минимума:

$$f_1(x) = \max_{u \in U} \sum_{i=1}^{m_1} \varphi_i(u) g_i(x), \quad f_2(x) = \min_{v \in V} \sum_{j=1}^{m_2} \psi_j(v) p_j(x), \quad (1)$$

где $\varphi_i(u)$, $\psi_j(v)$ $i = \overline{1, m_1}$, $j = \overline{1, m_2}$ – ограниченные на компактных множествах $U \subset R^s$, $V \subset R^k$ функции. Рассматриваемые функции максимума и минимума обладают следующими свойствами.

Свойство 1. Если функции $\varphi_i(u)$, $u \in U$, $g_i(x)$, $x \in R^n$, $i = \overline{1, m_1}$, $\psi_j(v)$, $v \in V$, $p_j(x)$, $x \in R^n$, $j = \overline{1, m_2}$ непрерывны, то функции $f_1(x)$ и $f_2(x)$ также непрерывны на R^n .

Свойство 2. Пусть $\varphi_i(u) \geq 0$, $u \in U$, $i = \overline{1, m_1}$, $\psi_j(v) \geq 0$, $v \in V$, $j = \overline{1, m_2}$, функции $g_i(x)$, $i = \overline{1, m_1}$ выпуклы, а функции $p_j(x)$, $x \in R^n$, $j = \overline{1, m_2}$ вогнуты выпуклом множестве $S \subset R^n$. Тогда функция $f_1(x)$ выпукла, а функция $f_2(x)$ вогнута на G .

В следующих утверждениях будем предполагать, что выполнены условия, приведенные в свойствах 1-2.

Свойство 3. Для функций $f_1(x)$ и $f_2(x)$ субдифференциал $\partial f_1(x) = \{z \in R^n : f_1(y) - f_1(x) \geq (z, y - x) \quad \forall y \in R^n\}$ и супердифференциал $\overline{\partial f_2(x)} = \{z \in R^n : f_2(y) - f_2(x) \leq (z, y - x) \quad \forall y \in R^n\}$ при любом $x \in G$ является непустым, выпуклым компактом. Справедливы также формулы:

$$\partial f_1(x) = \overline{co} \bigcup_{u \in U(x)} \sum_{i=1}^{m_1} \varphi_i(u) \partial g_i(x), \quad \overline{\partial f_2(x)} = \overline{co} \bigcup_{v \in \overline{V}(x)} \sum_{j=1}^{m_2} \psi_j(v) \overline{\partial p_j(x)}, \quad (2)$$

где $U(x) = \{u^* \in U : \max_{u \in U} \sum_{i=1}^{m_1} \varphi_i(u) g_i(x) = \sum_{i=1}^{m_1} \varphi_i(u^*) g_i(x)\}$.

$$\overline{V}(x) = \{v^* \in V : \min_{v \in V} \sum_{j=1}^{m_2} \psi_j(v) p_j(x) = \sum_{j=1}^{m_2} \psi_j(v^*) p_j(x)\}.$$

Пример 1. Пусть $\varphi_1(u) = u + \frac{3}{2}$, $\varphi_2(u) = u^2$, $g_1(x) = |x_1|$, $g_2(x) = |x_2| - 2$, $x \in R^2$, $u \in U = [-1, 1]$. Тогда получим функцию максимума вида (1)

$$f_1(x) = \max_{u \in [-1,1]} \left[\left(u + \frac{3}{2} \right) |x_1| + u^2 (|x_2| - 2) \right].$$

Легко вычислить, что

$$\partial g_1(x) = \begin{cases} e_1, & x_1 > 0, \\ -e_1, & x_1 < 0, \\ \{e_1, -e_1\}, & x_1 = 0, \end{cases} \quad \partial g_2(x) = \begin{cases} e_2, & x_2 > 0, \\ -e_2, & x_2 < 0, \\ \{e_2, -e_2\}, & x_2 = 0, \end{cases}$$

где $e_1 = (1, 0)$, $e_2 = (0, 1)$. Пусть $x_0 = (x_{10}, x_{20})$, $x_{10} = -1$, $x_{20} = 0$. Тогда

$$\max_{u \in [-1,1]} \left[\left(u + \frac{3}{2} \right) |x_{10}| + u^2 (|x_{20}| - 2) \right] = \max_{u \in [-1,1]} \left[u + \frac{3}{2} - u^2 \right] = \frac{1}{2} + \frac{3}{2} - \left(\frac{1}{2} \right)^2 = \frac{7}{4}, \quad U(x_0) = \{u^*\} = \left\{ \frac{1}{2} \right\}.$$

Согласно формуле (2) имеем:

$$\begin{aligned} \partial f_1(x_0) &= \overline{co}[\varphi_1(u^*) \partial g_1(x_0) + \varphi_2(u^*) \partial g_2(x_0)] = \overline{co}[-2e_1 + \frac{1}{4}\{e_2, -e_2\}] = \\ &= \overline{co}\{-2e_1 + \frac{1}{4}e_2, -2e_1 - \frac{1}{4}e_2\} = \overline{co}\left\{ \left(-2, \frac{1}{4} \right), \left(-2, -\frac{1}{4} \right) \right\} = \\ &= \left\{ (\xi_1, \xi_2) \in R^2 : \xi_1 = -2, \xi_2 = -\frac{1}{4} + \frac{\alpha}{2}, \quad 0 \leq \alpha \leq 1 \right\} = \{-2\} \times \left[-\frac{1}{4}, \frac{1}{4} \right]. \end{aligned}$$

Итак, $\partial f_1(x_0)$ является отрезком $\{-2\} \times \left[-\frac{1}{4}, \frac{1}{4} \right]$ в R^2 .

Пример 2. Пусть $\psi_1(v) = v^2 + 1$, $\psi_2(v) = \left(|v| - \frac{2}{3} \right)^2$, $p_1(x) = x_1$, $p_2(x) = -|x_2|$,

$x \in R^2$, $v \in V = [-1, 1]$. Тогда функция минимума, определяемая равенством (2)

$$\text{имеет вид } f_2(x) = \min_{v \in [-1,1]} \left[(v^2 + 1)x_1 - \left(|v| - \frac{2}{3} \right)^2 |x_2| \right].$$

Ясно, что

$$\partial p_1(x) = \left\{ \frac{\partial p_1}{\partial x} \right\} = \{1, 0\} = e_1, \quad \partial p_2(x) = \begin{cases} -e_2, & x_2 > 0, \\ e_2, & x_2 < 0, \\ \{e_2, -e_2\}, & x_2 = 0. \end{cases}$$

Пусть $x_0 = (x_{10}, x_{20})$, $x_{10} = -1$, $x_{20} = 0$. Тогда

$$\begin{aligned} \min_{v \in [-1,1]} \left[(v^2 + 1)x_{10} - \left(|v| - \frac{2}{3} \right)^2 x_{20} \right] &= \min_{v \in [-1,1]} (-v^2 - 1) = -1 - 1 = -2, \\ v^* &= \pm 1, \quad \bar{V}(x_0) = \{+1, -1\}. \end{aligned}$$

Согласно формуле (2)

$$\begin{aligned} \overline{\partial} f_2(x_0) &= \overline{co} \left[\sum_{i=1,2} \psi_i(v_i^*) \partial p_i(x_0) \right] = \overline{co} \left[2 \cdot e_1 + \frac{1}{9} \cdot \{e_2, -e_2\} \right] = \\ &= \overline{co} \left\{ 2e_1 + \frac{1}{9}e_2, 2e_1 - \frac{1}{9}e_2 \right\} = \overline{co} \left\{ \left(2, \frac{1}{9} \right), \left(2, -\frac{1}{9} \right) \right\} = \{2\} \times \left[-\frac{1}{9}, \frac{1}{9} \right]. \end{aligned}$$

Итак, $\overline{\partial} f_2(x_0)$ является отрезком $\{2\} \times \left[-\frac{1}{9}, \frac{1}{9} \right]$ в R^2 .

Теорема 1. Функция $f(x) = f_1(x) + f_2(x)$ квазидифференцируема по в каждой точке $x_0 \in \text{int } G$ и для производной по напрасправедливо равенство:

$$\frac{\partial f(x_0)}{\partial h} = \sup_{u \in U(x_0)} \sum_{i=1}^{m_1} \varphi_i(u) \frac{\partial g_i(x_0)}{\partial x} + \inf_{v \in V(x_0)} \sum_{j=1}^{m_2} \psi_j(v) \frac{\partial p_j(x_0)}{\partial h}. \quad (3)$$

Используя формулу (3) можно получить следующие необходимые условия оптимальности в экстремальной задаче с целевой функцией вида $f(x) = f_1(x) + f_2(x)$.

Теорема 2. В точке минимума $x_0 \in R^n$ функции $f(x) = f_1(x) + f_2(x)$ на R^n необходимо выполнение условия

$$\min_{\|h\|=1} \left[\sup_{u \in U(x_0)} \sum_{i=1}^{m_1} \varphi_i(u) \frac{\partial g_i(x_0)}{\partial h} + \inf_{v \in V(x_0)} \sum_{j=1}^{m_2} \psi_j(v) \frac{\partial p_j(x_0)}{\partial h} \right] \geq 0. \quad (4)$$

Существует класс таких функций вида (1), для которых модификация условия (4) становится достаточным условием оптимальности. Используя эти условия можно разработать численный метод поиска направления спуска в негладкой задаче минимизации, возникающей в процессах оптимального управления экономики [4].

Литература

1. Базара М., Шетти К. Нелинейное программирование. Теория и алгоритмы. М.: Мир, 1982. -584 с.
2. Малышев В.В. Методы оптимизации в задачах системного анализа и управления. М.: МАИ-ПРИНТ, 2010. - 440 с.
3. Демьянов В.Ф., Рубинов А.М. Основы негладкого анализа и квазидифференциальное исчисление. – М.: Наука, 1990. -432 с.
4. Лагоша Б.А. Оптимальное управление в экономике. –М.: МГУЭСИ. 2004. -113 с.

ТЕНГ ОРАЛИҚЛАР УЧУН ЛАГРАНЖ ВА ЛОКАЛ ИНТЕРПОЛЯЦИОН КУБИК СПЛАЙН МОДЕЛЛАРИНИ ҚУРИШ ВА СИГНАЛЛАРГА ТАДБИҚИ

С. А. Бахромов, Б. Р. Азимов
Ўзбекистон миллий университети
Анджсон давлат университети

Биламизки фан ва техника масалаларини ечишда аниқ усуллар ёрдамида ечимни топиш ҳар доим ҳам онсон бўлавермайди. Жуда кўп ҳолларда кўйилган масалани берилган аниқликда олдиндан кўйилган шартлар асосида тақрибий ечимини топишда қўлланиладиган яқинлашиш тезлиги юқори бўлган методларни, ҳамда уларни математик моделларни яратиш ва тадбиқ қилиниши, фан ва техника соҳаларини амалий жихатдан ишончлийлигини ошишига катта ҳисса қўшади.

Жумладан радиоэлектроника, транспорт, авиация, медицина, иқтисод ва хоказо соҳаларида қўллаш долзарб масалалардан ҳисобланади. Айниқса медицина соҳасида касалликларни диагностик таҳлил қилиш мақсатида биомедицина сигналларини моделларини қуриш бугунги кундаги муҳим масалалардан ҳисобланади[2].

Ушбу ишда юрак-томир касалликларни диагностик таҳлил қилиш мақсадида дастлабки экспериментал маълумотлар олинди ва шу маълумотлар асосида Лагранж интерполяцион модели ва локал интерполяцион кубик сплайн моделлари қурилди[3].

Лагранж интерполяцион моделини қурилиши функцияларни унга бирор, муайян маънода яқин ва тузилиши соддароқ бўлган функцияларга алмаштириш ғоясига асосланган.


Сигналларга рақамли ишлов беришда Лагранж интерполяцион моделининг қўлланилиши тугун нуқталар оз бўлганда қулайроқ ва математик ҳисоблашларни кузатиб бориш осонроқ бўлади. Локал интерполяцион кубик сплайнлар эса тугун нуқталар кўп бўлган ҳолларда ҳам интерполяциялаш жараёнини яхши бажаради [1]. Шунинг учун ҳам ЭКГ сигналларга рақамли ишлов беришда қулай бўлган моделларни ажратиб олиш мақсатида Лагранж интерполяцион ва локал интерполяцион кубик сплайнларни қўллаш қаралган.

Локал интерполяцион кубик сплайнларни қуриш учун x_1, x_2, x_3 тугун нуқталардан ўтувчи даражаси 2 га тенг бўлган кўпхад қурилади ва x_2, x_3, x_4 нуқталардан ўтувчи даражаси 2 га тенг бўлган иккинчи кўпхад қурилади, биламизки бу кўпхадлар x_2, x_3 нуқталар оралиғида кесишади ва ўша ораликда локал интерполяцион кубик сплайн қурилади.

Моделларни қуриш (1-жадвал) да келтирилган ЭКГ сигнални дастлабки маълумотлари асосида амалга оширилди.


1-жадвал. ЭКГ сигнални дастлабки маълумотлари.

| X | 0.5 | 1 | 1.5 | 2 | 2.5 | 3 | 3.5 |
|---|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|
| Y | -0.065 | -0.060 | -0.075 | -0.065 | -0.070 | -0.070 | -0.090 |



1-расм. ЭКГ сигнални Лагранж интерполяциялаш жараёни

ЭКГ сигнал қийматларидан фойдаланиб локал интерполяцион кубик сплайн модели қурилди ва Лагранж интерполяцион модели билан график кўринишлари ҳосил қилинди (2-расм).



2- расм. ЭКГ сигнални интерполяциялаш жараёнлари

Хулоса қилиб айтганда ушбу ишда Лагранж классик интерполяцион ва локал интерполяцион кубик сплайн моделлари қурилиб медицина сигналларига тадбиқ қилинди натижада 2-расмда кўрганимиздек локал интерполяцион кубик сплайн сигналларни интерполяциялаш масаласида Лагранж классик интерполяцион моделига нисбатан яхши эканлигини кўрсатди. Демак медицина сигналларига рақамли ишлов беришда кубик сплайнлардан фойдаланиш қулай ҳисобланади.

Адабиётлар

1. Х.Н.Зайнидинов. Сплайны в задачах цифровой обработки сигналов // Ташкентский университет информационных технологий-Т.: «Fan va texnologiya», 2015, 208 с.
2. Г.Д.Сайидова. Локал интерполяцион кубик сплайн функция қуриш ва уни узлуксиз функциялар синфида ҳатолигини баҳолаш. Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация., Тошкент – 2018.
3. <https://physionet.org/cgi-bin/atm/ATM>

SPLAYN FUNKSIYALAR VA ULARNI XARMUTA USULIDAN FOYDANIB HISOBLASH ALGORITMI

A. X. Madraximov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Hozirgi kunda fan texnologiyada, tibbiyotda, seysmik soxada, tasvirlar sifatini yaxshilashda, kompyuter mikroprotessorini parallel ishlash tizimida ishlatiladigan funksiyalardan biri bu splayn funktsiya hisoblanadi. Xar qanday funksiyalar aniq bir masalani yechish uchun qaratilgan bo`ladi, splayn funksiyalar xam xuddi shunday vazifani bajaradi.

Splaynlarni eng kichik qiymatlarini ko`rib chiqishimiz mumkin. Bu xollarda biz xar bir splaynlarni 2ga karrali qiymatlarini ko`ramiz bu orada 2,4,8,16,32,64, 128,256,512,1024,2048,4096. larni hisoblashining imkoniyatini beradi. Bunda biz bu ko`rinish orqali ikkining istalgan ko`rinishini hisoblab, o`zimiz uchun splaynlari uchun hisobni chiqarishimiz mumkin. Ushbu formula orqali hisoblanadi va yana

ushbu formula orqali istalgan 2 ning darajalarini xam natijasini chiqarishimiz mumkin.

$$S_{i,j} = \begin{cases} i * 2^{2*(j-2)} + 2^{j-2} * (2^{j-1}) - 2^{2*(j-1)-2} & 2^{2*(j-1)-2} = 4 \\ i * 2^{2*j} + (2^{j-1}) * (2^j - 1) & i < \frac{4}{2^j} \\ -2^{2*j-2} & i \geq \frac{4}{2^j} \end{cases} \quad (1)$$


Uning natijasini chiqish qiymatining ko`rinishlarini qarab o`tishimiz mumkin. Uning xar bir natijasida № x, F(x), b, S(x) bularning xar birini natijasini aniqlikda chiqishini ko`rishimiz mumkin.

№ - Xar bir berilgan soni tartib raqami

X – Bu esa berilgan sondagi turadigan elementlar soni

$f(x) = y = \ln(x+1)$ ga teng bu slayn funksiyani hisoblash uchun mo`ljallangan.

$S_{i,j}$ - bu berilgan funksiyani hisoblab beradi va uning uchta shart asosida hisoblanadi biri to`rtga teng, undan kichik va katta qiymatlarida o`z natijasini ko`rsatadi. Natijani esa biz ko`rib turgan oynada aks ettiradi.



1-rasm

Berilgan tartibda o`tib boruvchi grafikni shakllantirildi. Natijada berilgan sonlarni jadvalni ko`rsatib berilgan. Bu Xarmuta usulida hisoblash usuli deyiladi.

X

4096

2048

1024

512

256

128

64

4096

Ok

| X | Natija |
|----|--------|
| 0 | 120 |
| 1 | -64 |
| 2 | |
| 3 | |
| 4 | |
| 5 | |
| 6 | |
| 7 | |
| 8 | |
| 9 | |
| 10 | |
| 11 | |
| 12 | |
| 13 | |
| 14 | |
| 15 | |

| Ni | X | F(x) | b | S(x) |
|----|----|-------------------|-------------------|--------|
| 1 | 0 | 0 | - | |
| 2 | 1 | 0.693147180559... | 0.741094192635... | 0.1235 |
| 3 | 2 | 1.098612288668... | 1.118242794610... | 0 |
| 4 | 3 | 1.386294361119... | 1.397050781309... | 0 |
| 5 | 4 | 1.6094379124341 | 1.616241578187... | 0 |
| 6 | 5 | 1.791759469228... | 1.796454615389... | 0 |
| 7 | 6 | 1.945910149055... | 1.949346696922... | 0 |
| 8 | 7 | 2.079441541679... | 2.082066267841... | 0 |
| 9 | 8 | 2.197224577336... | 2.199294997335... | 0 |
| 10 | 9 | 2.302585082994... | 2.19722457733622 | 0 |
| 11 | 10 | 2.397895272798... | 2.399278406600... | 0 |
| 12 | 11 | 2.484906649788 | 2.486068094674... | 0 |
| 13 | 12 | 2.564949357461... | 2.565938480048... | 0 |
| 14 | 13 | 2.639057329615... | 2.639909846393... | 0 |
| 15 | 14 | 2.708050201102... | 2.708792592827... | 0 |
| 16 | 15 | 2.772588722239... | - | |

2-rasm.

Biz bergan ikkining darajalarini tartib bo'yicha hisoblaydi ketma-ket kelgan xar ikkitasini birga qo'shadi brilgan sonning yarmini undan so'ng esa ketma-ket kelgan sonlarni ayrib chiqadi xuddi shu xolda manfiy qiymat chiqadi qo'shish davom etadi manfiy qiymat esa inobatga olinmaydi birinchi ayruv natijasi -1 teng bo'lsa keyingi ayruv natijasi -4 ga teng bo'ladi shu xoldi minusli song xar ayrilganda 4 ga karrali darajada o'sib boradi. Natija esa (3-rasm) dagi xolda paydo bo'ladi. Bu xolda Xarmuta hisoblash usuli deyiladi.

File Edit Format View Help

| X | A | B | C | D | E |
|----|----|----|-----|-----|----|
| 0 | 1 | 6 | 28 | 120 | 56 |
| 1 | 5 | 22 | 92 | -64 | |
| 2 | 9 | 38 | -16 | | |
| 3 | 13 | 54 | -16 | | |
| 4 | 17 | -4 | | | |
| 5 | 21 | -4 | | | |
| 6 | 25 | -4 | | | |
| 7 | 29 | -4 | | | |
| 8 | -1 | | | | |
| 9 | -1 | | | | |
| 10 | -1 | | | | |
| 11 | -1 | | | | |
| 12 | -1 | | | | |
| 13 | -1 | | | | |
| 14 | -1 | | | | |
| 15 | -1 | | | | |

3-rasm.

Ushbu chiqqan natijani esa 2-rasmda berilgan kabi $f(x)$ va b ning qiymatlarini kelitirib chiqadi. Faqatgina $S(x)$ ni qiymati ikkinchi qiymtidan so'ng nolga tengdir. Biz berilgan Xarmuta usulida hisoblab chiqadi. Bu hisoblash usuli bilan kutilgan natijani olamiz.

Adabiyotlar

1. X.H.Зайнидинов Методы и средства обработки сигналов в кусочно-полиномиальных базисах // 2014 г
2. X.N.Zaynidinov., Kim Sung Soo., Mirzayev A.E. Piecewise-Polynomial Basiz For Digital Singnal Processing. International Journal. South // 2011 y
3. X. Chen. Dynamic geometric computation by singularity detection and shape analysis. Ph.D. Thesis Manuscript, 2006.
4. G. Elber, X. Chen, and E. Cohen. Mold accessibility via gauss map analysis. ASME Transactions, Journal of Computing & Information Science in Engineering, June 2005:79-85, 2005.

SAYYOHLAR UCHUN INTERAKTIV XIZMATLAR KO`RSATISH DASTURIY TA`MINOTI

D. Maxkamova, H.I. G'oziyev.

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Samarqand filiali*

Bugungi kunda dasturlashtirish va axborot texnologiyalari rivojlangan bir vaqtda jamiyatda axborotlashtirish chora tadbirlari kengaymoqda. Shu nuqtai nazardan men qadimdan navqiron va buyuk bo'lgan Samarqand shaxriga tashrif buyuruvchi sayyohlarga interaktiv xizmatlar ko'rsatuvchi dasturiy ta`minot yaratdim. Mazkur dasturning ommabopligini va keng auditoriya egallashini maqsad qilgan xolda uning interfeysi va dizayni ustida ham ish olib bordik.

Demak ushbu dastur "Sayyohlar uchun interaktiv xizmatlar" deb nomlanib Samarqandga tashrif buyuruvchi mehmonlar uchun qo'llaniladigan dastur bo'lishini maqsad qilingan(1). Bu dasturimiz obyektlarning o'zaro bog'lanishi foydalanuvchilar nuqtai nazaridan quyidagicha bo'ladi.

1-jadval. Dasturni loyihalash bosqichi

| № | Sinf nomlari | Komponentlar | Amallar |
|---|--------------|----------------------------------------------------|--------------------------------------------|
| 1 | Bosh sahifa | Dastur xarakteristikasi, uning imkoniyatlari | Ma'limot qo'shish, o'chirish, o'zgartirish |
| 2 | xarita | Sputnik orqali xaritaning istalgan joyini aniqlash | Ma'limot qo'shish, o'chirish, o'zgartirish |
| 3 | Transport | Belgilangan manzildagi transportni aniqlash | Ma'limot qo'shish, o'chirish, o'zgartirish |
| 4 | obidalar | Obidalar nomi, suratlari va ta'rifi | Ma'limot qo'shish, o'chirish, o'zgartirish |

Loyihani amalga oshirish tartibi:

1. Axborot tizimlari haqidagi ma'lumotlar ba'zasini yaratishda Xampp serveridan foydalandim. Dasturim uchum kerakli jadvallarni yaratib oldim.


2. Ishni bajarish uchun PHP dizayner dasturidam va Y-Freamwork dasturidan foydalanamiz

3. Kerakli ma'lumtlar bazasini yaratib olinadi(2).

4. Bazamizdagi maydonlarning turlarini to'g'ri kiritish axamiyatli bo'lib, bu keyingi bosqich ishlarimizga asos bo'ladi.

5. Php designer dasturidan esa kodlarni kiritib dastur interfeysini yaratamiz.

Axborot tizimlari haqidagi ma'lumotlar ba'zasini yaratishda Xampp serveridan foydalandik. Dastur uchum kerakli jadvallarni yaratib oldim.



1-rasm. Ma'lumotlar ba'zasi yaratilish jarayoni.

Dasturga ulangan malumotlar ombori tayyor xoli.



2-rasm. Dasturning foydalanish yo'riqnomasi

Berilgan algoritm asosida bajarilgan ishlar

DASTURNING KIRISH QISMI



3-rasm. Dasturning kirish qismi


Dasturimning asosiy oynasida kirish qismiga tegishli bo'lgan asosiy ko'rsatkichlar hamda ma'lumotlar ko'rsatilgan, ular orqali dasturning o'zingizga kerak bo'lgan qismiga o'tishingiz mumkin.

Asosiy oynaning *Map* qismida sputnik orqali xaritani kuzatish mumkin (3-rasm).




4-rasm. Dasturning xarita qismi

Keyingi bo'lim ya'ni transport bo'limida manzilgohlar va ularga yo'naltirilgan marshrutlar ko'rsatilgan.



5-rasm. Dasturning Ma'lumot qo'shish qismi

Dasturga ma'lumotlarni kiritish uchun login bo'limidan login parollar bilan ruxsat olamiz.



6-rasm. Dasturga kirish.

Ma'lumotlarni o'zgartirish yoki yangi ma'lumot kiritish va o'chirish mumkin. Ushbu dasturni bajarish davomida Php dizaynder dasturlash muhitida Java Script teglaridan foydalanib amaliy natija olingan. Ushbu dasturni kelajakda kengaytirish va Buyuk Ipak Yo'li yo'nalishidagi barcha shaxarlarni kiritish, qamrovini kengaytirishni maqsad qilingan.

Adabiyotlar

1. Викрам Васвани. Zend Framework. Разработка веб-приложений на PHP 2012-г

2. Қосимов С.С. Ахборот технологиялари. Тошкент – “Алоқачи”-2006.

ANDROID OPERATSION TIZIMIDA DARS JADVALI DASTURINING YARATILISH JARAYONI

I. R. Rahmatullayev

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Kelajagimiz poydevori bo'lmish yoshlarimizga texnologik asrning yangi texnikalari, ularning dasturiy vositalari bilan tanishtirish, xususan zamonaviy mobil operatsion tizimlardan biri bo'lmish, eng tez tarqalib borayotgan Android OT bilan tanishtirish, unda ishlaydigan dars jadvali dasturlarining yaratilish bugungi kun foydalanuvchilari uchun juda ham foydali hisoblanadi.

Respublikamizning milliy iqtisodining hech bir tarmog'i samarali va mo'tadil tashkil qilingan axborot infratuzilmasisiz faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Hozirgi kunda iqtisodiyotimizning jadal rivoj topayotgani bois chet el korxonalarini bilan hamkorlik qilish, yirik kompaniyalar mahsulotlarining kirib kelishi, xalqning texnik vositalarning oxirgi avlodi bilan ta'minlanishi ko'rinarli darajada sezilmoqda. Xususan, komp'yuterlar, noutbuklar, telefon apparatlari, turli xildagi dasturiy ta'minotlar shular jumlasidandir [1-3].

Hozirgi kunda jahon mobil telefonlar bozorining 75 % ini Android operatsion tizimi xizmalaridan foydalanib kelinmoqda.

Android – Linux yadrosida yaratilgan portativ (tizimli) operatsion tizim bo'lib, Kommunikatorlar, planshetli kompyuterlar, elektron kitoblar, raqamli pleyerlar, qo'l soatlari, netbuklar va smartbuklarda ishlatiladi. Google tomonidan sotib olingan Android Inc. kompaniyasi tomonidan yaratilgan. Keyinchalik Google tizim rivojlanishi bilan shug'ullanadigan Open Handset Alliance (OHA) ittifoqini tuzdi. Android yordamida Java dasturlarni tuzish mumkin. Android Native Development Kit Sida va boshqa tillarda yoziladigan dasturlarni yaratadi.

Ko'pchilik Androidning ko'p tarmoqli imkoniyatlari va yashirin funksiyalari borligini taxmin qilsalar kerak. Shuningdek, Androidning sirlari smartfon yoki planshetning qo'shimcha imkoniyatlari uchun foydalanish mumkin, qaysiki iste'molchining boshqaruvida topib bo'lmaydi [2-5].

Dasturlashning har bir sohasida dastur yozish uchun dasturlash muhiti kerak. Bu sohada Google Eclipse hamda uning Android Development Tools (ADT)ni ishlatishni tavsiya etadi. Biz ushbu mavzuda Eclipse hamda ADTni o'rnatish hamda sozlash jarayonini ko'rib chiqamiz.

Dars jadvali dasturini yaratishda bizga quyidagi bilimlar kerak bo'ladi:

1. Androidda oynalar bilan ishlash (Intentlar)
2. Androidda ma'lumotlar ombori bilan ishlash (SQLite)
3. Androidda formalar bilan ishlash (View)
4. Androidda tizim resurslari bilan ishlash (Time, Date)

Intentlar bu Android dasturidagi oynalarni boshqaruvchi maxsus obyekt bo'lib, bir oynadan ikkinchi oynani chaqirish, oyna holatlarini boshqarish, oynani yopish, oynani o'chirib tashlash kabi amallarni bajaradi.

Androidda tuziladigan dasturlarning aksariyati ko'p oynali dasturlar hisoblanadi. Masalan, biror bir foydali dastur yaratganimizdan so'ng, foydalanuvchi

dasturning muallifi haqida ma'lumot olmoqchi bo'lsa, "Dastur haqida" tugmasini bosganda dastur haqida to'liq ma'lumot beruvchi oynaga tushib qoladi. Bu veb sahifalarda gipermatn orqali birinchisidan ikkinchisiga o'tishga juda o'xshaydi.

Ma'lumot oldindan e'lon qilingan o'zgarmaslarda olinadi. Shuning uchun bu o'zgarmaslarni res/values/strings.xml faylida e'lon qilib qo'yamiz.

```
<string name="about_text">
```

```
Dars jadvali dasturiga xush kelibsiz</string>
```

Endi oyna sarlavhasi uchun o'zgarma e'lon qilinadi.

```
<string name="about_title">Dastur haqida</string>
```

So'ngra dastur kodlarini yozish uchun yangi Class yaratiladi va uni AboutActivity.java deb nomlaymiz. Ichida quyidagi kod yoziladi.

```
package dars.jadvali.helloworld;
```

```
import android.app.Activity;
```

```
import android.os.Bundle;
```

```
public class AboutActivity extends Activity
```

```
{
```

```
    @Override
```

```
    protected void onCreate(Bundle savedInstanceState)
```

```
    {
```

```
        super.onCreate(savedInstanceState);
```

```
        setContentView(R.layout.about);
```

```
    }
```

```
}
```

Bu klassda eng asosiy metod bu onCreate() va setContentView() metodlaridir. Chunki aynan ular klass yaratilayotgan vaqtda kerakli ma'lumotni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Endi Helloworld.java klassi orqali undagi tugma bosilganda AboutActivity.java ga o'tish kodlari yoziladi. Bunda bizlarga Intent klassi qo'l keladi.

```
import android.content.Intent;
```

Tugma uchun Click metodini yozamiz:

```
public void onClick(View v)
```

```
{
```

```
    Intent intent = new Intent>HelloWorld.this, AboutActivity.class);
```

```
    startActivity(intent);
```

```
}
```


Yangi oyna yuklanishi uchun Intent klassida AboutActivity klassini ko'rsatib qo'yish kerak bo'ladi. Undan so'ng startActivity() metodi chaqiriladi. Undan oldin esa yangi Activity klassni AndroidManifest.xml ga kiritib qo'yish kerak bo'ladi.

```
<activity android:name=".AboutActivity"
```

```
    android:label="@string/about_title">
```

```
</activity>
```

Emulyatorni ishga tushirib natijani ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Dasturni ochilishi

Android ma'lumotlar bazasi bilan ishlash mexanizmi strukturali informatsiyalarni qayta ishlash va saqlash imkoniyati mavjud. Istalgan ilova o'ziga tegishli ma'lumotlar bazasini yaratishi va ular ustida to'liq nazorat qila oladi. Android SQLite kutubxonasidan foydalanib, MBBT ma'lumotlarini o'zidan ko'rsatib, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega: ko'lami kengligi (open source), tranzaksiya va so'rovlarning standart tili, osonligi va bir xil darajaliligi.

Adabiyotlar

1. Dmitriy Volkov. Google Android eto neslojno. Sbornik urokov. Elektronnoe izdanie, 2012.
2. Orlov L.V. Web-sayt bez sekretov. 2-e izd. M.: ZAO "Noviy izdatelskiy dom", 2004. -512 s.
3. Spravka – OS Android. (<http://support.google.com/android/?hl=ru>)
4. Programmirovaniye dlya android, java – s samix pervix shagov. (<http://davidmd.ru/tag/eclipse/>)
5. API Guides for Android App. (<http://developer.android.com/guide/components/index.html>).

FRAKTALLARNI QURISH USULLARI

Sh. A. Anorova, Z. E. Ibrohimova

*Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Samarqand filiali*

Bugungi kunda juda ko'plab kompyuter grafik dasturlari mavjud bo'lib, ularni qaysi sohada qo'llanilishi bilan bir biridan farqlanadi. Har bir soha mutaxassislari o'z faoliyatlari uchun qulay bo'lgan grafik dasturni tanlaydilar. Dasturlarning imkoniyat chegaralari ham ma'lum bir sohaga yo'naltirilgan bo'ladi. Demak, grafik dasturni tanlashda avvalombor uning imkoniyatlarini inobatga olish lozim. Aksariyat hollarda grafik dasturni qo'llashdan oldin boshqa bir dasturlarni yoki fanlarni o'zlashtirishga ehtiyoj seziladi. Shunisi bilan ham grafik dasturlar murakkablashib boradi. Ushbu dasturlar esa fraktal grafikasiga asoslangan algoritmlar asosida ishlaydi.

Fraktal grafikasi asosan matematik amallar asosida grafik kompozitsiya tuzishda qo'llaniladi. Bugungi kunda videoroliklar, kliplar, videoo'yinlar yaratishda fraktal grafikasining o'rni beqiyosdir. Fantastik janrdagi kinofilmlarda yoki kompyuter o'yinlarida atrof muhitning murakkab kompozitsiyalari (o'rmonlar, tog'lar, shahar qiyofasi va h.) yaratishda fraktal grafikasidan keng foydalaniladi.

Fraktal grafikasining qo'llanish printsipti proektiv geometriyaning qonuniyatlariga asoslangan bo'lib, oddiy geometrik elementni o'ziga o'xshash akslantirishdan iborat. Aytaylik qish sovug'ida deraza oynasidagi naqshlar yoki kristal panjaralarning hosil bo'lishi insonni ajablantiradi. Bunday hodisa va jarayonlarni kompyuterda modellashtirish, ularning formula asosida qonuniyatlarini topish bir qarashda matematik yechimga ega emasdek ko'rinadi, lekin yechimi oddiydan murakkablikka printsipti asosida yaratiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda agar diqqat bilan e'tibor qaratsangiz oddiy bir element, aytaylik bir dona qor parchasi xuddi shunga o'xshash (katta yoki kichik, holati, rangi o'zgargan) boshqa bir element bilan takrorlanadi. Bunday o'xshash to'plamlar fraktal to'plamlar deb nomlanadi.

Fraktallar bizga oddiy geometriyadan ma'lum bo'lgan figuralarga o'xshamaydi va ma'lum bir algoritmlar asosida quriladi. Fraktal grafikasida asosiy ob'ekt bu geometrik figura emas, balki matematik formuladir. Formuladagi koeffitsientlarni o'zgartirish asosida mutlaqo boshqa bir kompozitsiyalarni yaratish mumkin bo'ladi.


Umuman oddiy qilib aytganda fraktallar - bu dastlabki figuraga nisbattan ko'p marta qo'llanilgan ma'lum bir almashtirish va o'zgartirishlar demakdir.

Dastlabki fraktal geometriyasi g'oyalari XIX asrlarda vujudga kelgan. Kantor oddiy rekursiv (qaytariladigan) funktsiya orqali chiziqni chiziqlar to'plamiga olib keldi, keyinchalik esa *Benua Mandel'brot* fraktal geometriyasiga asos soldi va fraktal iborasini kiritdi.

Fraktal - lot. fractal bo'lingan (qismlarga ajratilgan) ma'nosini bildiradi. Fraktalning yana bir izoh-tushunchalaridan biri bu - qismlardan iborat va har bir qismi yana bo'linadigan geometrik figuradir. Har bir bo'linadigan figura yaxlit

figuraning kichraygan yoki o'xshash nusxasidir. Fraktallarning asosiy xususiyati bu o'ziga o'xshashlikdir.

Oddiy figurani doimo kichraytirish va unga o'xshatish asosida fraktallar tuzish mumkin. Misol uchun: Oddiy kesma teng uchga bo'linadi (Rasm 1-a). O'rtadagi qismga teng bo'lgan yangi bir kesma bo'lagi qo'shiladi va to'rt bo'lakdan iborat sinq chiziq hosil qilinadi (Rasm 1-b). Keyingi etapda to'rtta kesmaning har biri yana uchga bo'linadi va o'rta qismiga teng yangi bo'laklar qo'shiladi (Rasm 1-c). Bu holat yana takrorlanganda bejirim bir naqsh kompozitsiyasi kelib chiqadi (Rasm 1-d). Agarda har bir etapda bo'laklarni kichraytirish bilan birga ularni yo'nalishini ham o'zgartirilsa yanada boshqacharoq kompozitsiya kelib chiqadi.



1-rasm

Fraktal grafikasi fayllari asosan *.fif kengaytmasiga ega bo'lib, kompyuter xotirasida juda kam joy egallaydi. Ya'ni ular xotirada faqat formula yozuvlari ko'rinishida saqlanadi.

Fraktal grafikasining keng tarqalgan formatlari: *.frp; *.frs; *.fri; *.fro; *.fr3, *.fr4 va h.

Fraktal grafikasining afzalligi:

- Original va bejirim, fantastik tasvirlarni hosil qilish mumkinligi;
- Real hodisa va jarayonlarni (ilmiy grafikaviy) modellashtirishda qo'llash mumkinligi.

Fraktal grafikasining kamchiliklari:

- Dasturlash tilining murakkabligi. Turli dasturlash tillari (C, Delphi, Pascal va h.) ni bilish talab etiladi;
- Natijani oldindan baholashning qiyinligi.

Qo'llanish sohasi:

- Ko'ngilochar dastur va video o'yinlar yaratishda (oddiy va murakkab teksturalar, turli landshaft va fonlarni yaratishda);
- Kino va video industriyada (noan'anaviy hodisa va jarayonlarni hosil qilishda, fantastik syujetlar yaratishda).

Fraktallarni qurishning quyidagi usullari mavjud:

- 1.L-tizimlar usuli;
- 2.Iteratsion funksiyalar tizimlari(IFS)usuli;
- 3.R-funksiya usuli yordamida fraktallar qurish va h.


Mandelbrot to'plami usulidan foydalanib fraktal grafik hosil qilish. Matematikada Mandelbrotning to'plami kompleks tekislikda to'plangan nuqta

majmuasi sifatida tavsiflangan fraktal bo'lib, u uchun iterativ ketma-ketlik chegaralangan hisoblanadi.

$$f_1(z) = \frac{1}{3}z$$

$$f_2(z) = \frac{1}{3}z + \frac{2}{3}$$



$$f_3(z) = \frac{1}{3}z(\cos \frac{\pi}{3} + i \sin \frac{\pi}{3}) + \frac{1}{3}$$



2-rasm

Har bir usul ma'lum algoritmlarga asoslangan bo'lib, ulardan foydalanish imkoniyatlari turlichadir.

Fraktallardan kompyuter grafikasida, telekommunikatsiya sohasida, markazlashtirilgan tarmoqlarda, kinoda, suyuqliklar va gazlar mexanikasi sohasida, sirtlar fizikasi sohasida, biologiya sohasida, san'at sohasida, fizika va boshqa tabiiy fanlarda keng miqyosda foydalanish mumkin.





3-rasm. Fraktal grafikasi asosida yaratilgan kompozitsiyalar.

Adabiyotlar

1. Потапов А.А. Фракталы и хаос как основа новых прорывных технологий в современных радиосистемах. Дополнение к кн.: Кроновер Р. Фракталы и хаос в динамических системах. М.: Техносфера, 2006. С. 374–479.

2. Потапов А.А., Гуляев Ю.В., Никитов С.А., Пахомов А.А., Герман В.А. Новейшие методы обработки изображений / Под ред. А.А. Потапова. М.: Физматлит, 2008. 496 с. (монография по гранту РФФИ № 07-07-07005).

3. Потапов А.А. Фрактальные методы исследования флуктуаций сигналов и динамических систем в пространстве дробной размерности // В кн.: Флуктуации и шумы в сложных системах живой и неживой природы / Под ред. Р.М. Юльметьева и др. Казань: Министерство образования и науки Республики Татарстан, 2008. С. 257–310.

4. Потапов А.А., Гильмутдинов А.Х., Ушаков П.А. Фрактальные элементы и радиосистемы: Физические аспекты / Под ред. А.А. Потапова (Библиотека журнала «Нелинейный мир»: Научная серия «Фракталы. Хаос. Вероятность»). М.: Радиотехника, 2009. 200 с.

INTERNET TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH UCHUN DASTURIY TA'MINOT ISHLAB CHIQUISH MASALALARI

Sh. I. Raximov, I. O'. Eshtemirov

*Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti*

Mamlakatimizda aloqa va axborotlashtirish sohasini rivojlantirish, jamiyat hayotining barcha jabhalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, jahon axborot makoniga integratsiyalashish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning samarasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ham muayyan natijalarga erishilmoqda. Keng polosali telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasida mazkur xizmatdan foydalanuvchilar 2011-yilga nisbatan 1,7 barobar ko'paydi.

Veb sayt yaratishga tayyorgarlik quyidagilardan iborat:

- Veb saytga joylashtirish uchun matnli ma'lumotlarni yig'ish
- Grafikli ma'lumotlarni tayyorlash, chizmalarni va rasmlarni tahrirlash (o'lchamini 10-30 Kbaytgacha keltirish, formatlarni o'zgartirish va x.k)
- Murojaatlar bo'yicha ma'lumotlarni to'g'ri joylashtirish uchun blok-tarhi tuzish.
- Dizaynlarni ishlab chiqish.
- Domenda sayt nomini tanlash.

Veb sayt nomini tanlashda, tanlangan sayt uchun login 6-7 harfdan oshmasligi va esda qolishi oson bo'lishi kerak.

Veb sayt strukturasi, ya'ni hujjat o'lchami bo'yicha kam joy talab etadigan bo'lishi kerak. Hujjatning o'lchami uchun ikkita yuqori chegara mavjud. Bulardan biri, uzun hujjat uzatilishida ko'p vaqt talab etiladi, shuning uchun xam foydalanuvchi unga tez kirib va o'zi hoxlagandek orqaga tez qaytishda qiyinchilik tug'iladi. Bu ko'pincha, albatta ma'lumot uzatish tezligiga bog'liq.

Qoida bo'yicha, tashrifchilar bir vaqtning o'zida bir necha betni o'qishga qodir emaslar. Ular ko'pincha birinchi betdagi ma'lumotni o'qib ko'rishadi, agar u yoqmasa, qolgan qismlarni varaqlash ularga zerikarli kechadi. Shuningdek tashrif buyuruvchilar hujjatning boshidayoq undan chiqib ketishlari mumkin.

Hujjatning ulchami buyicha quyidagilarga asosan e'tibor qaratish kerak bo'ladi:

Boshqa ma'lumotlarga ruhsat beruvchi online help, menu lar uchun 24 chiziqdan oshmagani ma'qul

Matnli hujjatlar uchun-A4 formatda tahminan 2.5 varaq atrofida.

Hajm ekvivalentida 1 betdagi ma'lumot 1 megabaytdan oshmasligi kerak, bunga grafik ma'lumotlarni kamaytirish va uning xajmini qisqartirish orqali oson erishish mumkin.

Har qanday hujjatning faqat bitta sarlavhasi bo'lishi mumkin. U hujjat mazmunini keng kontekstli ma'noda identifikatsiya qilib berishi kerak.

Sarlavha hujjat matnining qismi hisoblanmaydi, lekin u butun hujjatga taaluqli. Unda murojaatlar, paragraflar belgisi yoki chiziqlar bo'lishi mumkin emas. Sarlavxa uzunligiga cheklashlar mavjud emas (qaysikim ular, avtomatik tarzda boshqa berilmalardan generatsiya qilingan bo'lishi mumkin), lekin habar beruvchi provayderlar shuni esda tutishlari kerakki, juda uzun sarlavhalar kesib tashlanishi mumkin.

Qaysidir ma'noda sayt tahrirlanishi mumkin bo'lgan kitobga o'xshash. Huddi shunday tekshirilishi kerak bo'lgan dasturga xam o'xshashi mumkin.

Eng kamida, qaysidir gurux odamlari, saytdagi hatolarni tuzatish va unga ishlov berish uchun ma'lumotni o'qishi zarur.

Saytni domenga joylashtirgandan so'ng, albatta zudlik bilan quyidagi www.yahoo.com; www.yandex.ru; www.rambler.ru; www.google.ru, www.mail.ru izlash tizimlaridan bir nechasida ro'yhatdan o'tish zarur bo'ladi. Bu Internet tarmog'idagi foydalanuvchi sizning saytingizni ushbulardan topish imkoniga ega bo'lsin(o'quv yurt nomi, manzili va h.k.) uchun kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda milliy internet tarmog'ini rivojlantirish maqsadida turli sohalarga mansub milliy veb sahifalar, veb portallar yaratish dolzarb masala hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar yaratib berilayapti, axborotlashtirish, kommunikasiya sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlanib, ushbu sohani rivojlantirish uchun barcha sharoitlar mavjud. Yuqorida ko'rib chiqilgan web sahifa yoki web portalni yaratish to'liq ochib berilgan.

Ko'rsatilgan bosqichlar bo'yicha ixtiyoriy web sahifa yaratish mumkin.

Adabiyotlar

1. "Internet users per 100 inhabitants 1997 to 2007" Archived 17 May 2015 at the Wayback Machine, ICT Data and Statistics (IDS), International Telecommunication Union (ITU). Retrieved 25 May 2015.

2. Jump up to: "Number of Internet Users by Language" Archived 26 April 2012 at the Wayback Machine, Internet World Stats, Miniwatts Marketing Group, 31 May 2011. Retrieved 22 April 2012

3. "Usage of content languages for websites". *W3Techs.com*. Retrieved 26 April 2013.

4. Internet users' graphs, Market Information and Statistics, International Telecommunications Union

MULTIPLIKATIV METOD YORDAMIDA ANIQ INTEGRALLARDAGI MAXSUSLIKNI YO'QOTISH

I. Ximmatov, Sh. Xafizova, D. Mingboyeva
Samarqand davlat universiteti

Berilgan oraliqda birinchli tartibli hosilalari cheksizlikka aylanadigan xos yoki xosmas integrallarni taqribiy hisoblashda bir muncha xatoliklar bo'lganligi sababli bunday hollarda aniq kvadratur formulalar qurishga to'g'ri keladi. Mazkur ishda berilgan oraliqda birinchli tartibli hosilalari cheksizlikka aylanadigan xos yoki xosmas integrallarni multiplikativ usul bilan integral ostidan maxsuslikni yo'qotish ko'rib chiqilgan.

Integrallash oralg'ida chekli sondagi hosilaga ega bo'lgan funksiyadan olingan integrallarni taqribiy hisoblash muammolari matematik adabiyotlarda yetarlicha bayon etilgan. Chegara oralg'ida birinchi hosilalaridan biri cheksizlikka aylanadigan xos yoki xosmas integrallarni taqribiy hisoblab bo'lmaydi, chunki u qo'pol xatoliklarni berishi mumkin. Shu sababli bunday integrallar uchun imkon boricha aniq kvadratur formulalar qurishga to'g'ri keladi. Ana shunday usullardan biri multiplikativ usul bo'lib, u integral ostidagi maxsuslikdan qutilish imkoniyatini beradi.

Multiplikativ usulning mohiyatini keltiramiz.

Faraz qilaylik, integrallash intervalida

$$\int_a^b \varphi(x) dx \quad (1)$$

integral ostidagi $\varphi(x)$ funksiya qandaydir maxsuslikka ega bo'lsin. Faraz qilaylik, $\varphi(x)$ funksiyani

$$\varphi(x) = \omega(x)f(x)$$

Сўзнинг бўғинларга ажралишини дастурлаш учун аввало унинг алгоритмик асосларини ишлаб чиқиш зарур. Бўғин ажратиш процедураси учун математик (сонли) модель ёзишга ҳаракат қиламиз.

Соддалик учун сўзда кетма-кет (қўшни) ҳолатда ҳар хил ўринларда келган унлиларнинг тартиб номерига нисбатан $a_i + a_{i+1} = \sigma_i$ ва $a_{i+1} - a_i = \delta_i$ деб белгилаш киритамиз. Биз қараётган шаблон бўйича икки қўшни унлилар (a_i ва a_{i+1}) орасидаги масофа 3 та символдан ортиқ эмас, демак, бу ҳолда ушбу $0 \leq \delta_i \leq 4$ шарт ўринли бўлади (1-расм):



1-расм. Полисиллабик сўзнинг стандарт ёйилмаси

Юқоридаги $0 \leq \delta_i \leq 4$ шартга биноан иккинчи бўғиндан бошлаб ҳар бир кейинги бўғин бошида турган символнинг тартиб номерини аниқлаш учун қуйидаги формуладан фойдаланамиз:


$$b_{i+1} = \frac{\sigma_i}{2} + \left\{ \frac{\sigma_i}{2} \right\} + \left[\frac{\delta_i}{4} \right] \quad (6)$$

Бу ерда b_2, b_3 ва b_m ($b_{i+1}, i = 1, m-1$) лар мос равишда 2-, 3- ва охириги m -бўғинларнинг бошида турган ҳарфларнинг тартиб номерини билдиради; $\left\{ \frac{\sigma_i}{2} \right\}$ – $\frac{\sigma_i}{2}$ ҳақиқий соннинг каср қисмини, $\left[\frac{\delta_i}{4} \right]$ эса $\frac{\delta_i}{4}$ ҳақиқий соннинг бутун қисмини англатади.

Шундай қилиб, юқоридаги (6) формула ўзбек тилининг ўз лексикаси ва шарқ тилларидан ўзлашган лексикага оид сўзларни автоматик тарзда бўғинга ажратиш ва янги сатрга кўчириш учун етарли асос бўла олади.

Бўғин ажратиш ва ўз навбатида бўғин кўчиришга оид интерфаол дастурий таъминотнинг бундай алгоритмик асосларини яратишда 1995 йили жорий этилган “Ўзбек тилининг асосий имло қоидалари” [3] ва ўзбек олими, профессор М.Миртожиев томонидан сўзларни бўғин ажратишга оид тақдим этилган қуйидаги лингвистик модель асос қилиб олинди [4]:

Мазкур тадқиқот натижасини амалда кўриш учун Visual Basic .NET дастурлаш тизимидан фойдаланган ҳолда Windows-илова кўринишида ушбу интерфаол дастурий таъминот ҳам ишлаб чиқилган бўлиб, у қуйидаги 2-расмда тасвирланган:



2-расм. Интерфаол дастурий таъминотнинг кўриниши.

Шундай қилиб, бугунги фан-техника тараққиёти даврида лингвистик муаммоларни ҳал этишга қаратилган интерфаол дастурий таъминотларни яратиш ва шу орқали тилшуносликка автоматлаштирилган ахборот тизимларини олиб кириш ўз она тили бошқа чет тилларни ўрганишда ёшлар учун яна бир имконият бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Имяминова Ш.. Немис ва ўзбек тилларида бўғин ҳосил бўлиши. – Т.: 2010. – 88 б.
2. Пиотровский Р.Г. Моделирование фонологических систем и методы их сравнения. – М.: «Наука», 1966. – 299 с.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. – Т.: “Университет”, 2002. – 56 б.
4. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Т.: Фан, 2013. – 424 б.

ФРАКТАЛЛАРНИ ҚУРИШ ВА УЛАРНИНГ ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИНИ ЯРАТИШ

Ф.Нуралиев, Ш. Анарова, О. Нарзуллоев

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялар
университети*

Фракталлар ноёб объектлар бўлиб, хаотик дунёнинг айтиб бўлмайдиган даражадаги ҳаракатларидан пайдо бўлади. Уларни жуда кичик бўлган мембрана ҳужайраларидан тортиб, жуда катта ҳисобланган Қуёш тизимидан ҳам мавжуддир. Дарахтларнинг барглари, вена қон томирлари, тўлқинли дарёлар, қимматбаҳо қоғозларнинг бозори-буларнинг ҳаммаси фракталлардир. Қадимги замон тараққиёти вакиларидан то ҳозирги куннинг тараққиёти вакиллари, олимлар, математиклар ва санъат соҳасидаги мутахассислар, жамики ер юзида яшовчи одамлар фракталлар билан ҳайратланганлар ҳамда улардан ўзларининг ишларида фойдаланганлар. Шунингдек, дастурчилар ва компьютер техникаси соҳасидаги мутахассислар

фракталлардан чексиз мураккабликдаги гўзалликни оддий формулалар орқали уй компьютерларида куриши мумкин.

Ҳозирги вақтда фракталлар компьютер графикаси, шаҳар курилишида, ландшафт дизайнида, архитектурада, енгил саноатда ва бошқа турли табиий фанларда кенг қўлланилмоқда, шунингдек радиотехника, телекоммуникация, кино, телевиденияда махсус эффе́ктлар ва визуализация элементлари сифатида ишлатилмоқда.

Фрактал термини Франко-Америка олими Бенуа Мандельброт томонидан 1975 йили нотекис, лекин ўз-ўзига ўхшаш тузилишларни ифодалаш учун киритилган.

Фрактал геометриянинг пайдо бўлиши 1977 йили нашрдан чиққан, Бенуа Мандельброт томонидан ёзилган «The Fractal Geometry of Nature» (Табиатнинг фрактал геометрияси) номли китоб билан боғлиқдир. Мандельброт ушбу китобида 1875-1925 йилларда шу соҳада ишлаган бир неча олимларнинг (Пуанкаре, Фату, Жюлиа, Кантор, Хаусдорф ва бошқалар) илмий изланишлари натижаларидан кенг фойдаланган [1].

Фракталлар куриш учун уларнинг тенгламасини куриш керак бўлади, бунда бир неча усуллардан фойдаланилади, булар IFS (Iterated function systems—Итерацион функциялар тизимлари (ТФТ)), L-тизимлар (Lindenmayer номидан келиб чиққан), базис кўпхадлар ва комбинаторика усуллари, R(Рвачев)-функция усули (RFM), тўпламлар назарияси усули ва бошқалар.

R-функция усулини қўллаб фракталлар соҳаси геометрияси тенгламасини куришни амалга ошириш.


Алгоритм учун кирувчи маълумот куйидагилар:

Фойдаланиладиган стандарт примитивларнинг кўриниши: тўғри чизик, доира, айлана, эллипс, тўртбурчак, квадрат, учбурчак, қавариқ кўпбурчак, мунтазам кўпбурчаклар ва бошқалар (фойдаланувчининг сўровига қараб меню ёки уларнинг кўриниши тўлдирилиб борилади).

Стандарт примитивларни ўлчами ва ўрнини аниқловчи геометрик параметрлар.

Бу маълумотлар асосида таянч функциялар автоматик шакллантирилади, чақирилган примитивларнинг нормаллашган тенгламаси ва белгилар бўйича ташкил этилган соҳа геометриясининг “ичкарчи томон”- “ташқари томон”ларининг предикат ҳамда аналитик функциялари шакллантирилади.

Қуйидаги 1 ва 2 – расмларда баъзи бир фракталларни куришнинг умумий алгоритми схемасини ва дастурий таъминотининг интерфейсини келтирамыз:




1 – расм. Фракталларни қуришининг умумий алгоритми схемаси

Энди ишлаб чиқилган геометрик моделлари ҳамда рекурсив алгоритмлари [2-3] асосида яратилган дастурий таъминотдан фойдаланиш учун услубий кўрсатмани баён этамиз.

Ишлаб чиқилган алгоритмга асосланган дастурий таъминот яратилиб, итерациянинг турли сонларида айланалардан, тўртбурчаклардан ва бошқа геометрик шакллардан иборат фракталларни қуришда фойдаланилади. Дастурий восита ишга туширилиши билан 2-расмдаги интерефейс экранда пайдо бўлади.

Ҳосил бўлган интерфейсдаги биринчи сатрни асосий меню сарти деб, бу ерда дастурий воситанинг номи ҳамда дастурий восита билан ишлашга қулайлик яратишга мўлжалланган командалар мавжуддир. Дастурий таъминот интерфейснинг иккинчи сатрида қисмменю сатри жойлаштирилган бўлиб, булар “Айлана”, “Тўртбурчак”, “Бешбурчаклар”, “Олтибурчаклар” каби фракталларни чизишга имконият яратувчи командалар мавжуддир. Дастурий таъминотнинг ишчи соҳаси иккита вертикал қисмга ажратилган бўлиб, уларнинг биринчи қисмида рекурсиянинг турли сонларида ҳосил бўладиган фракталлар чизмаси ҳосил бўлади. Иккинчи қисмида танланган геометрик шакллардандан иборат фракталларнинг турлари (3), ранглар палитраси (4), ўлчамлари (5), қадамлар сони (6), чизиш ва тозалашлар (7) танлаб олинади. Булар расмда келтириб ўтилган.

Дастурий таъминот ишга туширилганда қуйидаги 2-расмдаги интерефейс экранда пайдо бўлади.



2-расм. Дастурий таъминотнинг умумий кўриниши

Дастурий таъминотдан фойдаланиб гиламлар ва газмолларга турли хил кўринишдаги фракталларни штамплаш мумкин бўлади.

Адабиётлар

1. Мандельброт Б. Табиатнинг фрактал геометрияси / Б. Мандельброт. – М.: Компютерли тадқиқотлар институти, 2002. –656 б.
2. Нуралиев Ф.М., Анарова Ш.А., Мулламухамедова М.А., Султонов Д.У. Айланалардан ва тўртбурчаклардан иборат фракталларни қуришнинг рекурсив алгоритмлари. // ТАТУ хабарлари журнали. 2015 №4(36). С. 82-88
3. Назиров Ш.А., Анарова Ш.А., Нуралиев Ф.М. Фракталлар назарияси асослари. – Ташкент: Наврўз. Монография. 2017. - 128 б.

ТАСВИРЛАРНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАРИ

С. З. Рахимов

Самарқанд давлат университети

Дунёнинг бошқа ривожланган давлатлари сингари Ўзбекистон рақамли телеузатиш дастурларини ўрнатди, бу дастурнинг ўрнатилиши 2010-2015 йилга режалаштирилган. Ўзбекистон рақамли телеузатишни киритиш умумий давлат масшабдаги масала бўлиб хисобланади. Европа ва FMX давлатлар сингари, Ўзбекистон 2015 йилга келиб, рақамли телерадио узатишга ўтиш ҳақидаги шартномани 2006 йили Женева шаҳрида имзолади. Бу жараёни координациялаш учун Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 20 августдаги №ПП-1394 фармони асосан рақамли телевидениега ўтиш масалари буйича ишчи гуруҳ тузилди. Рақамли телеузатишнинг актуал масалаларининг бири, расм рангининг қуюқлиги ва унинг аниқлигини

сақлаб қолишдан иборат.

Бу ишда мураккаб математик ўзгартиришсиз предметик областни очиш. Тасвирларни рақамли қайта ишлаш йуналиши тажрибасига эга бўла ўтириб, биз тасвирларни қайта ишлашнинг компьютерли методларини амалга ошириш, уларни анализлаш ва синтезлаш ўзгачалигини кўрсатамиз.

Узликсиз тасвирларнинг моделлари. Тасвирларни компьютерда ишлаб чиқиш узлуксиз формада тасвир сигнални рақамли формага ўзгартиришда пайдо булади. Ишлаб чиқиш эффективлиги тасвирни кўрсаткич моделининг адекватлигига, алгоритмлик ишлашига боғлиқ. Бунда тасвир сигналига боғлиқ каналнинг қабул қилиш тизими узатувчининг тасирини ҳисобга олиш зарур.

Тасвир модели функциялар тизимида кўрсатилиб, улар тасвир характеристикасини кўрсатади: Ёруглик функциясини тасвир текислигида ёруглик ўзгаришини, фазо спектрини, тасвирнинг спектраль интенсивлигини, автокорреляция функциясининг тасвир канали оптик тизимлардан, оптик электрик ўзгартишида рақамли ўзгартувчи қурилмасини, тасвир сигнални рақамли ишлаб чиқишдан ибарат. Умумий ҳолда узлуксиз тасвир беш аргумент функциясида берилади. Уч фазоли координата, вақт ва электромагнитли нурланишнинг тўлқин узунлигидан. Фазо вақт сигнални баъзи тўлқин диапазонида кенгайтириш модели $f(x, y, z, t, \lambda)$ моделларни фазоли вақт сигналига олиб келади $f(x, y, z, t,)$ фазо сигналига $f(x, y, z,)$ вақт сигналига $f(t)$ бунда x, y, z - фазо координаталари, t - вақт λ электромагнитли нурланишнинг тўлқин узунлиги.

Тасвирларнинг фазо спектри. Тасвирларни ишлаб чиқишда тасвирлар спектрининг анализи қулланилади. Тасвир спектрни Фурье функциясининг икки ўлчамли туғри ўзгариши орқали олади.

$$F(\omega_x, \omega_y) = \int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} f(x, y) \exp(-i(\omega_x x, \omega_y y)) dx dy \quad (1)$$


бунда ω_x, ω_y - фазо частотаси; $i = \sqrt{-1}$ пастдаги бирлик.

$\exp(-i(\omega_x x, \omega_y y))$ функцияси фазо частотасининг фиксерланган кўрсаткичида (x, y) тасвирин текисликдаги тўлқин узунлигини кўрсатади. (1 расмга мос)

(1) формуласи - $F(\omega_x, \omega_y)$ тасвир спектрида комплексни функция частотасида $f(x, y)$ тасвир ёруғлигини кўрсатувчи функция

$$F(\omega_x, \omega_y) = \int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} f(x, y) \cos(\omega_x x, \omega_y y) dx dy + i \int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} (-f(x, y)) \sin(\omega_x x, \omega_y y) dx dy = \text{Re}(\omega_x, \omega_y) + i \text{Im}(\omega_x, \omega_y) \quad (2)$$

бунда $\text{Re}(\omega_x, \omega_y)$ - спектрнинг реал бўлаги. $\text{Im}(\omega_x, \omega_y)$ спектрнинг пастдаги бўлаги.



1 – расм. Тасвирнинг фазо частотасини аниқлаш.

Спектр амплитудаси билан аниқланади.

$$F(\omega_x, \omega_y) = \sqrt{\operatorname{Re}(\omega_x, \omega_y)^2 + \operatorname{Im}(\omega_x, \omega_y)^2} \quad (3)$$

$$\varphi(\omega_x, \omega_y) = \operatorname{arctg}(\operatorname{Im}(\omega_x, \omega_y) / \operatorname{Re}(\omega_x, \omega_y))$$

бундан

$$F(\omega_x, \omega_y) = F(\omega_x, \omega_y) \exp(i\varphi(\omega_x, \omega_y)) \quad (4)$$

Фурьенинг тескари ўзгариши спектри буйича тасвирни қайта тиклашни таминлайди.

$$f(x, y) = (1/4\pi^2) \int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} F(\omega_x, \omega_y) \exp(i(\omega_x x + \omega_y y)) d\omega_x d\omega_y \quad (5)$$

Тасвирларнинг спектраль интенсивлиги. Тасвирларнинг спектраль интенсивлиги, фазо частотасида энергиянинг тарқалишини характерлайди.

$$S(\omega_x, \omega_y) = \operatorname{Re}(\omega_x, \omega_y)^2 + \operatorname{Im}(\omega_x, \omega_y)^2 = F^2(\omega_x, \omega_y) \quad (6)$$

Унинг аталиши учун спектраль зичлик ва энергетик спектр терминлари қулланилади. Тасвир энергияси фазо частотасида энергетик спектр интегралли сифатида аниқланади. Парсевал теоремасига асосан тасвир энергияси (7) формуласига мос ҳисобланади.

$$\int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} f^2(x, y) dx dy = \int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} |F(\omega_x, \omega_y)|^2 d\omega_x d\omega_y \quad (7)$$

Автокорреляция функцияларининг ва тасвирларнинг эҳтимоллик моделлари. Тасвирларнинг эҳтимоллик моделлари тасвирларни курсатиш учун қулланилади. Бундай ҳолда тасвир (x, y) фазо координатасининг эҳтимоллик функцияси ва t вақт сифатида қаралади. Тасодифий жараён математик кутилишининг тахминига ва дисперсияга эга бўлса стационарли кенг маънони беради, унинг автокорреляцион функцияси ҳолларига боғлиқ. Тасодифий жараён тор маънода стационар бўлади. Агар унинг n - ўлчамли эҳтимолликнинг таралиш зичлиги инвариант бўлса бундай ҳолда ассиметрия ва эксцесс вақтга ва моментга боғлиқ эмас. Тасодифий жараён баъзи бир

фиксацияланган $tr(x, y)$ вақт моменти учун фазо координатаси буйича тасвир ёруглик эҳтимоллик таралиш зичлиги билан кўрсатилади.

Ифода аниқлигига мос кенг маънодаги стационар жараённинг ўртача тахмини математик кутилиши

$$Mf = \xi = \int_{-\infty-\infty}^{\infty} \int_{-\infty-\infty}^{\infty} f(x, y) p(x, y) dx dy = const \quad (8)$$

Дисперсия

$$df = \sigma^2 = E(f(x, y) - \xi)^2 = \int_{-\infty-\infty}^{\infty} \int_{-\infty-\infty}^{\infty} (f(x, y) - \xi)^2 p(x, y) dx dy = const \quad (9)$$

Автокорреляция функцияси (10) формуласига мос ҳисобланади.

$$R(\tau_x, \tau_y) = \int_{-\infty-\infty}^{\infty} \int_{-\infty-\infty}^{\infty} f(x, y) f(x - \tau_x, y - \tau_y) dx dy \quad (10)$$

бунда τ_x, τ_y координатанинг мос ўқи буйича тасвир ўзгаришини беради.

f ҳақиқий функцияси учун автокорреляцион функция ҳақиқий ва аниқ бўлади.

Адабиётлар

1. Иванов В.П., Курт В.И., Овсянников В.А., Филиппов В.Л. Моделирование и оценка современных тепловизионных приборов. Казань, ФНПЦ НПО ГИПО, 2006. 594 с.
2. Прэтт У. Цифровая обработка изображений. М.: Мир, 1982. Т. 1, 2. 791 с.

ВОЛНОВЫЕ РЕШЕНИЯ СИСТЕМ РЕАКЦИИ-ДИФФУЗИИ В ДВУХКОМПОНЕНТНЫХ НЕЛИНЕЙНЫХ СРЕДАХ

Ш.Садуллаева, Н.Исхакова

*Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада аль-Хорезми*

Рассмотрим в области $Q = \{(t, x) : t > 0, x \in R^N\}$ следующую систему параболических уравнений с двойной нелинейностью с источником и конвективным переносом с вектором скоростью $c(t)$, зависящей от времени

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \operatorname{div} \left(v^{m_1-1} |\nabla u^k|^{p-2} \nabla u^l \right) - \operatorname{div}(c(t)u) + \gamma(t)u^{\beta_1}, \quad (1)$$

$$\frac{\partial v}{\partial t} = \operatorname{div} \left(u^{m_2-1} |\nabla v^k|^{p-2} \nabla v^l \right) - \operatorname{div}(c(t)v) + \gamma(t)v^{\beta_2},$$

$$u_{t=0} = u_0(x) \geq 0, \quad v_{t=0} = v_0(x) \geq 0, \quad x \in R^N, \quad (2)$$

где $p, m_i, k, l \in R, \beta_i \geq 1, i = 1, 2$ - заданные числовые параметры, $\nabla(\cdot) = \operatorname{grad}(\cdot)$, $c(t)$ - непрерывная при $t > 0$ вектор функция.

Система (1) описывает различные физические, химические, биологические и другие процессы в двухкомпонентных нелинейных средах при воздействии конвективного переноса, скорость которого зависит от времени, и при воздействии источника, мощность которого является

нелинейной функцией. В последние годы стали интенсивно изучаться свойства математических моделей, описываемой системой (1).

Такие решения для системы (1) при отсутствии младших членов в системе уравнений (1) были построены в работе [1], где также был предложен численные схемы и метод для расчета волновых решений, а в работе [2] найдены решения типа температурных волн для задачи в случае одного уравнения.

Покажем свойство локализации и конечной скорости распространения волновых решений системы (1) путем явного построения частного решения системы.

Для построения автомодельного решения системы положим в (1):

$$u(t, x) = u_1(t, \xi), v(t, x) = v_1(t, \xi), \quad \xi = x - \int_0^t c(y) dy.$$

Тогда система (1), в силу последних замен, приводится к виду

$$\begin{aligned} \frac{\partial u_1}{\partial t} &= \operatorname{div} \left(v_1^{m_1-1} \left| \nabla u_1^k \right|^{p-2} \nabla u_1^l \right) + \gamma(t) u_1^{\beta_1}, \\ \frac{\partial v_1}{\partial t} &= \operatorname{div} \left(u_1^{m_1-1} \left| \nabla v_1^k \right|^{p-2} \nabla v_1^l \right) + \gamma(t) v_1^{\beta_2}. \end{aligned} \quad (3)$$

Далее, полагая в (3)

$$u_1(t, \xi) = f(\eta), \quad v_1(t, \xi) = z(\eta), \quad \eta = ct - \xi, \quad (4)$$

получим приближенно-автомодельную систему уравнений

$$\begin{aligned} N \frac{d}{d\eta} \left(z^{m_1-1} \left| \frac{df^k}{d\eta} \right|^{p-2} \frac{df^l}{d\eta} \right) - c \frac{df}{d\eta} + \gamma(t) f^{\beta_1} &= 0, \\ N \frac{d}{d\eta} \left(f^{m_1-1} \left| \frac{dz^k}{d\eta} \right|^{p-2} \frac{dz^l}{d\eta} \right) - c \frac{dz}{d\eta} + \gamma(t) z^{\beta_2} &= 0. \end{aligned} \quad (5)$$

где $\beta_i = (k(p-2) + m_i + l - 1) / (k(p-2) + m_{3-i} + l - 1)$, $k(p-2) + m_i + l - 1 > 0$, $i = 1, 2$, и пусть $\gamma(t) = \text{const}$.

Заметим, что если выполняется условие $\beta_2 = 1 / \beta_1$, то система (5) имеет точное решение

$$\begin{aligned} f(\eta) &= A \eta_+^{p_1}, \quad p_1 = \frac{p-1}{k(p-2) + m_1 + l - 1}, \\ \psi(\eta) &= B \eta_+^{p_2}, \quad p_2 = \frac{p-1}{k(p-2) + m_2 + l - 1}, \end{aligned} \quad (6)$$

если постоянные A и B являются корнями нелинейной алгебраической системы

$$\begin{aligned} N(n_1)^{k(p-2)+m_1+l-1} A^{k(p-2)+m_1+l-1} + B^{\beta_2} &= cA, \\ N(n_2)^{k(p-2)+m_2+l-1} B^{k(p-2)+m_2+l-1} + A^{\beta_1} &= cB \end{aligned}$$

Таким образом найденное решение системы (1) в силу (4) обладает свойством локализации решения, если

$$k(p-2) + m_i + l - 1 > 0, i = 1, 2, \int_0^{\infty} c(t) dt < \infty.$$

Литература

1. Садуллаева Ш.А. К локализации волновых решений одной системы взаимной реакции-диффузии с конвективным переносом и поглощением, Труды IV-Международной научной конференции «Актуальные проблемы прикладной математики и информационных технологий - аль-Хорезми 2014», Ташкент, 15 – 17 сентября 2014, 137-139.

2. Арипов М., Садуллаева Ш.А. О волновых решениях задачи теплопроводности с двойной нелинейностью, “Амалий математика ва ахборот хавфсизлиги” республика илмий-техника конференцияси материаллари, 2014, 28-30 апрель.

ГЕПАТИТ В ВИРУСЛАРИ КВАЗИСТАЦИОНАР ДАВРИДА ЖИГАР ХУЖАЙРАЛАРИ РЕГУЛЯТОРИКАСИ ХАОС РЕЖИМИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

М. Сайдалиева, М. Б. Хидирова, А. М. Турғунов

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялар университети ҳузуридаги ахборот-коммуникация технологиялари илмий-инновацион маркази

Маълумки, гепатит В вируслари энг кенг тарқалган хавфли вируслар бўлиб, жигарда юқумли вирусли гепатит В касаллигини кўзғатади. Гепатит В вируслари жигар хужайралари билан учрашгандан сўнг фаол бўлишни бошлайди. Жигар хужайралари билан учрашишга қадар гепатит В вируслари инсон организми қонида кристалл ҳолатда, яъни квазистационар фаолиятда бўлади. Гепатит В вирусларини квазистационар даврида жигар хужайраларига таъсирини тадқиқ қилиш муҳим масалардан биридир.

Гепатит В вируслари квазистационар даврида жигар хужайралари регуляторикаси математик модели қуйидагича келтирилган [1, 2]:

$$\varepsilon \frac{dX(t)}{dt} = \frac{aX^2(t-1)}{1-c+bcX(t-1)+(1-cd)X^2(t-1)} - X(t); \quad (1)$$


$$X(t) = \phi(t) > 0, t \in [0,1],$$

бу ерда $X(t)$ – гепатит В вируслари квазистационар даврида жигар хужайралари генетик тизимлари фаоллигини ифодалайди; ε, a, c, b, d – модель тенгламаси параметрлари; $\phi(t) – [0,1]$ ораликда берилган мусбат узлуксиз бошланғич шарт. Барча параметрлар мусбат.

(1) математик модель Гудвин типли кечикувчи аргументли функционал-дифференциал тенглама асосида олинган бўлиб, ушбу тенгламани аналитик усуллар билан ечимини олиш жуда мураккаб. Бундан ҳолда дифференциал тенгламаларни сонли ечиш усулларидан фойдаланиш зарур. Гепатит В вируслари квазистационар даврида жигар хужайралари регуляторикаси

математик модели Гудвин типли кечикувчи аргументли функционал-дифференциал тенгламаси сонли ечимларини олиш учун бугунги кунда кенг қўлланилаётган тўртинчи тартибли Рунге-Кутта усулидан фойланамиз [3]. Гепатит В вируслари квазистационар даврида жигар ҳужайралари регуляторикаси математик модели асосида тўртинчи тартибли Рунге-Кутта усулидан фойдаланган ҳолда компьютер моделини тузишимиз мумкин.

Ҳисобий тажриба натижалари гепатит В вируслари квазистационар даврида жигар ҳужайралари регуляторикасининг регуляр (стационар, даврий) ва нерегуляр (динамик хаос, “қора ўрама” эффекти) режимлари мавжудлигини кўрсатди. Ҳисобий тажриба натижаларидан бирини келтирамиз.



1-расм. Динамик хаос режими.


Гепатит В вируслари квазистационар даврида жигар ҳужайралари регуляторикаси динамик хаос режимини таҳлил қилиш орқали қаралаётган тизимни касалликни ифодаловчи соҳадан (динамик хаос) соғлом соҳага олиб ўтиш имконини беради. Бунда динамик хаос режимидаги мавжуд “r-windows” (динамик хаос режимидаги кичик соғлом соҳалар) ларни аниқлаш зарур бўлади. Бунинг учун ε нинг жуда кичик қийматларида (1) нинг

$$X(t) = \frac{aX^2(t-1)}{1-c+bcX(t-1)+(1-cd)X^2(t-1)} \quad (2)$$

функционал тенгламасини оламиз ва (2) асосида

$$X_{k+1} = \frac{aX_k^2}{1-c+bcX_k+(1-cd)X_k^2} \quad (3)$$


Дискрет аналог тенгламага эга бўламиз. (3) дискрет аналог тенглама асосида дастурий таъминот ишлаб чиқилган [4] (2-расм).



2-расм. Ляпунов қиймати ва “r-windows” лар сони.

Ушбу дастурий таъминот гепатит В вируслари квазистационар даврида жигар ҳужайралари регуляторикаси динамик хаос режимини таҳлил қилиш ва ундаги мавжуд “r-windows”ларни аниқлаш имконини беради.

Гепатит В вируслари квазистационар даврида жигар ҳужайралари регуляторикаси динамик хаос режимини таҳлил қилишда “қора ўрама” эффекти мавжудлиги ва унга ўтиш мумкинлигини ҳам таҳлил қилиш зарур. Бунинг учун Ламерея диаграммаси дастурий таъминотини ишлаб чиқдик.



3-расм. Ламерея диаграммаси.

Ламерея диаграммаси дастурий таъминоти гепатит В вируслари квазистационар даврида жигар ҳужайралари регуляторикаси динамик хаос режиминдан “қора ўрама” эффектига ўтиш мумкинлигини аниқлашга имкон беради. 3-расмда қаралаётган тизим фаолияти динамик хаос режимидан “қора ўрама” эффектига ўтиши мумкинлиги келтирилган. Бу тизим фаолиятини тўхтаб қолиш эҳтимоллиги мавжудлигини англатади.

Шундай қилиб, гепатит В вируслари квазистационар даврда бўлсада, аммо жигар ҳужайралари учун етарлича хавfli эканлиги математик модель асосида ишлаб чиқилган дастурий таъминотлар ёрдамида амалга оширилган ҳисобий тажрибаларда кузатилди.

Адабиётлар

1. Хидиров Б.Н., Тургунов А.М. Моделирование молекулярно-генетических механизмов управления вирусным гепатитом В // Проблемы информатики и энергетики. – Ташкент, 2012. – № 2–3. – С. 13–18.

2. Сайдалиева М., Хидирова М.Б., Тургунов А.М. Моделирование регуляторики клетки печени при квазистационарном состоянии вируса гепатита В // Тошкент ахборот технологиялари университети «ТАТУ хабарлари». Тошкент. 2015. № 3(35)/2015. – С. 160-165.

3. Пименов В.Г. Функционально-дифференциальные уравнения в биологии и медицине. Учебное пособие. Екатеринбург, 2008 г. – 92 с.

4. Хидиров Б.Н., Сайдалиева М., Хидирова М.Б. Программа для качественного анализа функционально-дифференциальных уравнений регулирования. Программный продукт проверен Государственным патентным ведомством Республики Узбекистан. 18.12.2009. DGU 01879.

МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ РЕГУЛЯТОРИКИ ЭПИДЕРМИСА КОЖИ ПРИ БАЗАЛЬНОКЛЕТОЧНОЙ И ПЛОСКОКЛЕТОЧНОЙ КАРЦИНОМАХ

М. Сайдалиева, М.Б.Хидирова

Научно-инновационный центр информационно-коммуникационных технологий при Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми

Актуальность разработки математических моделей регуляторики (Б.Н.Хидиров в 1984 году определил регуляторику как науку об общих законах функционирования регуляторных механизмов материи) эпидермиса кожи при канцерогенезе определяется тем, что к настоящему времени не ясны этиология и патогенез данного кожного заболевания; клинические и экспериментальные исследования страдают от неспособности выявить причинно-следственные взаимосвязи в присутствии большого количества других (в том числе ещё неизвестных или не выявленных) факторов, способных влиять на характер течения рака кожи, наличия противоречащих друг другу данных [1-2].

Новизна данных исследований определяется применением современных методов математического моделирования и средств информационной технологии, обеспечивающих количественный анализ характерных сторон функционирования регуляторных механизмов эпидермиса кожи; разработкой математической и компьютерной моделей регуляторики эпидермиса кожи в норме и при кожных карциномах с учетом сопутствующих нарушений и возможностей коррекции регуляторных механизмов функционирования кожи на основе теории регуляторики живых систем ввиду отсутствия общепринятых подходов, эффективных методов разработки средств информационной технологии регуляторики живых систем в норме и при аномалиях.

Плоскоклеточная карцинома – злокачественная опухоль, которая развивается из кератиноцитов шиповатого слоя кожного эпидермиса и чаще всего встречается на коже головы и шеи. Базальноклеточная карцинома (базальноклеточный рак, базалиома, базальноклеточная эпителиома) – это раковая опухоль, образовавшаяся из клеток базального слоя эпителия кожи.

На данный момент этиология и патогенез рака кожи, регуляторные механизмы трансформации здоровых клеток кожи в опухолевые остаются неизвестными и поэтому практически единственным методом исследования этих процессов является математическое моделирование.

Используя методику моделирования регуляторики клеточных сообществ функциональных единиц многоклеточных организмов и, приведя соответствующие величины численности однородных групп клеток в текущий момент времени, мы можем написать следующие функционально-дифференциальные уравнения регуляторики численности клеточных сообществ эпидермиса кожи для исследования регуляторных механизмов возникновения базальноклеточной карциномы [3]:

$$\begin{aligned}\frac{dM(t)}{dt} &= a_1(M(t-1)S_1(t-1)S_2(t-1))e^{-M(t-1)-S_1(t-1)} - a_2M(t) \\ \frac{dB(t)}{dt} &= a_2M(t-1) + b_2D(t-1) - (b_1 + a_3)B(t); \\ \frac{dD(t)}{dt} &= a_3B(t-1) - (b_2 + a_4)D(t); \\ \frac{dS_1(t)}{dt} &= a_4D(t-1) - a_5S_1(t); \\ \frac{dS_2(t)}{dt} &= a_5D(t-1) - a_6S_2(t),\end{aligned}\tag{1}$$

где $M(t)$, $B(t)$, $D(t)$, $S_1(t)$ и $S_2(t)$ – величины, выражающие численности делящихся, растущих, дифференцирующихся, меланиновых и кератиновых однородных клеточных групп эпидермиса, образующих базальный слой эпидермиса кожи; коэффициенты $\{a\}$, $\{b\}$ выражают значения параметров переходов клеток между слоями. Значения всех коэффициентов – неотрицательны, что обеспечивает получение биологически разумных – неотрицательных решений системы уравнений (1). Анализ структурно-функциональной организации клеточных сообществ эпидермиса и функционально-дифференциальных уравнений регуляторики их численности показывает, что, в случае исследования регуляторных механизмов возникновения плоскоклеточной карциномы, можно рассматривать следующую систему уравнений:

$$\begin{aligned}\frac{dM(t)}{dt} &= a_1(M(t-1)S_1(t-1)S_2(t-1)S_3(t-1))e^{-M(t-1)-S_1(t-1)-S_2(t-1)-S_3(t-1)} - a_2M(t); \\ \frac{dB(t)}{dt} &= a_2M(t-1) + b_2D(t-1) - (b_1 + a_3)B(t); \\ \frac{dD(t)}{dt} &= a_3B(t-1) - (b_2 + a_4)D(t); \\ \frac{dS_1(t)}{dt} &= a_4D(t-1) - a_5S_1(t);\end{aligned}\tag{2}$$

$$\frac{dS_2(t)}{dt} = a_5 D(t-1) - a_6 S_2(t);$$

$$\frac{dS_3(t)}{dt} = a_6 D(t-1) - a_7 S_3(t),$$

где $M(t)$, $B(t)$, $D(t)$, $S_1(t)$, $S_2(t)$, $S_3(t)$ – величины, выражающие численности делящихся, растущих, дифференцирующихся, меланиновых, кератиновых однородных клеточных групп эпидермиса и клеток шиповатого слоя; $\{a\}$, $\{b\}$ выражают значения параметров переходов клеток между слоями.

Результаты качественного анализа наиболее общих закономерностей поведения решений функционально-дифференциальных уравнений (1)-(2), на основе методов исследования подобных уравнений регуляторики [3], показывают наличие режимов монотонного уменьшения (А), стационарного состояния (В), автоколебаний (С), нерегулярных колебаний – детерминированного хаоса (D), а также резкого деструктивного уменьшения – режима «черная дыра» (Е) численностей клеточных сообществ эпидермиса. Режимы А, D и Е могут идентифицировать возникновение плоскоклеточной и базальноклеточной карцином при различных внутренних и внешних воздействиях. Как показали результаты качественных исследований уравнений (1)-(2), в области детерминированного хаоса – D имеются малые регионы регулярных колебаний – С. Это означает, что данная область аномалий содержит малые области нормального функционирования и, следовательно, режим патологического состояния может сменяться, при определенных условиях, режимом «временного» здорового состояния. Наличие таких малых регионов в области аномалии D позволяет организовать регулирование состоянием клеточных сообществ эпидермиса (в ходе увода в область нормы) путем последовательного перехода в D из одного малого региона С в другой.

Таким образом, анализ полученных уравнений показывает возможность количественного исследования механизмов регуляторики клеточных сообществ эпидермиса кожи в норме и при плоскоклеточной, базальноклеточной карцином на основе применения функционально-дифференциальных уравнений динамики численности функциональной единицы клеточных сообществ многоклеточных организмов. Количественное исследование механизмов возникновения, развития и последствий эпидермальных кожных заболеваний, а также анализ возможных путей их диагностики, прогнозирования и лечения средствами математического и компьютерного моделирования являются предметом дальнейших исследований.

Литература

1. Del Busto-Wilhelm I, Malveyh J, Puig S.G Dermoscopic criteria and basal cell carcinoma. *Ital Dermatol Venereol*. 2016 Dec; 151(6), pp. 642-648.
2. Marur, S., & Forastiere, A. A. Head and Neck Squamous Cell Carcinoma: Update on Epidemiology, Diagnosis, and Treatment. *Mayo Clinic Proceedings*, 2016, 91(3), pp. 386–396

3. Хидиров Б.Н. Избранные работы по математическому моделированию регуляторики живых систем. – М. – Ижевск, 2014. – 304 с.

ИНФОРМАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ РЕГУЛЯТОРИКИ ЖИВЫХ СИСТЕМ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, МЕТОДЫ И ОСНОВНЫЕ КОНЦЕПЦИИ

М. Б. Хидирова

Научно-инновационный центр информационно-коммуникационных технологий при Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми

Методы качественных и количественных исследований на основе математического и компьютерного моделирования приобретают все большее значение, становясь одним из основных методов анализа живых систем, поскольку новые технологии и экспериментальные методики привели к огромному росту количества информации о живых объектах. На основании такого большого объема экспериментальных данных, порой противоречивых друг другу, становится затруднительным, а иногда и невозможным делать выводы о работе сложных систем, а тем более делать предсказания и выдвигать конкретные предположения. Любая компьютерная модель, претендующая, в рамках рассматриваемых задач, на некоторую адекватность своему объекту и обладающая предсказательной способностью, должна быть разработана исходя из твердо установленных данных о рассматриваемой системе. Анализ существующих подходов математического моделирования регуляторных механизмов живых систем показал, что общей чертой рассматриваемых модельных исследований является количественный анализ поведения комплекса элементов, функционирующих в некоторой среде и способных реагировать на определенные внешние воздействия. Это приводит [1] к формулировке понятий *or* (*операторов-регуляторов*) – элементов регуляторной системы, способных к восприятию и синтезу сигналов определенной природы, и *asta* (*active system with time average*) – сигнальной среды регуляторной системы, в которой взаимосвязанная деятельность элементов осуществляется, на основе обратных связей, с некоторым средним временем h (временем, прошедшим с момента образования сигналов до момента воздействия их (или их продуктов) на активность элементов). *Or* вместе с *asta* составляют регуляторную систему *orasta*. Геометрия подобных регуляторных систем является динамической, в которой понятие неподвижной точки теряет смысл. Единицей времени *orasta* является h . Функционирование регуляторных механизмов подобных систем, для краткости, обозначены термином «регуляторика» [2]. По определению Б.Н. Хидирова – *Регуляторикой в широком смысле этого слова называется наука, посвящённая решению любых задач, связанных с изучением регуляторных механизмов материи. Теоретическая регуляторика представляет собой часть регуляторики, в которой изучаются общие законы и регуляторные механизмы.*

Количественное исследование регуляторики живых систем можно осуществлять на основе уравнений [1]

$$\frac{dx_i(t)}{dt} = \Lambda_i^n(X(t-h)) \exp\left(-\sum_{k=1}^n \delta_{ik} x_k(t-h_{ik})\right) - b_i x_i(t) \quad (1)$$

с

$$\Lambda_i^n(X(t-h)) = a_{i0} + \sum_{j=1}^n \left(\sum_{k_1, \dots, k_j=1}^n a_{ik_1, \dots, k_j} \prod_{m=1}^j x_{k_m}(t-h_{ik_m}) \right),$$

где $x_i(t)$ – величина, характеризующая количество сигнала, вырабатываемого i -ым **ор** в момент времени t ; h_{ik} – интервал времени, необходимого для изменения активности i -го **ор** под действием активности k -го **ор**; a_{i0} , a_{ik_1, \dots, k_j} , b_i – параметры скорости образования i -го сигнала в **аста**, в **ор**, распада i -го сигнала, соответственно; δ_{ik} – параметр репрессии i -го **ор** продуктами деятельности k -го **ор**; все параметры неотрицательны; в случае $a_{i0} > 0$ уравнения (1) называются уравнениями регуляторики с активной средой, а при $a_{i0} = 0$ – с пассивной средой; ik_1, \dots, k_j , $i, j, k_j = 1, 2, \dots, n$.

Система (1) принадлежит классу функционально-дифференциальных уравнений запаздывающего типа, существование и единственность непрерывных решений которой могут быть установлены по методу последовательного интегрирования Беллмана-Кука в случае задания начальных функций на соответствующем отрезке. Обычно, для анализа наиболее общих закономерностей регуляторики живых систем, используются модельные системы (1) в виде функционально-дифференциального

$$\varepsilon \frac{dx(t)}{dt} = ax^n(t-1)e^{-x(t-1)} - x(t), \quad (2)$$

функционального (при малых ε)

$$x(t) = ax^n(t-1)e^{-x(t-1)} \quad (3)$$

и дискретного

$$x_k = ax_{k-1}^n e^{-x_{k-1}} \quad (4)$$

уравнений.

В (2) параметр $\varepsilon = \tau/h$ (τ – время продолжительности активной жизнедеятельности элементов системы и h – время обратной связи в системе) выражает уровень регулированности рассматриваемой системы (при нормальной регуляторике $\varepsilon = 1$), в (2) – (4) параметр a выражает уровень активности, а параметр n – степень самосопряженности системы регуляторики. Параметрический портрет регуляторики живых систем, согласно (4), показывает наличие следующих областей однородных решений (рисунок): угасание (А), стационарное состояние (В), автоколебания (С), нерегулярные колебания – динамический хаос (D) и резкий срыв колебательных решений – эффект «черная дыра» (Е).




Рисунок 1. Параметрический портрет уравнений регуляторики живых систем (4) (A – угасание, B – стационарный режим, C – автоколебания, D – динамический хаос, E – деструктивные изменения – «черная дыра», \odot – малые регионы в D с автоколебательным режимом)

Таким образом, эффективные информационные технологии в медицине и биологии помогают понять весьма противоречивые данные (например, микроРНК-155 может оказывать как онкогенное, так и опухолесупрессирующее действие). С помощью информационной технологии на базе теоретических основ, методов и концепций регуляторики живых систем было выявлено, что различные состояния внутренних и внешних клеточных сред могут спровоцировать хаотичную регуляторику микроРНК, что приводит к нерегулируемой клеточной пролиферации и снижению уровня апоптоза (клетки вовремя не погибают), в зависимости от параметров клетки и внешней среды одна и та же микроРНК может как усиливать, так и подавлять опухолевый рост.

Литература

8. Хидиров Б.Н. Избранные работы по математическому моделированию регуляторики живых систем. Москва – Ижевск, 2014, 304 с.
9. Сайдалиева М., Хидирова М. Б. Методы и законы регуляторики живых систем // Проблемы вычислительной и прикладной математики. – 2018. – № 3(15). – С. 35–50.

ЮРАК РЕГУЛЯТОРИКАСИНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШДА КЕЧИКИШНИ ИНОБАТГА ОЛИШ

М. Б. Хидирова, З. Д. Юсупова


Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялар университети ҳузуридаги ахборот коммуникация технологиялари илмий инновацион маркази

Юрак фаолияти регулятор механизмларини ўрганиш замонавий тиббиётда асосий масалалардан бири ҳисобланади. Бунга сабаб тирик тизимларда кечадиган биологик жараёнларни ўз-ўзини бошқариш ва ўз-ўзини идора қилиш механизмларининг тўлиқ ўрганилмаганлиги, оқибатда олинган экспериментал натижаларнинг қарама-қаршилиги ҳисобланади. Регулятор механизмларни тўлиқ тадқиқ қилмасдан туриб, даво тактикасини барча беморларга бирдек қўллаш ҳар доим ҳам самарали натижа бермаслигига олиб келади.

Юрак фаолиятини тадқиқ қилиш учун уни математик моделлаштиришга кизиқиш дунё олимлари томонидан бир аср олдин бошланган. Ханузгача юракни хужайра даражада, мушаклар даражасида ва бутун бир орган даражада тадқиқ қилувчи математик моделлар ишлаб чиқилмоқда. Математик моделлар оддий, хусусий хосилали, функционал-дифференциал ёки “реакция-диффузия” кўринишидаги дифференциал тенгламалардан иборат бўлиши мумкин. Ишлаб чиқилган математик моделлар юрак фаолиятининг тебранма ҳаракатини ёки динамик хаос ҳолатини ифодалайди. Жуда кам ҳолларда, айрим математик моделлар юрак фаолиятининг ҳам норма, ҳам аномалия ҳолатларини ифодалай олади.

Ушбу мақола юрак фаолиятининг барча режимларини ифодалай оладиган модел тенгламаларини тузиш масаласига қаратилган. Юрак мушакларининг электр импульс натижасида қўзғалиш жараёнини математик моделлаштиришни кўриб чиқамиз.

Юракнинг анатомик тузилишидан келиб чиқиб, юрак бўлимларида қўзғалишнинг тарқалиши биологик моделини қуйидагича тузиб оламиз.



1-расм. Юрак бўлимлари орасида электр автивликнинг тарқалиши биологик модели

Бу ерда SA (sinoatrial node) тугун юрак ритмини бошқарувчи пейсмеркер, AV (atrioventricular node) тугун электр импульсни юрак қоринчаларига


узатувчи тугун, RA ва LA (right and left atrium) ўнг ва чап бўлмачалар, RV ва LV (left and right ventricle) ўнг ва чап қоринчалардир.

Ушбу биологик модел асосида юрак бўлимлари орасида қўзғалишни тарқалишида юз берадиган кечикиш вақтини ҳисобга олиб, кечикувчи аргументга эга бўлган функционал-дифференциал тенгламалар тизимидан иборат математик модел ишлаб чиқиш мумкин. Бу ҳақда [1-3] адабиётларда тўлиқроқ маълумот келтирилган. Қуйида келтирилган кечикиш инobatга олинган функционал-дифференциал тенглама миокард қўзғалишини ифодалайди:

$$\frac{1}{h} \frac{dx(t)}{dt} = \frac{Ax^6(t-1)(1+Bx^6(t-1))^2}{((1+Bx^6(t-1))^2 + Cx^6(t-1))((1+Bx^6(t-1))^2 + Dx^6(t-1))} - b_1x(t) \quad (1)$$

Бу ерда $x(t)$ – юрак мушак толаларининг қўзғалганлик миқдори; A, B, C, D – номанфий параметрлар; b_1 – юрак пейсмейкери активлигининг пайдо бўлиш ва сўниш тезликларини ифодаловчи коэффициентлар; h – қайта алоқа вақти.

Параметрларнинг ва x_0 бошланғич қийматлар берилганда (1) тенгламани $t > 0$ ҳолдаги тақрибий ечимларини компьютерда ҳисоблаш учун “кечикувчи идентификаторлар” усулидан фойдаланиб, дастурий восита ишлаб чиқилди ва ҳисобий тажрибалар ўтказилди. Олинган натижаларга кўра, (1) тенглама ечимлари юрак фаолиятининг турли режимларини ифодалайди.



2-расм. (1) тенглама ечимларини ҳисобий таҳлил натижалари; а-стационар, б-даврий тебранма, в-тартибсиз тебранма, г-“қора ўрама”


Ушбу олинган натижалар юрак фаолиятининг турли режимларда ишлашини тасвирлай олади ва юракнинг норма ва аритмия касалликларини идентификациялаш мумкин. Демак, модел тенгламаларида кечикишни инobatга олиниши юракнинг ҳам норма, ҳам аномалия ҳолатларини, баъзан

эса динамик хаос режимида ишлаб турган пайтда юракнинг бирдан тўхтаб қолиши – “қора ўрама” эффектини келиб чиқишига сабаб бўлади. 2-расмдаги стационар ва даврий тебранма режимлари юракнинг нормал фаолиятини, динамик хаос эса маълум турдаги аритмия касаллигини, “қора ўрама” эса юракнинг бирдан тўхтаб қолиш ҳолатини англатади.


(1) тенгламада юрак бўлимлари орасидаги вақтий муносабатлар, яъни кўзғалиш тарқалишидаги кечикиш вақти инобатга олинмаган соддарок кўринишини тадқиқ қилиб кўрайлик.

$$\frac{dx(t)}{dt} = \frac{Ax^6(t)(1+Bx^6(t))^2}{((1+Bx^6(t))^2 + Cx^6(t))(1+Bx^6(t))^2 + Dx^6(t)} - b_1x(t) \quad (2)$$

(2) тенглама нозизиқли оддий дифференциал тенглама ҳисобланади. Уни ечимларини ҳисобий таҳлил қилиш учун ишлаб чиқилган дастурий восита экран кўринишини келтирамыз.



а



б

3-расм. (2) тенглама ечимлари; а-стационар ҳолат, б-тривиал аттрактор

Олиб борилган ҳисобий тажриба натижалари шуни кўрсатадики, кечикиш инобатга олинмаган (2) тенглама ечимлари бошланғич қийматларга боғлиқ ҳолда фақат стационар (3.а-расм) ва тривиал аттрактор (3.б-расм), яъни ечимларнинг 0 га интилиши режимларини ифодалайди. Бу ҳолатда юқорида келтириб ўтилган даврий ва нотартиб тебранма режимлар, “қора ўрама” эффектлари келиб чиқмайди.

Маълумки, тирик тизимларда туғилиш, ўсиш, маълум функционал вазифаларни бажариш ва қариш ҳамда ўз фаолиятини тугатиш каби хусусиятлар мавжуд. Ҳар бир мавжуд биологик объект фаолиятига тегишли математик модел, албатта унинг норма ёки аномал фаолиятидан ташқари, табиий ёки фаолият дисфункцияси оқибатида ўлиш ҳолатини ҳам ифодалай

олиши керак. Шундай экан, хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, юрак регуляторикаси модел тенгламаларини тузишда юрак бўлимларида кўзғалишни тарқалишида кечикиш вақтларини инобатга олиш объектни тўлиқроқ ва ҳаётий реалроқ ифодалашга имкон беради. Бундай ёндашув кечикувчи аргументга эга бўлган функционал-дифференциал тенгламалардан фойдаланишга олиб келади.

Адабиётлар

1. Hidirova M.B., Yusupova Z.D. Mathematical model of the regulatory mechanisms of human cardiovascular system. *Teoretical & Applied Science*, Vol 10(42), 2016, pp 4-8.

2. Hidirova M.B., Yusupova Z.Dj. Mathematical Model of the Regulatory Mechanisms of Heart for Quantitative Analyzing of Big Data *The 4th international conference on big data applications and services (BIGDAS2017)*, Tashkent, 2017, pp. 257-263.

3. Hidirova M.B., Yusupova Z.Dj. Mathematical model of the regulatory mechanisms of human cardiovascular system. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 2016, №10(42), pp. 4-8.

ИНФОРМАЦИОННЫЙ АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ГИДРАВЛИЧЕСКОГО РАСЧЕТА ГАЗОПРОВОДОВ СРЕДНЕГО И НИЗКОГО ДАВЛЕНИЯ

Ш. Т. Ходжаев

Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми

В статье поставлена и решается задача информационного анализа и оценки гидравлического расчета газопроводов среднего и низкого давления. Это позволяет специалистам принимать решения по части регулирования процессов потокораспределения целевого продукта.

При проектировании трубопроводов для транспорта газа выбор размеров труб осуществляется на основании их гидравлического расчёта, имеющего целью определить внутренний диаметр труб для пропуска необходимого количества газа при допустимых для конкретных условий потерях давления или, наоборот, потери давления при транспорте необходимого количества газа по трубам заданного диаметра.

Сопротивления движению газа в трубопроводах слагаются из линейных сопротивлений трения и местных сопротивлений. Сопротивления трения имеют место на всей протяжённости трубопроводов. Местные сопротивления создаются только в пунктах изменения скоростей и направления движения газа.

В настоящее время гидравлический расчёт газопроводов осуществляют по формулам из СП 42-101-2003 «Общие положения по проектированию и строительству газораспределительных систем из металлических и полиэтиленовых труб» [1-4], в котором учтены как режим движения газа, так и коэффициенты гидравлического сопротивления газопроводов.

Гидравлические расчеты газопроводов. Расчетные внутренние диаметры газопроводов определяются исходя из условия обеспечения бесперебойного газоснабжения всех потребителей в часы максимального потребления газа.

Расчетные потери давления в газопроводах высокого давления принимаются в пределах категории давления.

Падение давления в местных сопротивлениях (колена, тройники, запорная арматура и др.) допускается учитывать путем увеличения фактической длины газопровода на 5...10 %.

Падение давления на участке газовой сети среднего давления можно определять по формуле [1,2]

$$P_H^2 - P_K^2 = \frac{P_0}{81\pi^2} \lambda \frac{Q_0^2}{d^5} \rho_0 l = 1,2687 \cdot 10^{-4} \lambda \frac{Q_0^2}{d^5} \rho_0 l, \quad (1)$$

где P_K — абсолютное давление в конце газопровода, МПа;

λ — коэффициент гидравлического сопротивления;

l — расчетная длина газопровода постоянного диаметра, м;

d — внутренний диаметр газопровода, см;

Q_0 — расход газа, м³/ч, при нормальных условиях.

Следовательно, избыточное давление в конце газопровода среднего давления можно определять по формуле

$$P_K = \sqrt{P_H^2 - \frac{P_0}{81\pi^2} \lambda \frac{Q_0^2}{d^5} \rho_0 l} - P_0 = \sqrt{P_H^2 - 1,2687 \cdot 10^{-4} \lambda \frac{Q_0^2}{d^5} \rho_0 l} - P_0. \quad (2)$$

Падение давления на участке газовой сети низкого давления можно определять по формуле

$$P_H - P_K = \frac{10^6}{162\pi^2} \lambda \frac{Q_0^2}{d^5} \rho_0 l = 626,1 \cdot \lambda \frac{Q_0^2}{d^5} \rho_0 l,$$

где P_H — давление в начале газопровода, Па;

P_K — давление в конце газопровода, Па.

Таким образом, избыточное давление в конце газопровода низкого давления можно определять по формуле

$$P_K = P_H - \frac{10^6}{162\pi^2} \lambda \frac{Q_0^2}{d^5} \rho_0 l = P_H - 626,1 \cdot \lambda \frac{Q_0^2}{d^5} \rho_0 l, \quad (3)$$

Усредненное давление газа (абсолютное) с сети рассчитывается по формуле

$$P_m = \frac{2}{3} \left(P_H + \frac{P_K^2}{P_H + P_K} \right) \quad (4)$$

Коэффициент гидравлического трения λ определяется в зависимости от режима движения газа по газопроводу, характеризуемого числом Рейнольдса, определяемого по формуле [2]

$$Re = \frac{Q_0}{9\pi d v} = 0,0354 \frac{Q_0}{d v}, \quad (5)$$

и гидравлической гладкости внутренней стенки газопровода, определяемой по условию

$$Re \cdot \frac{n}{d} < 23, \quad (6)$$

где n — эквивалентная абсолютная шероховатость внутренней поверхности стенки трубы, принимаемая равной для новых стальных труб — 0,01 см, для бывших в эксплуатации стальных — 0,1 см, для полиэтиленовых независимо от времени эксплуатации — 0,0007 см.

В зависимости от значения Re коэффициент гидравлического сопротивления λ определяется:

- для ламинарного режима движения газа $Re \leq 2000$ по формуле

$$\lambda = \frac{64}{Re}; \quad (7)$$

- для критического режима движения газа $Re = 2000-4000$ по формуле

$$\lambda = 0,0025 Re^{0,333};$$

- при $Re > 4000$ — в зависимости от выполнения условия (5);

- для гидравлически гладкой стенки (неравенство (5) справедливо):

- при $4000 < Re < 100\,000$ по формуле

$$\lambda = \frac{0,3164}{Re^{0,25}}; \quad (8)$$

- при $Re > 100\,000$ по формуле

$$\lambda = \frac{1}{(1,821 \lg Re - 1,64)^2}; \quad (9)$$

- для шероховатых стенок (неравенство (5) несправедливо) при $Re > 4000$ по формуле [3,4]

$$\lambda = 0,11 \left(\frac{n}{d} + \frac{68}{Re} \right)^{0,25}. \quad (10)$$

Литература

1. Ионин А.А. Газоснабжение. – М.: Стройиздат, 1989 – 439 с.
2. Шур И.А. Газорегуляторные пункты и установки. – Л.: Недра, 1985. – 288 с.
3. Баясанов Д.Б. Системы газоснабжения. – М.: Стройиздат, 2007. 404 с.
4. Ходжаев Т.Т., Каримов Ф.Р. Математические модели функционирования систем управления (добыча и транспорт газа). - Самарканд., “Зарафшон”, 1993, 93 с.

ЕР РЕЛЬЕФИНИ ҲИСОБГА ОЛГАН ҲОЛДА АТМОСФЕРАГА ЗАРАРЛИ МОДДАЛАРНИНГ ТАРҚАЛИШИ ЖАРАЁНИНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ

Д. К. Шарипов

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялар университети ҳузуридаги ахборот-коммуникация технологиялари илмий-инновацион маркази

Атмосфера экологияси атроф муҳитнинг энг муҳим кўрсаткичларидан бири бўлгани боис турли хил вақт ва чегаралар учун атмосферанинг ер усти қобиғида зарарли моддалар концентрацияси прогнозини амалга ошириш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Бунда метеорологик шароитлар сутка мобайнида ўзгариши ва ушбу жойнинг рельефига боғлиқ бўлишини инобатга олиш лозим бўлади.

Математик моделлаштиришнинг батафсил методология ишлаб чиқилган бўлиб, унинг туб муаммолари ўрганилган ва океан ҳамда атмосфера циркуляциясини тадқиқ этишга ўзига хос конструктив ёндошувлар, шунингдек об-ҳаво, иқлим назарияси ва атроф-муҳит муҳофазаси муаммоларининг математик моделлари ёрдамида ҳал этиш таклифлари келтириб ўтилган [1,2,3].

Атмосферага зарарли моддаларнинг тарқалиши ва диффузияси жараёнини моделлаштиришни зарарли моддаларнинг атмосферага ер усти орографиясини ҳисобга олган ҳолда тарқалиши ва диффузиясининг икки ўлчовли тенгламасини

$$\frac{\partial \varphi}{\partial t} + u \frac{\partial \varphi H}{\partial x} + (w - w_g) \frac{\partial \varphi H}{\partial z} + \sigma \varphi H = \mu \frac{\partial^2 \varphi H}{\partial x^2} + \frac{\partial}{\partial z} \left(\lambda H \frac{\partial \varphi}{\partial z} \right) + \delta_{i,k} f, \quad (1)$$

қуйидаги бошланғич ва чегаравий шартлари билан кўриб чиқамиз [4].

$$\varphi(x, y, z, t) \Big|_{t=0} = \varphi_0(x, y, z), \quad (2)$$

$$\alpha_1 (\varphi - \varphi_{ok}) \Big|_{x=0} + \beta_1 \frac{\partial \varphi}{\partial x} \Big|_{x=0} = 0, \quad (3)$$

$$\alpha_2 (\varphi - \varphi_{ok}) \Big|_{x=L_1} + \beta_2 \frac{\partial \varphi}{\partial x} \Big|_{x=L_1} = 0, \quad (4)$$

$$\lambda \frac{\partial \varphi}{\partial z} - H \beta \varphi = -H f_0 \text{ агар } z = 0, \quad (5)$$

Axborot-tarbiyaviy faoliyat. Ta'lim muammosini globalizasiyalashtirish – seminarlar o'tkazishdan tortib terrorizm va diniy ekstremizm mohiyatini ochib berishgacha – elektron tarmoqlar axborot-tarbiyaviy imkoniyatlarini ahamiyatini oshiradi. Yangi axborot texnologiyalari fan va ta'limni to'plangan bilimlarni yetkazish, ularni to'ldirish va qayta baholash kabi yanada yaqin va samarali kanallari bilan bog'lashga imkon beradi. Bugungi kunda fan – bu ta'lim tizimini rivojlantirish asosiy, ustun turuvchi vositasidir. Bu har doim ham bo'lmagan, ilg'or axborot texnologiyasi ta'lim tizimida fanning ahamiyatini o'zgartirdi. Jamiyat faqat fanning o'zi rivojlanishi bilan emas, balki ta'lim va o'qitish tizimi bilan ham bog'liq yangi ilmiy tuzilishni yaratadi. Ta'limning kelajagi. Hozirgi kunda Internetda taxminan

2,5 mlrd noyob barcha foydalanadigan veb-sahifalar mavjud bo'lib har kuni ular qatoriga yana 7,3 mln yangilari qo'shilmogda.

Bugungi kunda Internetga simsiz ulanishni ta'minlovchi, shu jumladan, mobil telefonlar soni Internetga ulanadigan shaxsiy kompyuterlar sonidan ortib ketdi. Hozirgi kunda elektron savdo jahondagi hajmi 233 mlrd. dollarni tashkil etadi. foydalanuvchilar soni ko'payib borishi bilan axborot texnologiyalari faqat inson tasavvuri imkoniyatlari bilangina chegaralanadi. Barkamol, har tomoonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash muammosi ta'lim tizimidan yosh avloddan faqat milliy madaniyat yutuqlarini emas, balki umuminsoniy dunyo madaniyati yutuqlarini ham egallab olishga intilishni shakllantirishni talab etadi. Barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasi milliy mustaqillikning ustuvor g'oyalaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim sifatini, ma'naviy-g'oyaviy tarbiyasi darajasini oshirish vazifasi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish so'zsiz yangi axborot texnologiyalariga asoslanishi zarur. Ta'lim tizimini rag'batlantirmay turib, fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi. Ta'lim tizimi yopiq nuqtai nazarlar, qarashlar statik tizimi emas, bir uzluksiz jarayondan iborat bo'lishi kerak. Mustaqil Respublikamizning rivojlanishini kafolatlash uchun ta'lim tizimi dinamik, mukammal bo'lishi kerak.

Gumanitar ta'lim tizimi – bu shaxsiy fikrlashini qayta anglab yetish, yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish, doimiy fikr almashish doimiy jarayonidir. Hozirgi paytda kompyuter tarmoqlari davrida yangi texnologiyalarni yaratish va tarqatish xususiyatlari o'zgarmogda hamda bu quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'lmoqda: birinchidan, yuksak raqobatchilik hukm surishi bilan ajralib turadigan zamonaviy global bozorda ko'nikmalar har qachongidan ham katta ahamiyatga ega. Texnologiyalarni uzatish va tarqatish juda murakkab jarayon. Ikkinchidan, texnologiyalar qimmatliligini tan olinishini aks ettiruvchi yangi global normalarni ishlab chiqish ham katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki O'zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalari kuchayib bormogda. Texnika texnologiya va iqtisodiyot qachonki kuchaysa va o'z o'zidan rivojlansa shunda davlat va xalq boy bo'ladi.

Adabiyotlar

1. I. A. Karimov. Xalq so'zi gazetasi.2015 yil 22 - avgust. №122 (2022) 4B.
2. 2017 – 2021 – yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi. Toshkent – 2018. 34B
3. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent -2012 16B.

AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING BUGUNGI KUNDAGI RIVOJLANISHI

S. K. Kurbanov, N. E. Davronov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti


Bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib ketmoqda. Ma'lumki, har qanday binoni qurishdan avval uning poydevori qo'yiladi. Poydevor qanchalik mustahkam va puxta bo'lsa – uning ustiga qurilajak uy ham xuddi ana shu poydevor kabi pishiq va baquvvat bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning jadallik bilan rivojlanish sabablarini ham uning poydevoriga nazar solishdan boshlagan ma'qul. Sababi, uning poydevoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi PF-3080-sonli «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida» Farmoni bilan asos solingan. Ana shu Farmondan so'ng AKT ning poydevori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi bilan yanada mustahkamlandi.


O'zbekiston Respublikasida bevosita AKT bilan bog'liq bir qancha Qonunlar ishlab chiqilyapti hozirga qadar. Ular jumlasiga: «Axborotlashtirish to'g'risida», «Elektron raqamli imzo to'g'risida», «Elektron hujjat almashuvi to'g'risida» hamda «Elektron tijorat to'g'risida»gi qonunlarni misol tarzida keltirish mumkin. Ushbu Qonunlarning ijrosini ta'minlash uchun kerakli qonunosti hujjatlar (Vazirlar Mahkamasi qarorlari, idoraviy normativ hujjatlar, standartlar va h.k.) ishlab chiqilgan.

Bugungi kundalik hayotimizni internet tarmog'i-yu, uyali aloqa xizmatiz tasavvur etib bo'lmaydi. Sababi, bir ibora tobora o'z tasdig'ini topmoqda: Kim axborotga egalik qilsa – butun dunyodan xabardor bo'ladi! Shunday axborot tarmoqlaridan biri shubhasiz bu internetdir. Bunda internetning ishlash tezligi hamda internetning narxi ham katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda bu borada poydevor qo'yilgan kundan boshlab ahvol qanday? Bu savolga quyidagi jadvallardan javob olishimiz mumkin.

Xalqaro axborot tarmoqlaridan umumiy foydalanish tezligi Internetga ulanish xizmatini ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar soni quyidagicha:



1-rasm. axborot tarmoqlaridan umumiy foydalanish
Internetdan foydalanishning narxi



2-rasm. Internetdan foydalanishning narxi

Internet tarmog‘idan foydalanuvchilarga e‘tibor qaratsak. Bu yerda yana o‘sha poydevor qo‘yilgan 2002 yildan boshlaganimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘sha yili o‘rgimchak to‘ri deb atalmish xalqaro axborot tizimi – internetdan foydalanuvchilar soni 137 ming nafarni tashkil etib, bir yildan keyin ularning soni ikki baravarga o‘sganda ko‘pgina xorijlik mutaxassislar: «O‘zbekistonda AKT nafaqat tez, balki shiddat bilan taraqqiy etmoqda, bu ketishda 2010 yilga kelib internetdan foydalanuvchilar soni 2 mln. nafar foydalanuvchilarga yaqinlashadi», – deya ta’kidlashgandi. Bundan tashqari hozirgi kunga kelib internetdan foydalanuvchilar soni 25 mln dan ortiq desak adashmagan bo‘lamiz. Buni qarangki, mutaxassislar haq bo‘lib chiqishdi, O‘zbekistonda AKT nafaqat tez, balki shiddat bilan taraqqiy etdi, ammo xorijlik mutaxassislar foydalanuvchilar soniga kelishganda yanglishganliklari ma’lum bo‘ldi. Sababi, 2010 yilga emas, balki 2008 yilga kelib internetdan foydalanuvchilar soni 2 mln nafardan ortib ketdi. Internet tarmog‘idan foydalanuvchilar sonining yilma-yil o‘sib borish dinamikasi aks ettirilgan quyidagi jadvaldan ham ko‘rinib turibdi:



3-rasm. Foydalanuvchilar soni yillar negizida

Hozir ko‘chaga chiqib atrofni kuzatsak ko‘pchilik yo‘lovchilarning qo‘lida uyali aloqa telefonidan foydalanayotganining guvohi bo‘lamiz. Ha, mobil aloqa telefonidan foydalanish oddiy bir holga aylanib qoldi. Tan olish kerak, mobil aloqa poydevor qo‘yilgan 2002 yilga solishtirib qaraydigan bo‘lsak anchagina qimmat bo‘lganligini ko‘rsak bo‘ladi. Faqatgina o‘sha yuqorida ko‘p bor tilga olgan “Poydevor yili”dan so‘ng davlatimiz rahbarining ushbu sohaga bo‘lgan bevosita e‘tibori sababli, uyali aloqa bozori shiddat bilan taraqqiy etdi, ushbu tarmoqqa xorij sarmoyasini jalb etish orqali esa uyali aloqa operatorlari o‘rtasida ham raqobat kuchaydi. Ushbu holat esa bevosita va bilvosita mobil aloqadan foydalanuvchilarga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Agarda 2002 yilda ularning soni bor-yo‘g‘i 128 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa 2008 yilning aprel oyi oxirlariga kelib esa mobil aloqadan foydalanuvchilar soni 8 mln. nafarga yaqinlashib qoldi va bugungi kunga kelib bu qiymat 2 yoki 3 barobarga ortganiga guvoh bo‘lamiz. Bunday taraqqiy etib ketayotgan zaminda axborot kommunikatsiya texnologiyalar jadal rivojlanishi global rivojlanish deb aytadigan bo‘lsak hech qachon adashmagan bo‘lamiz. Davlatimiz mustaqil bo‘lgandan so‘ng bunday yutuqlarga erishishimmi o‘zi bir baxt deb bilishimiz kerak. Axborot texnologiyalar asrida texnikalarimiz sonini oshirishimiz sifatlariga almashtirishimiz va internetimiz tezligini oshirishimiz shart va lozim deb o‘ylayman. Bundan biz unumli foydalangan holda kattadan katta loyiha proyektlar yaratishimiz bu xalqimiz uchun foydali. So‘zim oxirida shuni aytmochimanki texnika texnologiya va iqtisodiyotimiz qanchalik kuchli bo‘lsa davlatimiz ham shunchalik kuchli bo‘ladi deganidir.

Adabiyotlar

1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining bugungi kundagi hayoti. Toshkent B-107
2. <http://uz.infocom.uz/more>
3. ziyonet.uz

IMPORTANCE OF ICT IN UZBEKISTAN

*O. M. Narzullayev, U. O. Abilov, B.A. Karimov
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi,*

Thus, the Law of the Republic of Uzbekistan “On e-government”, adopted on December 9, 2015, number ZRU-395, defines the main tasks facing the state in matters of interaction with business and society. In fact, the law provides mechanisms for the introduction of innovative technologies through:

- ensuring the development, implementation and integration of information systems, resources and software products in the "Electronic Government" system and information technologies in sectors of the economy;
- implementation of comprehensive measures to improve the quality of e-government services to the population and business entities;
- promoting the development of the domestic market of information and communication technologies and software products;
- introduction of information systems and networks of inter-agency electronic interaction and information exchange between government agencies and other organizations [1].

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. The country conducts consistent work on the development of modern information technologies and communications, creating an integrated system for the provision of electronic public services, and introducing new mechanisms for dialogue between government agencies and the public.

At the same time, a number of systemic problems and shortcomings in the management and implementation of information technologies and communications impede the accelerated development of this sphere, the provision of high-quality information services, in particular:

first the telecommunications infrastructure is underdeveloped, remote settlements of the country remain unsecured by telecommunications networks, the quality of mobile communications and the Internet does not meet the needs of the population;

second due to the ineffective implementation of a single technological approach in the implementation of information technologies and communications in the public administration system, departmental information systems and resources are introduced fragmentarily, which complicates the process of their integration into a single information space;

third due attention is not paid to the introduction of integrated trading and marketing platforms, online stores, payment systems, and logistics systems in e-commerce, which is becoming one of the reasons for restraining the development of the economy and entrepreneurship, attracting foreign investment [2];

The interaction of business and the public with the authorities. One of the breakthrough steps in the development of the dialogue between the state and the population was the launch of the well-known virtual reception room of the President of the Republic of Uzbekistan. Today it does not make sense to describe the

effectiveness, quality of work and the benefits that this project brought to the integration of high technologies in the sphere of social communications. Here the other thing is more important - the functionality of the created system - the reception, accumulation, classification and systematization of incoming calls, as well as monitoring and control over their full, timely and high-quality consideration. In the case of a virtual reception room, the Unified Call Processing Center also operates, which receives oral requests around the clock.

Thus, a two-channel platform for receiving and processing requests was created, through which over 1.2 million calls have passed, of which 557 thousand were received through the Unified Call Center.

Another direction in the development of such communications was the introduction of so-called “proactive” services and services informing citizens about the possible services they need based on information from databases and information systems (for example, the need to replace a passport for age, payment of taxes and other fees and services). etc.)

Continuing the theme of the development of services, it is important to note the new version of the Unified portal of interactive government services launched in May 2017, which offers 20 types of services for the public and business entities. In particular, due to the optimization of business registration services, as well as taking into account the launch of the State Registration System for Business Entities (www.birdarcha.uz), the business registration procedure was reduced from 8 to 2 stages, while the duration of this process reached 30 minutes. As a result, today 4,297 individual entrepreneurs and 2,623 legal entities are electronically registered.

A separate feature of the creation of such communication services is minimization of the risks of the negative impact of the human factor on the speed of making, processing and analyzing requests and, importantly, the adequacy and correctness of the decision taken on handling. The presence of an element of control over the quality execution of the decision motivates the responsible person to self-discipline and professionalism. Another important aspect is the “accessibility” of representatives of the authorities, on whose orders the fate of a particular issue depends. Thus, it was not only the technical side of the issue that was implemented - the acceleration and optimization of the communication process, the relationship between the citizen and the state itself reached a new level [3, 328p.].

The educational aspect is the training of specialists. It is obvious that the question of the availability and quality of personnel working in the ICT field is the most important. Moreover, this is not so much about the operation of any equipment or the use of any technologies, but about the quality of the country's scientific and educational potential. Of course, it is good to introduce and use information and communication technologies, but who will create these technologies?

Thus, in order to further develop domestic software products in the country that meet international standards, on the basis of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to fundamentally improve the conditions for the development of the information technology industry in the Republic of Uzbekistan” No. UP-5099 of June 30, 2017, Innovation Center for the support of the development and implementation of information technologies named after Mirzo

Ulugbek ICT companies can become members of the center, regardless of their territorial location, which is supposed to give an additional impetus to the development of ICT in the regions. These enterprises have been granted a number of benefits and preferences for exemption from the payment of all types of taxes and mandatory deductions.

As part of the development of the Innovation Center, it is planned to take measures to increase the volume of software exports in the next 5 years 10 times, as well as to bring the share of the information technology sector to the country's GDP to 4%.

In addition, it is planned to organize the activities of a specialized school for the in-depth study of the optional information and communication technologies named after Muhammad al-Khorezmi. This school will be the first step in the process of receiving continuing education - from the “school bench” to training in specialized universities [4, 768p.].

ICT market. Taking into account the global trends of the “digital economy”, we still have to master and develop a whole range of such new high-tech areas as BigData, cloud computing, robotics and artificial intelligence. According to the International Research and Consulting Company International Data Corporation (IDC), subject to full liberalization of foreign trade and foreign exchange regulation in Uzbekistan in 2017-2018 in 2017, the ICT market of Uzbekistan will grow by 6.9% against a growth of 4.8% in 2016 year At the same time, the largest increase is expected in the service segment - 17.6%. The hardware and software segments will grow by 6.1 and 13.6%, respectively.

According to IDC estimates, subject to the implementation of all government plans to liberalize foreign trade operations, foreign exchange regime and business conditions, the growth rate of the ICT market will be on average 30 percent higher than the previous forecast, which did not take into account these measures. IDC predicts that in five years the ICT market of Uzbekistan will grow by 83.5% compared to 2016, including the equipment segment - by 76.9%, software - by 145.2%, services - by 171.5%.

Reference

1. https://ictnews.uz/25/12/2017/ict_uz/#
2. <http://mitc.uz/ru/news/518>
3. Baronov V.V. Information technology and enterprise management. - M: IT Co., 2006. - 328 p.
4. Blagoveshchenskaya M.M., Zlobin L.A. Information technology process control systems: A textbook for high schools. - M.: Higher School, 2005. - 768 p

MAPS ARE MADE BY USING THE THEORY GRAPHS

*O. M. Narzullayev, I. Z. Zikrillayev, O. A. Usanov
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi*

Information visualization is important in making sense out of large data sets. Often, high-dimensional data are visualized with mathematical graphs as a collection of points in two dimensional spaces through dimensionality reduction techniques. However, these traditional methods often do not capture well the underlying structural information, clustering, and neighborhoods. A practical tool for visualizing relational data with geographic-like maps. We can illustrate the effectiveness of this approach with examples from several domains.

Statistical maps are a way to display the geographic distribution of data. For example, let's say we are studying the geographic distribution of the elderly persons in the United States. A statistical map would be a great way to visually display our data. On our map, each category is represented by a different color or shade and the states are then shaded depending on their classification into the different categories.

In the United States, let's say we had 4 categories, each with it's own color: Less than 10% (red), 10 to 11.9% (yellow), 12 to 13.9% (blue), and 14% or more (green). If 12.2% of Arizona's population is over 65 years old, Arizona would be shaded blue on our map. Likewise, if Florida's has 15% of its population aged 65 and older, it would be shaded green on the map. Maps can display geographical data on the level of cities, counties, city blocks, census tracts, countries, states, or other units. This choice depends on the researcher's topic and the questions they are exploring [4, p. 25].

Probably the most common way that graphs get distorted is when the distance along the vertical or horizontal axis is altered in relation to the other axis. Axes can be stretched or shrunk to create any desired result. For example, if you were to shrink the horizontal axis (X axis), it could make the slope of your line graph appear steeper than it actually is, giving the impression that the results are more dramatic than they are. Likewise, if you expanded the horizontal axis while keeping the vertical axis (Y axis) the same, the slope of the line graph would be more gradual, making the results appear less significant than they really are [2, p. 13].

When creating and editing graphs, it is important to make sure the graphs do not get distorted. Oftentimes it can happen by accident when editing the range of numbers in an axis, for example. Therefore, it is important to pay attention to how the data comes across in the graphs and make sure the results are being presented accurately and appropriately so as to not deceive the readers [1, p. 240].

Also, maps are made with using the graphical ideas which are converted in programming languages. As such in C++ programming language.

Example:

```
#include<iostream>
#include<queue>
using namespace std;
int a[6][6]={0,0,0,1,0,1,
0,0,0,0,1,0,
```

```

0,0,0,1,0,1,
1,0,1,0,0,0,
0,1,0,0,0,0,
1,0,1,0,0,0 };
bool traversed[]={ false,false,false,false,false,false };
int dfs(int k){ cout<<k+1<<" "; traversed[k]=true;
for(int i=0;i<6;i++){ if(traversed[i]==false&&a[k][i]!=0) dfs(i); }}
int main(){sssssss
dfs(0);
for(int i=0;i<6;i++)
if(traversed[i]==false) dfs(i);
cout<<endl;}

```

```

1 4 3 6 2 5
Process returned 0 (0x0) execution time : 0.047 s
Press any key to continue.

```

Figure. 1. Result of program.

In this program and his result give to us how the relation between points and it show that every point connects to other points. It can illustrate in this:

```

0,0,0,1,0,1,
0,0,0,0,1,0,
0,0,0,1,0,1,
1,0,1,0,0,0,
0,1,0,0,0,0,
1,0,1,0,0,0.

```




Figure. 2.

The matrix gives information which point connected to others. As such if matrix column element equal to 1, then this row index connected to in this column index. For example first connect to fourth and sixth and second to fifth etc.

The maps structures made in this graphical theory. Many development countries in the world used the theory graphs.

References

1. Ф. А. Новиков, Дискретная математика для программистов, 2009. Р. 240.
2. Ann Raimes. Techniques in teaching writing. Oxford, 1983. Р. 13.
3. Mass.: Newbury House, 1979. Р. 25.

TIBBIYOT AXBOROT TIZIMLARIDA HUJJAT ALMASHISH JARAYONINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI TAHLILI

F. A. Raxmatov, N. Y. Nursaidov, S. N. Azimqulov


Tibbiyot axborot tizimlarini rivojlantirish, yaratilayotgan tibbiy dasturiy ta'minot yordamida elektron tibbiy ma'lumotlar bilan ishlashning avtomatlashtirishning innovatsion usullari ko'rib chiqilgan.

Zamonaviy tibbiyot muassasalari, diagnostika markazlari, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va boshqarish hozirgi kunda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Tibbiy yordamning sifati bu axborotning qanchalik samarali qo'llanilishiga bog'liq. Bugungi kunda tibbiyotda axborot texnologiyalari sog'liqni saqlash tizimining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Qog'oz tashuvchilari davri va ma'lumotlarning axborot aylanmasi maxsus axborot bazalari va axborot tizimlari bilan almashtirilmoqda.

Har qanday axborot tizimlari ba'zi vazifalarga qarab turlarga bo'linishi mumkin hamda tibbiy axborot tizimlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- bemorlar bilan ishlash tizimi;
- tezkor ma'lumotni va bemor bilan sifatli ishni ta'minlaydi;
- resurslar bilan ishlaydigan tizimlar;
- tibbiy muassasa resurslarini, xususan, xodimlar va uskunalar resurslarini rejalashtirishda foydalaniladi;
- ma'lumotlarni tahlil qilish tizimi;

Ma'lumotlar ba'zasidan kasallik natijalari yoki kasalliklarni topishingiz, bemorning sog'lig'ining umumiy holatini ko'rsatishingiz mumkin. Ushbu tizimlar tibbiy muassasalarning barcha faoliyatini qamrab oladi. Tibbiy axborot tizimlarining asosiy darajasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Tibbiy axborot tizimining darajalari

Hozirgi kunda sog'liqni saqlash muassasalarida qo'llanadigan dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda tibbiy ma'lumotlarning yagona tuzilishini yaratish, tibbiy ma'lumotlarni muntazam yangilash, shuningdek, kelgusida prognoz qilish uchun asosiy ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatini taqdim etish kabi muammolar mavjud. Bu ko'p qirrali tibbiyot muassasalarining tuzilmasi va faoliyatini tashkil

etishning murakkabligi bilan bog'liq. Ushbu muammolarni hal etish uchun kompyuter tizimlari asosida ixtisoslashtirilgan elektron hujjatni ishlab chiqish zarur.

Elektron tibbiy hujjat sog'liqni saqlash muassasalari bo'linmalari o'rtasida ichki va tashqi almashinuvni amalga oshirish uchun ma'lumotlarning elektron bazasi bo'lib, bemor ma'lumoti bilan ishlashga imkon beradi.

Elektron tibbiy kartaning ishlash prinsipi - bemorlarning shaxsiy ma'lumotlari bo'yicha faoliyat yuritish imkonini beradigan yagona ma'lumot bazasi bo'lib, tibbiy axborotni to'plash, saqlash va tahlil qilish uchun boshqa tibbiy muassasalar bilan ma'lumotlarni almashish kabi vazifalarni bajaradi.

Rivojlanish usullari va vositalari. Dasturiy mahsulot Visual Studio dasturlash muhitida .NET Framework 4.5 ichiga o'rnatilgan C# dasturiy tili va kutubxonalaridan foydalanib yaratiladi. Ma'lumotlar bazasi MySQL-serverida joylashtiriladi. Ma'lumotlar bazasi modeli MySQL Workbench ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi yordamida amalga oshiriladi. Dasturiy mahsulot axborot tizimini joriy etish uchun FTP server tarqatiladi va konfiguratsiya qilinadi, u ma'lumotlar bazasi bilan birgalikda ish olib boradi va kerakli materiallarni saqlab qoladi.

Elektron tibbiy karta. Mavjud tibbiy elektron hujjat aylanish tizimlarini tahlil qilish jarayonida dasturiy mahsulot ishlab chiqilib, uning asosiy vazifasi: tibbiy muassasalarning axborot resurslarini to'plash va namoyish qilish, tasviriy materiallarni saqlashdan iborat. Dasturiy mahsulot kompyuter tizimi uchun elektron tibbiy karta ko'rinishida saqlanadi va tibbiy muassasaning avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Elektron tibbiy karta tahlil natijalari va xususiyatlarini inobatga olgan holda, kartani dastlabki va keyingi yordam ko'rsatadigan tibbiy muassasalarda qo'llash imkonini beradi.

Tibbiy elektron karta quyidagilardan tashkil topadi:

- bemor haqida umumiy ma'lumot;
- kasallik tarixi va tahlillar;
- protseduralar;
- kasalliklar surati;
- tibbiy ko'rik haqida ma'lumot;
- shifokor xulosasini ro'yhatga olish.


Dasturiy mahsulot o'zining GUI interfeysiga ega va quyidagi vazifalarni amalga oshirish uchun sog'liqni saqlash muassasalarida foydalanish mumkin:

1. Shifokor ishini osonlashtirish;
2. Muayyan hududiy tibbiyot muassasalaridagi bemorlarda muammolar mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash;
3. Har qanday kasalxona muassasasidan bemorning kartasiga kirishni ta'minlash;
4. Bemor haqida olingan tasviriy materialni qayta ishlash.

Ushbu tizim tibbiyot muassasalari uchun dasturiy ta'minot hisoblanadi va bemorlar bilan o'zaro munosabatlar strategiyalarini avtomatlashtirishga, xususan marketingni optimallashtirish va ular bilan munosabatlarni tarixini saqlab qolish, bemorlarni qo'llab-quvvatlashni yaxshilash, biznesni tashkil etish va takomillashtirish uchun mo'ljallangan.

Bundan tashqari, FTP server bilan yanada samarali ishlash uchun tasvirni keshlash ishlatiladi. Ushbu texnologiya ma'lumotlar bazasida foydalanuvchi tasvirlarini nazorat qilish holatlarini saqlashga imkon beradigan algoritm yordamida amalga oshiriladi. Ushbu xatti-harakatlar, bemor haqida qisqacha ma'lumot olish va uni saqlash imkonini beradi.

2-rasmda tizim foydalanuvchi tasvirlarini bilan masofadan ishlashga imkon beruvchi asosiy ma'lumotlar bazasi strukturasi keltirib o'tilgan. Bunda ko'rib turganimizdek, ma'lumotlar bazasidan bemor kasallik natijalarini boshqa tarmoq ya'ni bo'limlarga uzatish, saqlash va to'liq ma'lumot olish imkoniyati yaratiladi.



2-rasm. Tibbiyot axborot tizimlarida ma'lumot almashinishini tashkil etish

Shunday qilib, ishlab chiqilishi kutilayotgan dasturiy mahsulot ma'lumotlarni kiritish, saqlash, qayta ishlash va boshqa tarmoqlarga uzatishni ta'minlaydi, shuningdek kompyuter tizimlarining asosiy qoidalariga mos keladi. Ushbu tizim ishlab chiqilib tibbiyot muassasalarida tadbiq etilsa tibbiy muassasalarning bemorlarga tezkor xizmat ko'rsatish uchun samarali va qulay yo'ldir. Dasturiy mahsulotni yaratish, tibbiy muassasalarda elektron hujjatlarni birlashtirish, bemorlarni o'z vaqtida va tezkor tashxislash, shifokorlarning malakasini oshirish, katta miqdorda saqlangan ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Гринберг, Пол. CRM со скоростью света = CRM at the speed of light. - СПб.: Символ Плюс, 2007. - 528 с.
2. Информационные технологии в медицине: регионы тестируют инновации: <http://www.cnews.ru/reviews/free/publichealth/article/region.shtml>

OPENMP VA OPENCV КОМПИЛЯТОРЛАРИ ЁРДАМИДА ИШ УНУМДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

*М. А. Умаров, Н. А. Каримов, Б. Мухаммадиев
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент
технологиялар университети Самарқанд филиали*

Мультимедиа тизимларида тасвирларни қайта ишлаганда вейлет жараёнларини тадбиғ этиш яхши натижа беради. Айниқса параллеллаштириш алгоритмларидан фойдаланиш унумдорлик даражасини оширишга ёрдам беради. Тасвирларни қайта ишлаганда биринчи усул ёрдамида амалга оширамиз. Бу усулнинг амалга ошиш алгоритми қуйидагича амалга ошади: дастурга юкланган тасвир 2^N қиймат билан амалга ошади. N нинг қиймати тасвир бўлинган матрицаси 16×16 ўлчамга эга бўлгунча амалга ошади. Бу ҳолатда мисол сифатида $N=1$ га тенг бўлганда тасвир 4 та матрицага ажралади.


Бундан кўринади алгоритм OpenMP дан фойдаланганда 2 ядроли процессорда амалга оширилганда 2 та оқимга 2 марта бўлиб берилади ва цикл 2 марта айланишга тўғри келади. Кетма кет амалга оширганда эса бу амаллар бажарилганда цикл 4 маротаба айланишга тўғри келади. Бу ҳолатни назарий жихатдан таҳлил қиладиган бўлсак, унумдорлик 2 маротаба ошади деган хулосага келишимиз мумкин. Аммо OpenMP ёрдамида оқимларга ажратганда хотира ва процессор билан оқимларни ташкиллаштирганда маълум вақт сарфланади. Чунки оқим яратилганда хотирага ҳосил бўлаётган оқим учун динамик хотира яратиш лозим ва оқим ўз жараёнини яқунлаганда динамик хотирани ўчириш керак бўлади. Кейинги жараён бу оқимларни процессорда бажарилиш учун навбатга қўйиш. [1.-78с] Бу ҳолда ҳам маълум даражада вақт сарфланади.

Натижалар. OpenMP пакетидан фойдаланган ҳолда тасвирни қайта ишлаганда 2 ядроли процессорда қайта ишлаганда қуйидаги 1–жадвалда кўрсатилган натижаларга эришилди. Жадвалнинг биринчи устунисида қайта ишланаётган тасвирнинг нечта матрицага бўлиниши ва бўлинган ҳар бир матрицанинг қандай ўлчамга эга эканлиги кўрсатилган.

1-жадвал. 2 ядроли процессорда тасвирларни қайта ишлаганда сарфланган вақт ва унумдорлик

| N x N | Оддий алгоритм ёрдамида | OpenMP ёрдамида | OpenCV ёрдамида | Унумдорлик |
|-------------|-------------------------|-----------------|-----------------|------------|
| 4 та 1024 | 5141,619 | 3862,97 | 3781,4 | 1,331 |
| 16 та 512 | 5381,641 | 4230,043 | 4123,03 | 1,279 |
| 64 та 256 | 5498,038 | 4550,084 | 4435,01 | 1,208 |
| 256 та 128 | 5657,647 | 5166,368 | 4987,1 | 1,109 |
| 1024 та 64 | 5954,337 | 5862,022 | 5621,02 | 1,016 |
| 4096 та 32 | 7029,633 | 7888,272 | 7678,2 | 0,891 |
| 16384 та 16 | 9878,041 | 13121,636 | 12234,5 | 0,753 |

Натижалардан шуни кўришимиз мумкин, бир оқимли кетма кет қайта ишлаш амалга оширганда OpenMP ва OPENCV ёрдамида амалга оширганга нисбатан кўпроқ вақт талаб қилиши мумкин.[2.-3бс]



1-расм. OpenMP ёрдамида 2 ядроли процессорда эришилган унумдорликни график кўриниши

OpenMP ёрдамида тасвирни қайта ишлаганда #pragma omp parallel директиваси процессорни максимал ҳолда оқимларга ажратишга ҳаракат қилади. Яъни 2 ядроли процессорда максимал ҳолда 2 та оқимни яратиб бериши мумкин. Аммо оқимларни максимал ҳолда белгилаб бериш билан унумдорликка эришиб бўлмайди. Чунки оқимларни ташкиллаштиришга ҳам боғлиқ ҳисобланади. Бу вазифини OpenMP компилятори ташкиллаштириб беради.[3.-5бс]


Айнан шу ҳолатни 4 ядроли процессорда амалга оширганимизда

2-жадвалдаги натижаларни кўришимиз мумкин:

Ядролар сонининг ошиши оқимлар сонини ошишига имкон беради. 4 ядроли процессорда максимал ҳолда 4 та оқим ташкиллаштиришимиз мумкин.

2-жадвал. 4 ядроли процессорда тасвирларни қайта ишлаганда сарфланган вақт ва унумдорлик

| N x N | Одатда | OpenMP | OpenCV | Унумдорлик |
|-------------|----------|----------|----------|------------|
| 4 та 1024 | 1873,058 | 679,337 | 658,211 | 2,757 |
| 16 та 512 | 1693,052 | 701,696 | 689,234 | 2,413 |
| 64 та 256 | 1581,531 | 977,97 | 954,42 | 1,617 |
| 256 та 128 | 2017,086 | 1676,533 | 1579,241 | 1,203 |
| 1024 та 64 | 1446,008 | 1776,122 | 1721,201 | 0,814 |
| 4096 та 32 | 1630,208 | 2636,226 | 2564,125 | 0,618 |
| 16384 та 16 | 2143,645 | 7029,12 | 6875,01 | 0,305 |



2-расм. OpenMP ёрдамида 4 ядроли процессорда эришилган унумдорликни график кўриниши

Юқоридаги натижалардан шуни кўришимиз мумкинки, унумдорлик натижаси n ядроли процессорларда n дан ошмаслигини кўришимиз мумкин. 2 ва 4 ядроли процессорларни унумдорлигини солиштирганимизда қуйидаги фарқни кўришимиз мумкин.[4.-34с]

Танланган мавзунинг долзарблиги ҳисоблаш техникасидан фойдаланган ҳолда жараёнларни математик моделлаштиришда, шунингдек маълумотлар базаси кўринишида берилган турли табиатли маълумотларни таҳлил қилинишида қурилган илмий ишларнинг тез ривожланишининг натижаси ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда маълумотларни қайта ишлашда кўп ядроли процессорларга мўлжалланган параллеллаштириш алгоритмларини қўллаш яхши самара берди. C++ дастурлаш тилидан фойдаланилди ва параллел алгоритмни таъминлаб OpenMP ва OpenCV компиляторлари директиваларидан фойдаланилди ва улар ёрдамида процессор унумдорлик даражаси ошди.

Иш давомида тасвирларни қайта ишлашда тасвир қийматларини байтли массивга ўзлаштириш, вейвлет-жараёнларни амалга оширганда оқимларга ажратиш усуллари ва хотирани параллел ҳолда динамик жой ажратиш каби жараёнлар бажарилди ва яхши самарадорлик кўрсатди.

Адабиётлар

1. Шпаковский Г.И. Реализация параллельных вычислений: MPI, OpenMP, кластеры, грид, многоядерные процессоры, графические процессоры, квантовые компьютеры. – Минск: Белорусский.
2. Ярославский Л.П. «Введение в цифровую обработку изображений», Москва сов.радио, 2012й. Грузман И.С. «Цифровая обработка изображений в информационных системах», Новосибирск 2012г.
3. Антонов А.С. Параллельное программирование с использованием технологии OpenMP. – М: издательство Московского Университета, 2011 г. – 77с.

DAVLAT FAOLIYATINI SAMARASINI OSHIRISH VA DAVLAT XIZMATLARI SIFATINI YAXSHILASH UCHUN AKT JORIY ETILISHI

U. A. Sultonova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Bugungi kunda Axborot texnologiyalarsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari bugungi kunda birinchi darajali yutug'imiz desak adashmagan bo'lamiz. Bugungi kunda taraqqiyotning bir qancha bosqichlari mavjud bulardan birini Elektoron Hukumat deb qabul qilishimiz mumkin.

“Elektron Hukumat”: taraqqiyotning bosqichlaridan biri. Hozirda asta-sekinlik bilan bo'lsa-da hayotimizga “Elektron hukumat” degan tushuncha kirib kelmoqda. “Elektron hukumat” o'zi nima? Xuddi kinolarda namoyish etiladigandek insoniyatni boshqaradigan superkompyutermi yoki...

Ushbu savolga mufassal javob berish uchun AKT bo'yicha izohli lug'atga murojaat qilamiz. e-Government, ya'ni “Elektron Hukumat” – bu davlat boshqaruv organlarida ichki va tashqi aloqalarning tegishli AKT bilan qo'llab-quvvatlash orqali davlat boshqaruvi samarasini va davlat xizmatlari darajasini printsiptial yangi sifatga o'tishidir.

“e-Government” ning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Hukumat muassasalarining (markaziy hokimiyat organlari, vazirlik, idora, hokimiyatlar va h.k.) o'zaro hamkorlik qilishi (hukumat hukumatga, yoki jahonda umumiy qabul qilingan qisqartma – G2G);
- Hukumat muassasalari bilan mamlakat fuqarolari o'rtasidagi o'zaro aloqa (hukumat fuqarolarga – G2C);
- Hukumat muassasalari bilan biznes sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro aloqa (hukumat biznes sub'ektlariga – G2B).

Endi ushbu yo'nalishlarga misollar keltirsak:

#G2G: turli idoralar orasidagi hujjatni rasmiylashtirish, boshqa idoradagi hujjat ijrochisini topish, statistik va tahliliy ma'lumotlarni olish, ijro intizomi va h.k.

#G2C: Pasportni rasmiylashtirish, yashash joyidan ro'yxatdan o'tkazish, uy-joy sotib olishni rasmiylashtirish, pensiya va ijtimoiy to'lovlarni olish, ishga joylashish va boshqalar;

#G2B: Kompaniyalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziyalar olish, ruxsatnomalar rasmiylashtirish, soliqlarni xisoblash, eksport-import operatsiyalarini rasmiylashtirish, statistik ma'lumot topshirish va h.k.

Ma'lumki, xususiy sektorda AKTni joriy etish katta samaralarga olib keladi: An'anaviy biznes xarajatlarini kamayadi, xizmat sifati yaxshilanadi va raqobatbardoshligi kuchayadi; Yangi onlayn biznes turlari paydo bo'ladi (onlayn savdo maydonchalari, onlayn reklama va boshqalar)

Biznesning samara oshirishdagi tajribasi va yutuqlaridan o'rganib davlat faoliyatini samarasini oshirish va davlat xizmatlari sifatini yaxshilash uchun AKT joriy etila boshlandi. Endi “Elektron hukumat” joriy etilgan xorijiy mamlakatlarning tajribalarini misol tarzida keltirib o'tsak:

Singapurda importG`eksportga litsenziya olish odatda 15-20 kunni olar va 21 ta har xil shakllarni to`ldirishni talab etar edi. TradeNet – onlayn tizimi joriy etilgandan so`ng atigi 1 ta shaklni to`ldirib, 15 soniyada litsenziya beriladigan bo`ldi.

Koreyadagi davlat xaridlarining onlayn tizimi KONEPS Koreyadagi davlat tashkilotlari uchun eng katta savdo tizimidir. Bu tizim orqali davlat ehtiyojlari uchun barcha mahsulotlarni harid qilish mumkin. Bu tizimga 36 mingta davlat tashkilotlari va 170 mingta kompaniyalar ulangan va yillik savdo hajmi 47 mlrd. AQSh dollari atrofida bo`ladi.

Ruminiyada davlat xaridlarini onlayn amalga oshirish tizimi xarajatlarni 24,5% ga kamayishiga va yiliga o`rtacha 150 mln. Evrodan ko`p mablag`larni tejalishiga olib keldi.

Irlandiyaning eCabinet tizimi Hukumat ichidagi qog`oz formasidagi rasmiy hujjat tarqatilishini kamaytirdi. Bu tizimni joriy etilishi bilan Hukumat ichidagi barcha rasmiy hujjatlarni tarqatish elektron tizim orqali amalga oshiriladigan bo`ldi (masalan, Hukumat qarorlari va bayonnomalarini vazirlik, idora va hokimiyatlarga tarqatish).

Frantsiyada 90-yillar boshlarida barcha bo`sh ish joylari hamda ish qidiruvchilar haqida axborot beradigan elektron ma`lumotlar bazasi yaratilgan. Ushbu tizimga Internet orqali hamda ish bilan ta`minlash agentliklaridagi terminallar orqali ulanish mumkin, hamda kompyuter orqali ulanishga imkoniyati yo`qlar uchun telefonda operator orqali ma`lumotni olish mumkin.

Avstraliya va Armanistonda elektron vizalar berilmoqda. Bunday viza uchun pasportni elchixonaga yuborish shart emas. Viza borligi chegaralardagi pasport nazoratida kompyuter orqali tekshiriladi. Bu esa viza olish jarayonini tezlashtiradi (masalan Avstraliyaga viza olish uchun 20 daqiqa kifoya) va turistlar hamda boshqa sayohatchilar uchun qulayliklar yaratadi. Shu bilan birgalikda elchixonaga yuboriladigan hujjatlarni yo`lda yo`qolishining oldi olinadi.

Kanadada chet elga tez-tez sayohat qiluvchilar uchun pasport nazoratida navbat kutmasdan chegarani tez va qulay o`tish imkoniyatini beruvchi CANPASS Air tizimi aeroportlarda joriy qilingan. Bu tizim yo`lovchining biometrik ma`lumotlari (ko`z qorachig`i) bo`yicha uning shaxsini aniqlaydi va chegaradan o`tishga ruxsat beradi.

Avstraliya, Avstriya, Singapur, Estoniya va boshqa bir qator davlatlarda jamoat masalalarida qaror qabul qilish uchun fuqarolarni jalb etish bo`yicha portallar bor. Bu portallar fuqarolarG`saylovchilarG`soliq to`lovchilar bilan qayta aloqani yo`lga qo`yish uchun yaxshi instrument hamdir.

Avstraliyada biznes uchun portal mavjud bo`lib u erda har qanday tadbirkor yoki biznes tashkiloti ishni yo`lga qo`yish, litsenziyalar olish, soliq to`lash kabi barcha biznes yuritishga oid ma`lumotlarni va savollariga javoblarni olishi mumkin. Bu esa tadbirkorlikni, ayniqsa kichik va xususiy biznes sub`ektlari rivoji uchun katta yordamdir.

Chexiyada 2003 yil yanvar oyidan boshlab ba`zi soliq turlari bo`yicha deklaratsiyalarni elektron ko`rinishda topshirish mumkin.

Estoniyadagi Davlat hokimiyati portali davlat xizmatlari uchun “yagona deraza” sifatida xizmat qiladi. Masalan, bu portal orqali soliq deklaratsiyalarini

ko‘rish, tuzatish va topshirishlari mumkin. Bu portaldan foydalanilayotganda xavfsizlikni ta‘minlash uchun elektron ID kartalardan foydalanish mumkin.

Ushbu misollardan ham ko‘rinib turibdiki, “Elektron hukumat” har tomonlama qulay va tejamli. Shunday ekan, uni rivojlantirish uchun bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Eng muhimi “Axborot xavfsizligi”...

AKT ning rivojlanishi natijasida “axborot xavfsizligi” degan tushunchalar ham paydo bo‘ladi, albatta. O‘zbekistondagi AKT ning bugungi holati qanday?

Ma‘lumki, hozirda barcha vazirlik, idora va hokimiyatlarning o‘z veb sahifalari mavjud;

Elektron hujjat almashuvi tizimlari turli vazirlik va idoralarda qo‘llanila boshlandi;

Davlat axborot resurslari va davlat organlarining axborot tizimlarini shakllantirish tartibi yaratildi;

Interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi yaratilib ularning reestri shakllanmoqda va bazaviy davlat interaktiv xizmatlari elektron vositalar orqali amalga oshirilmoqda;

Axborot xavfsizligini ta‘minlash borasida Kompyuter hodisalariga chora ko‘rish xizmati va uning tegishli qonuniy bazasi shakllantirildi. Elektron raqamli imzoni qo‘llash uchun ham qonuniy baza hamda tegishli infratuzilma yaratilgan;

O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi onlayn tizimi yaratilgan (www.lex.uz);

Soliq deklaratsiyalarini elektron topshirish tizimi kengayib bormoqda; Tashqi savdo operatsiyalarining yagona axborot tizimi, Integratsiyalashgan bank tizimi, Kredit ma‘lumotlarining milliy axborot tizimi kabi qator zamonaviy tizimlar ishlab chiqilgan va amalda keng qo‘llanib kelinmoqda.

Adabiyotlar

1. «Электрон хужжат алмашинуви тўғрисида» (29.04.2004й.).
2. «Электрон тўловлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни (16.12.2005 й.)
3. Аxborot kommunikatsiya texnologiyalarining bugungi kundagi hayoti. Toshkent B-220
4. “Электрон ҳукумат тўғрисида”ги Ўзбекистон

IMD¹ – INTEGRATSIYALASHGAN TIBBIY MA`LUMOTNOMA TIZIMINI JORIY ETISH LOYIHASI

I. M. Boynazarov, D. B. Xalilov

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Samarqand filiali*

Bugungi kunda insonlarning shaxsini tasdiqlovchi va u haqida to‘liq ma‘lumotlarga asoslangan identifikatsiya jarayoni keng ko‘lamda tarqalishi iqtisodiyotning ildam rivojlanishiga olib kelmoqda. Bu sohada shaxsni identifikatsiyalash, uni ma‘lumotlar bazasidan tanish uchun Simsiz Smart - kartalar

¹ IMD - Integrated Medical Data

foydalanish jarayonning mukammal yechimi bo`lmoqda. Barchamizga ma`lum tibbiyot sohasida shaxsning tibbiy holati, uning sog`ligi haqidagi kasalliklar tarixi, unga tashxis qo`yish, tez tibbiy yordam ko`rsatish va davolash uchun muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda shaxsning tibbiy varaqasi yoki tibbiy daftarchasiga quyidagi holatlarda murojat qilinadi:

- surunkali kasalliklar kuzatilganda;
- yangi davolash usullarini qo`llash talab etilganda;
- turli xil virusli (yuqumli) kasalliklar uchraganda va ularga qarshi emlashda;
- og`ir kasallik bilan shifoxonaga murojaat qilganda;
- tabiiy hodisa va talofatlar tufayli og`ir ahvolda shifoxonaga olib kelinganda va h.k.

Bu shifokorlar uchun ma`lum bir vaqt talab etadi yoki ba`zi bir holatlarda ma`lumotlarga ega bo`lish imkoni bo`lmaydi. Buning asosiy sabablari: bemorning o`z yashash hududidan tashqarida bo`lishi, boshqa joyga ko`chib o`tishi yoki tasodifiy hodisalar tufayli shifoxonaga tushib qolishi hisoblanadi. Bunday muammolarning yagona yechimi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishni yo`lga qo`yish, ya`ni fuqarolarning yagona tibbiy ma`lumotlari bazasini shakllantirish hisoblanadi. Bunda yagona tibbiy ma`lumotlar bazasidan tarmoq texnologiyalari asosida foydalanish yanada yuqori samara beradi. Masalan, sog`liqni saqlash tizimida har bir shaxs uchun shaxsni identifikatsiyalovchi SMART-kartalarni (1-rasm) amaliyotga tadbiiq etish kerak.



1-rasm. SMART-kartaning umumiy ko`rinishi (a), ishchi qismi (b).

Smart-karta va uning asosiy xususiyatlari:

- NFC texnologiyasida ishlashga mo`ljallangan **SmartCard** 13.56 MHz chastotada ishlaydi va bu xususiyati ISO 14443 standartiga mos keladi;
- NFC readerlarda joriy etiladigan SAM (Secure Access Module) texnologiyasi bilan ishlaydi va ISO 18092 standartiga javob beradi;
- Smart-kartadagi ma`lumotlarning xafvsizligini yuqori darajada ta`minlash va undagi ma`lumotlarga egalik qilish bo`yicha ISO15693 standarti javob beradi.
- Smart-Kartalarning reader orqali ma`lumot uzatish tezligi, 50 mm masofagacha 106 Kb/s va 424 Kb/s oralig`ida amalga oshiriladi.

Afzalliklarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Ochiq ma`lumotlarga asoslangan tibbiy ma`lumotlar bazasini va respublikamizda joriy etilayotgan "Elektron hukumat" tizimining ochiq ma`lumotlar

bazasini real vaqt rejimida to'ldirish, aniq statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

- Bugungi kunda tibbiyot sohasida olib borilayotga qogozbozlik holatlarni ma'lum bir darajada bartaraf etish.

- Inson hayoti uchun vaqt muhim bo'lgan favqulotda holatlarda, bemor haqida juda tez fursatda, quyidagi tibbiy ma'lumotlarni olish:

- ✓ Qon guruhi
- ✓ Tibbiyot tarixi
- ✓ Alergik reaksiyalari
- ✓ Irsiy kasalliklari
- ✓ Surunkali kasalliklari
- ✓ Qabul qilgan davolash muolajalari va dori-darmonlari
- ✓ Yaqin qarindoshlari haqidagi ma'lumotlar (manzili, telefon raqamlari va h.k.).

Smart-kartani identifikatsiya qilish, undagi ma'lumotni o'qish, ularga yangi ma'lumotlarni kiritish maxsus SmartCardReader qurilmalari (2-rasm) orqali amalga oshiriladi. **SC Reader qurilmalarining** maxsus dasturiy ta'minoti orqali kartadagi ma'lumotlar shirflanadi va axborotlar mustahkam himoyaga olinadi.



2-rasm. SMART-CARD ma'lumotlarni o'qish qurilmalari

Joriy etish yo'llari va talablari. Smart-Kartalarni joriy etish uchun dastlab bir qancha kompleks ishlar amalga oshirilishi kerak. Jumladan:

- Internet tarmog'ida ishlovchi yagona "Klient-Server" texnologiyasi asosida ishlovchi Serverni tashkil etish;

- Serverni boshqarish uchun maxsus dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazasini loyihalash;

- Yaratilgan ma'lumotlar bazasini bosqichma-bosqich shakllantirib borish;

- Tibbiyot muassasalarida lokal serverlarni joriy etish.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ma'lumotlar bazasidan ikki turdagi ma'lumotlar maydoni joy oladi: ochiq va yopiq ma'lumotlar. Ochiq turdagi ma'lumotlarga shaxs haqida umumiy ma'lumotlar, tibbiy sug'urta holati, yaqin qarindoshlari, telefon raqamlari, qon guruhi, allergik xususiyatlari kabi ma'lumotlar joy oladi. Yopiq ma'lumotlar maydonida esa, shaxsning autentifikatsiyasi bilan taqdim etiladigan ma'lumotlar: qo'yilgan tashxislar, davolanish tarixi, qo'llanilgan dori vositalari, shaxsning alohida belgilari joy oladi. Yopiq ma'lumotlar foydalanish huquqi faqat tibbiyot muassasasi maxsus vakili yoki shifokor tomonidan ma'lum bir me'yoriy-hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bugungi kunda smart-kartalardan foydalanish rivojlangan Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya kabi mamlakat fuqarolari uchun oddiy holatga aylangan. Bizning respublikamizda ham bunday

innovatsion texnologiyalardan foydalanish, tibbiyotning rivojlanishida yuqori samara beradi. Uni joriy etishni esa dastlab kichik ko'llamda amalga oshirish, xususiyy tibbiy muassasalarda sinovdan o'tkazish bilan boshlash mumkin. Shu bilan birgalikda fuqarolarning tibbiy ma'lumotlari bazasini shakllantirib borishni tug'ruqxonalaridan boshlash, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma bilan birgalikda, ularni SmartCardlar bilan ta'minlash, tibbiy sug'urtani amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Smart-kartadalardan foydalanish natijasida bir qancha muammolar bartaraf etiladi. Birinchidan, shaxs haqidagi tibbiy ma'lumotlarning yagona ma'lumotlar bazasining yaratilishi - qog'ozda yuritiladigan ishlarning kamayishi. Ikkinchidan, ortiqcha harakatlarsiz shaxsni identifikatsiyalash va uning kasallik tarixi bilan tanishish, unga tezkorlik bilan tashxis qo'yish – ortiqcha savol-javob va surushtiruvlarning oldi olinishi. Uchinchidan, asosiy holatlarda yangi laboratoriya tahlillarini o'tkazish uchun ortiqcha vaqt sarflanishining oldini olish. Shu bilan birgalikda foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarining xavfsiz saqlanishiga va ixtiyoriy tibbiy muassasada foydalanish imkoniyatiga erishiladi.

Adabiyotlar

1. Rankl, W. Smart Card Handbook, manuals, etc. / Wolfgang Rankl and Wolfgang Effing. John Wiley & Sons Ltd Germany. -3rd Edition. ISBN 0-470-85668-8. P. 1123. 2003.

ОТМДАГИ “ИЛМИЙ ВА ХАЛҚАРО АЛОҚАЛАР” БЎЛИМИ ИШЛАРИНИ АВТОМАТЛАШТИРУВЧИ АХБОРОТ ТИЗИМИНИНГ МАЪЛУМОТЛАР БАЗАСИНИ ЛОЙИХАЛАШ

К. Р. Юлдашев, А. Э. Бектурдиев

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети Нукус филиали*

Oxirgi o'n yilliklarda hisoblash texnikalari tez avj olib o'sib borayotgan jarayon hisoblanadi. Asosan xalq-xo'jaligi va barcha ilmiy o'rganish sohaslarida malumotlarga raqamli ishlov berish amaliy usullariga o'tishi katta sakrash bo'ldi. Bularni har xil hisoblash ya'ni kerakli o'rinlarda turuvchi signallarga raqamli ishlov berish (SRIB) tizimlari texnikalarida qo'llash, keyingisi malumotlarni qayta ishlash jarayonida masofadan turib zondlashda foydalanish, med - biologik tadqiqotlarda, aerokosmik va dengiz kemalari qatnovi : aloqa, radiofizika, raqamli optika va bir qator raqamli sohalari masalalarini hal qilishda ishlatiladi. Signallarga raqamli ishlov berish (SRIB) – bu hisoblash texnika (HT) larida texnik sifatida va dasturli vositalarda ko'chishlarni dinamik yozuvchisidir. Signallarga raqamli ishlov berish uchun va shu sohaga tegishli xabarlar nazariyasidan foydalanadilar. Jumladan signalni optimal qabul qilish nazariyasidan va ko'rinishini bilish nazariyalari kiradi. Bu jarayonda asosiy vazifasi birinchidan fondagi shovqinlarni va tabiatdagi turli xil tovush signallarini belgilaydi, ikkinchidan signallarni sinflanishini, tenglashtirish va avtomatik aniqlashdan iborat. Signallarga ishlov berishni tasirini quyidagi texnologiyalarida ya'ni telekommunikatsiya, raqamli TV va ovoz yozish, biometrika, mobil aloqa va videosistemalarda kuzatishimiz mumkin. Bular asosan hisoblash qurilmalarida qo'llaniladi.

Signallarga ishlov berishdan maqsad:

- signal parametrlarini o'lchash yo'li, ob'ekt haqida malumot qabul qilish – amplituda, faza, chastota, spektr;
- fondagi xalaqitlarni foydali belgilab olish;
- signallarni siqish (kompRESSIYA);
- signal formatini o'zgartirish.

Shu bilan birga, bugungi kunda rivojlanish darajasi bizning zamon talablariga javob beradigan, hamma shaharlararo va halqaro miqyosida, shuningdek, mahalliy telefon stansiyalarida raqamli texnologiyalar joriy etildi, telekommunikatsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilindi. Internetga kirish kanallari tubdan kengaytirildi.

AKTdan faol foydalanish keng tarqalgan, uskunalar va texnologiya infratuzilmasining eng yangi turlari bilan jixozlangan, yuqori kadrlar potentsiali bilan asoslangan. Bu ish insonlarning turmush darajasini sifatini yaxshilashga va ularning kundalik hayotini yaxshilash, davlat boshqaruvida eng yangi texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari sog'liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, ta'lim, davlat xizmatlari va turizm sohaslariga bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Viloyatlarda "aqli" va "xavfsiz" shaharlar yaratish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Tarmoqli axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim sohasining yangi istiqbollarni ochib berdi. Zamonoviy ta'lim usullari va axborot texnologiyalarining birlashtirilishi yangi integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalarini hususan, Internet-texnologiyalari asosida shakllantirish imkonini berdi. Masofaviy ta'lim elektron

o'quv qo'llanmalari yordamida olingan nazariyani mustahkamlash uchun qo'shimcha ma'lumotlarni deyarli har qanday joydan yuklab olish, bajarilgan vazifani uzatish, o'qituvchi bilan maslahatlashish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda tezkor rivojlanayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarini jamiyatning barcha sohalarida qo'llash ayniqsa real vaqt tizimlarida, raqamli televedeniyada, videokonferensiyalarni tashkil etishda(audio-video signallarni qayta ishlash), video ko'zatuvlarni masofaga jo'natishda paydo bo'ladigan implusli pomexlarni filtirlash juda muhim sanaladi. Masofaga uzatilayotgan barcha axborotlar signal ko'rinishda ifodalanadi.

Adabiyotlar

1. Бобрешов А.М., Кошелев А.Г. Цифровая обработка ТВ сигналов. Часть 1: Учебное пособие. - Воронеж: Изд-во ВГУ, 2004. - 36 с.

2. Гамалей В. Мой первый видеофильм от А до Я. – Спб.: Питер, 2006 -268 с.

В.А. Глушков, А.В. Смирнов. Основы телевидения. Учебное пособие / Ульяновск : УЛГТУ, 2014. – 88 с.


“TRAVEL TO SAMARKAND” ELEKTRON GID VAZIFASINI BAJARUVCHI MOBIL ILOVA

*U. L. Eshonqulov, B. R. Abdullayev, Q. Mamatqulov, F. S. Tursunov
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Samarqand filiali
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani, 55-maktab*

Bugungi kunda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha keng miqyosda chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Samarqand shahriga tashrif buyuruvchi xorijiy va mahalliy sayyohlarning qulayliklarni takomillashtirish uchun elektron gid vazifasini bajaruvchi mobil ilova ishlab chiqilgan.

Ushbu ilova asosida sayyoh Samarqand shahrida joylashgan tarixiy obidalarning manzillari, suratlari, tarixi va tanlangan obidaning tashqi va ichki obyektlari haqidagi ma'lumotlarni olishlari mumkin.

Ma'lumotlar foydalanuvchiga matnli, rasmi va ovozli shakllarda taqdim etiladi.



1-rasm. Dastur interfeysi

Dasturning afzalligi shundaki bu arzon va qulay qo'shimcha olib yuruvchi gidsiz sayohat qilish va to'liq ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatlari mavjud. Dasturning interfeysi 1-rasmda keltirilgan.

Bu yerda tepada ko'rinib turganidek til tanlash qismlari mavjud va tarixiy obidalar ketma-ketlikda turadi va istalgan obidani tanlansa uning har bir obyekti haqida ma'lumot beriladi.

Dastur android operatsion tizimilari uchun bo'ljallangan bo'lib, androidning 5.0 dan 8.1 gacha versiyalarida ishlaydi.

Bu dasturning afzalligi shundan iboratki sayohatchilarga obidalarni sayohat qilish vaqtida mustaqil ravishda tarixiy joylarni aylanishi va ular to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin..

Bu dastursiz sayyohlarga tug'diriladigan muammolar shundan iboratki Samarqandga tashrif buyurgandan so'ng gid qidirib topish va uning qimmatligi, yoki ko'pchilik bo'lib kelganda faqat gid bilan birga yurish va uning tushuntirishiga quloq solgan holda sayohat qilishga noqulaylik tug'dirishi, gidning tarixiy obidalar to'g'risida to'liq bilmasligi kabi muamolarni bartaraf qiladi.

Bu dasturdagi matnlar va ovozli ma'lumotlar to'liq, ishonchli va malakali xodimlar tomonidan yozilgan.

Adabiyotlar

1. Нотон Java. Справочное руководство. Все, что необходимо для программирования на Java / Нотон, Патрик. - М.: Бинوم, 2015. - 448 с.

2. Гарнаев, Андрей WEB-программирование на Java и JavaScript / Андрей Гарнаев , Сергей Гарнаев. - М.: БХВ-Петербург, 2012. - 179 с

3. Давыдов, Станислав IntelliJ IDEA. Профессиональное программирование на Java. Наиболее полное руководство (+ CD-ROM) / Станислав Давыдов , Алексей Ефимов. - М.: БХВ-Петербург, 2011. - 800 с.

ЭЛЕКТРОН ХАРИТАНИ ЯРАТИШНИНГ БОСҚИЧЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ

И. И. Нишанов

Ўзбекистон Республикаси Ахборот – коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институти

Ушбу мақола электрон хариталарни ишлаб чиқишга бағишланган. Мақолада растер ва векторли электрон хариталарнинг хусусиятлари аниқланди. Тадқиқот натижаларига кўра, электрон хариталарнинг асосий муаммоларини аниқлаш ва ушбу муаммоларга ечимларини топиш таклиф этилади.

Замонавий дунёда турли хил картографик маҳсулотлар электрон ва рақамли хариталар шаклида қўлланилади. Хариталарнинг узлуксиз ва тезкор ривожланиши турли соҳаларда: саноатни, транспорт, қишлоқ хўжалиги, ижтимоий жараёнлар, ҳарбий соҳаларда тезкор бошқаришни таҳлил қилиш, моддий ва табиий ресурслардан фойдаланишни режалаштириш, минерал-хом ашё ресурсларини излаш ва бошқаларни талаб қилиш билан изоҳланади.

Фаолиятнинг ҳар бир соҳасида электрон хариталар ўз вазифаларини бажарадилар. Миллий иқтисодий тизимларда электрон хариталар миллий иқтисодиёт мажмуасини бутун бошли соҳаларда тезкор бошқаришни, табиий ва табиий ресурслардан фойдаланишни режалаштиришни, ижтимоий жараёнларни таҳлил қилишни, кадастрларни яратиш ва юритишни таъминлашни, ресурслар бошқаруви моделлаштиришни таъминлаши керак.


Автоматлаштирилган бошқарув тизимларида электрон хариталар вазиятни реал вақт режимида баҳолаш ва қарорларни қабул қилиш, вазифаларни белгилаш ва ўзаро ҳамкорликни ташкил этиш, минтақалар

ва ҳудудларнинг географик хусусиятларини ўрганиш, вазиятни баҳолаш, моделлаштирилган тадбирларни амалга ошириш, ерлардаги ўзгаришларни прогнозлашда зарур ҳисобларни амалга ошириш, объектларнинг координаталарини аниқлашни таъминлаши керак. Автоматик навигация тизимларида электрон хариталар ер, ҳаво ва космик навигациясини таъминлаши керак.

Электрон харита - рақамли картографик моделдир; у кўрсатиладиган ёки намоёни қилиш учун тайёрланган махсус контентнинг маълум бир турдаги ва ўлчов харитаси мазмунига мос келадиган анъанавий белгиларнинг махсус тизимида кўрсатилади. Электрон хариталарнинг - векторли ёки растерли харита турлари мавжуд. Растер харитаси оддий қоғоз харитасини сканерлаш орқали олинган рақамли тасвирдир. Растер харитаси иккита хусусиятга эга.

Биринчи хусусият, қоидага мувофиқ хаританинг сканер қилингандан сўнг жуда катта ҳажмга эга бўлишидир. Иккинчиси эса, дастурнинг растерли харитаси билан қандай алоқаси борлигини билишдан иборат. Растер харитаси ёрдамида компьютер қуйидаги ҳисобларни амалга ошира олмайди: оптимал ҳаракат йўналишини аниқлаш, ер юзасининг профилини ҳисоблаш ва ҳоказо. Бундан ташқари, катта ҳажмда кам қувватли компьютерларда растер хариталарни кўрсатиш сезиларли даражада секин. Растер хариталарининг камчиликлари бўлган бу хусусиятлар улардан фойдаланишни сезиларли даражада чеклайди, аммо баъзи ҳолатларда уларни ишлаб чиқаришнинг арзонлиги сабабли улардан фойдаланиш оқланади. Вектор хариталар растрли хариталар билан ички тузилишига кўра ҳеч қандай умумий жиҳатга эга эмас. У ўзида хариталар объектлари ҳақидаги бор маълумотларни сақлайдиган (маълумотлар базаси)ни сақлайди.

Ушбу маълумот икки турга бўлинади: объектларнинг геометрик таърифи ва атрибутив таъриф. Атрибутив таъриф ўзида қуйидаги маълумотларни масалан, дарахт баландлиги, йўлнинг кенглиги, дарё оқиш тезлиги, турар-жой номи ва бошқа шу каби маълумотларни ўз ичига олади. Геометрик тавсиф, объектларнинг контурларини белгилайди, уларни қоидага мувофиқ текис синиқлар сифатида тахминий бошланғич контур эгрилигига рухсат берилган хатоликка яқин бўлган бузилган текис чизиқлар билан белгиланади.



Векторли хариталарнинг асосий муаммоси - ишлаб чиқариш харажатларининг катталиги. Векторли хариталарнинг афзаллиги эса, уни автоматик равишда компьютерда қайта ишлаш мумкинлиги ва у турли компьютер дастурларида, шу жумладан авиация соҳасида навигация мақсадларида тарқалиб бораётганлигидадир. Электрон хариталар яратиш жараёни жуда мураккаб ва кўп

меҳнат талаб қиладиган жараён дир, у қуйидаги асосий босқичларни ўз ичига олади:

1) дастлабки картография маълумотларини рақамли шаклга автоматик тарзда ўтказиш; 2) рақамли картографик маълумотларнинг символлашуви ва электрон хариталарнинг автоматлаштирилган тузилиши;

3) электрон хариталар билан ишлаш учун фойдаланувчи маълумотлар базасини бошқариш тизимини ишлаб чиқиш. Биринчи босқичда электрон картанинг асоси - мавжуд бўлган дастлабки картографик материаллар (аерокосмик тасвирлар, ажратилган асл нусхалар ва хариталарнинг босиб туширилган рангли тиражлари) асосида векторли рақамли харита моделини олиш масаласи ҳал қилинади. Ушбу муаммо қуйидаги асосий усуллар билан

ҳал этилади: 1) объектдаги контурларни кузатиб бориш, семантикани тайёрлаш ва киритиш, рақамли ахборотни тузиш орқали планшетга асл картографик материалларни рақамлаштириш; 2) оригинал картографик материалларни сканерлаш орқали, кейинчалик автоматик ёки интерактив векторлаштириш ва экраннинг растрли тасвирини таниб олиш, керакли семантикани киритиш ва рақамли маълумотларни тизимлаштириш.

Иккинчи босқичда қуйидаги вазифалар ҳал этилади:

- вектор моделини ифодалаш;
- юк даражасининг электрон харитасини тузиш;
- рамзий электрон карталарни назорат қилиш ва тартибга солиш;
- электрон хаританинг рамзий нусхасини архив графикасини олиш.

Рамзлаштириш жараёнининг моҳияти - ҳар бир объектга тегишли белгининг кодини таснифлаш коди, объектларнинг тавсифлари

ва уларнинг шартларига асосланган белгилар кутубхонасидан ажратиш.

Юкларнинг электрон хариталарини тузиш жараёнида дастурий ва визуал мониторинг ва ахборотни таҳрир қилиш амалга оширилади, бу асосан объектлар имзосини жойлаштиришга тўғри келади. Электрон хариталар яратиш жараёни энг биринчисидан бошлаб, ҳар бир юк даражасига навбати билан рамзий график нусхани олиш йўли билан тўлдирилади. Электрон хариталар шаклланиши универсал маълумотлар структурасида амалга оширилади, бу вектор маълумотларини кетма-кет ва занжир-тугунлар тақдимотида, растер шаклида, маълумотнома маълумотларда, шунингдек фойдаланувчи маълумотларининг сегментларини шакллантиришга имкон беради. Технология маҳаллий компьютер тармоғида бирлаштирилган автоматлаштирилган иш станциялари комплексида амалга оширилади. Электрон карталарнинг барча асосий хусусиятлари ва афзалликлари улардан фойдаланишда намоён бўлади. Аммо харитани яратишда бир қатор муаммоларни ҳисобга олиши керак. Ушбу муаммоларнинг энг дастлабкиси картографик материалларнинг эскириши ҳисобланади. Шундай қилиб, мавжуд анъанавий усуллар бўйича электрон хариталарни яратиш хариталарнинг эскиришига ҳеч қандай алоқаси йўқ. Рақамли хариталашнинг бир қатор муаммолари ишлатилган технологиялар, аппарат, дастурий таъминот ва ахборот билан боғлиқ. Бугунги кунда электрон харитани яратиш технологиялари самарадорлиги деярли дастурий таъминот сифати билан аниқланади. Дастурий таъминот ҳақида гапирганда, уни икки тоифага бўлиш мумкин: импорт ва маҳаллий. Ҳориж дастурий таъминоти маҳаллий таъминотдан қимматроқ; одатда битта иш жойи учун дастурий таъминот қиймати усқунанинг нархидан ошиб кетади. Бундан ташқари, дастурий таъминотнинг маҳаллийлаштирилган турлари етишмаяпти ёки кечиктирилиб пайдо бўлади. Маҳаллий дастурий таъминот янада оқилона нарх билан тавсифланади, лекин унинг функционалиги ишлаб чиқариш талаблари ва эҳтиёжларидан орқада қолмоқда. Рақамли хариталашнинг энг катта муаммоси - топографик ахборотни таснифлаш ва кодлаш бўйича миллий стандартларнинг ва рақамли топографик маълумотлар алмашинуви форматларининг етишмаслигидир. Баъзи масштабларда бир нечта

таснифловчи мавжуд бўлиб, маълумотларнинг бир классификатордан бошқасига ўтказилиши ахборотнинг йўқолишига олиб келади. Агар картография ташкилотлари бир-бири билан ўзаро таснифларни алмашадиган бўлса, унда бошқа, айниқса, кичик корхоналар олдида, ижодкорлик учун кенг қўламли йўналишларни очиб беради. Ушбу корхоналарнинг маълум қисми рақамли хариталашни ноқонуний равишда, зарур литцензиялар ва малакали мутахассисларсиз олиб боради. Рақамли топографик режа ва электрон шаклдаги шубҳали хусусиятларни ишлаб чиқариш ва тақсимлашни чеклаш учун барча ишлаб чиқарувчилар томонидан рақамли топографик маҳсулотларга сифат сертификатини олиш мажбуриятини амалда қўллаш зарур. Турли мавзулар бўйича электрон рақамли хариталар кенг оқимларда йиғилиб, қоғозда яратилган хариталарни алмаштиради. Хариталарни яратиш тажрибаси тўпланиб, уларни тайёрлаш методик усуллари такомиллаштирилмоқда. Электрон хариталар яратиш учун ишлатиладиган дастурий пакетларнинг янги версиялари жадал ривожланмоқда.

Адабиётлар

1. Буров Н. И. Электрон навигация ва картография. Нашриётчи ОГМА. 1996. 26 бет.


2. Л. Ватушченко, В. Лдипевич, А.А. Кошевой, навигацион хариталарни кўрсатиш учун электрон тизимлар. Нашриётчи ОГМА. 2000. 120 бет.

THE PERSPECTIVES OF SOUND FOCUSING USING LOUDSPEAKER AND MICROPHONE ARRAY

N. Mirzaev, Sh. Tashmetov

*Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi*

The aim of sound focusing techniques is to focus sound energy within a selected region using transducer arrays. The sound energy, that is, the acoustic potential energy, is a basic acoustic variable that determines the magnitude of sound. Examples of controlling acoustic potential energy can be found from ancient times. The Pantheon in Rome (27 BC) and other examples of renaissance architecture utilized a self-focusing structure to deliver sound from one place to another (figure a). In modern concert halls, line arrays are widely used to evenly distribute sound energy over a long distance (figure b). In this case, the purpose of sound focusing is to decrease the energy decay rate along the propagation distance. Another function of a loudspeaker array is to increase the clarity of sound by increasing the magnitude of the direct wave and decreasing the reflections. In this case, the sound beam generated by an array is focused in order to decrease the reflections from unwanted directions. Besides these examples, there are numerous applications of loudspeaker arrays.



(a)

(b)

Figure 1. (a) Image of Renaissance acoustics from *Musurgia Universalis*
 (b) Line array loudspeakers for million person audience

The beamforming technique is representative parametric approach to visualize the sound field. Conventional beamforming attempts to analyse the measured wavefronts by introducing a scan vector, which extracts important parameters related to the source location. This technique visualizes sound by changing a parameter – for example, the direction of the sound source – in assumed domain.

The performance of the beamforming technique is directly related to the accuracy and the robustness of the parameter estimation. An accuracy refers to the ability to estimate the position of a sound source with minimal error and is also connected to the ability to discriminate sources closely positioned in space. The scan vector can be designed from either the sound wave propagation model or an analysis of the measured data. As the former does not depend on measured data, it can be considered to be data-independent-approach. The well known delay-and-sum (DAS) beamformer falls into this category.

The sound focusing by loudspeaker arrays can be regarded as a counterpart to the beamforming technology, which is dependent to the performance of the beamforming technique. Though, a similar problem is explained from completely different perspectives. The basic theory is explained in terms of the wavenumber domain, and the major artefacts related to the array arrangement, for example, the diffraction limit due to the finite size of array, are addressed. Popular techniques such as delay-and-sum (DAS), frequently-invariant, and minimum variance beam formers are explained, and this explanation is extended to include super-directivity techniques that can be used to overcome diffraction limits.

The principle of sound focusing can be described in terms of the four basic operators (+, -, ×, and ÷) of array signal processing.

First, summing operator (+) describes the classical DAS techniques, which generates a beam pattern using the constructive interference of the sound field generated by array transducer. The basic theory of the DAS techniques can be considered against the same background as the problem of microphones. In this chapter, however, we attempt to explain the problem in wavenumber domain. This approach make it possible to explain the problem of sound focusing in terms of a Fourier transform.

The differential operator (-) is a technique that can be used to generate a narrow beam pattern without restriction by the array size limit. This principle is explained using an array that consists of two elements; the generate behaviour of differential sources, beginning from a dipole source, is addressed.

References

1. S. Unnikrishna Phii, Array Signal Processing, (Springer-Verlag, New-York,1989), 15-20
2. Darrell R. Jackson and David R. Dowling, “Phase conjugation in underwater acoustics,” J. Acoust. Soc. Am. 89(1), 1991.
3. Mathias Fink, “Time reversal of Ultrasonic Fields-Part I: Basic Principles,” IEEE Transactions on Ultrasonics, Ferroelectrics, and Frequency Control, 39(5), 567-578, 1992.
4. Mickaël Tenter, Jean-Lous Thomas, and Mathias Fink, “Time reversal and the inverse filter,” J. Acoust. Soc. Am. 108(1), 223-234, 2000.
5. J.-W. Choi and Y.-H. Kim, “Generation of an acoustically bright zone with an illuminated region using multiple sources,” J. Acoust. Soc. Am. 111(4), 1695-1700, (2002)
6. J.-W. Choi, Spatial Manipulation and Implementation of Sound, Doctorial thesis, 2005, KAIST.

“YOSHLAR ITTIFOQI” TASHKILOTI A’ZOLARINING ILMIY VA IJODIY FAOLIYATINI BAHOLASHNING AVTOMATLASHTIRISH TIZIMI

*M. Xamidov, B. Eshtemirov
Samarqand davlat universiteti*

Mazkur ishda “Yoshlar ittifoqi” ga a`zo talabalarni ilmiy va ijodiy faoliyatini adolatli, munosib baholash, faol, iqtidorli hamda shartnoma asosida ta`lim oluvchi talabalarni munosib rag`batlantirish avtomatlashtirilgan. “Yoshlar ittifoqi”ning ish faoliyatini uchi turga administrator, fakultet vakili (nazoratchi) va talaba foydalanuvchilar sifatida amalga oshirishning maqsad va vazifalari tadqiq etilgan.

Mazkur tizim Universitet talabalarini ittifoqqa a`zo bo`lgandan so`ng bajarilgan ishlarini va ularning ko`rsatkichlarini adolatli baholash mezonlarini o`z ichiga oladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatning davlat va jamiyat rivojlanishi istiqbolini strategik rejalashtirish tizimiga sifat jihatdan yangi yondashuvlarni boshlab berdi[1]. Unda belgilangan vazifalar sirasida ta`lim va fan sohasini rivojlantirish ham aloxida ko`zda tutilgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni ijrosini ta`minlash maqsadida oliy ta`lim tizimidagi boshqaruv jarayonlarni elektron hisoblash mashinalari yordamida avtomatlashtirish usullarini yaratish bugungi kuni asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1].

Oliy ta'lim tizimida fan va ta'limning rivojlanishi albatta talabalarning har bir fan bo'yicha mustaqil ta'limdan kengroq foydalanish bilan bog'liqdir. Faol talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyati O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tomonidan moddiy qo'llab quvvatlanadi. Tizim talabalarning ittifoqqa a'zo bo'lish, talabaning faoliyatini nazorat qilish, tahsinga loyiq ishlari va erishgan yutuqlarini baholash, xayriya ishlari va jamoat ishlariga jalb qilish kabi ishlarni o'z ichiga oladi.


Mazkur tizim Universitet talabalarini ittifoqqa a'zo bo'lgandan so'ng bajarilgan ishlarini va ularning ko'rsatkichlarini adolatli baholash mezonlarini o'z ichiga oladi. Talaba faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari e'tiborsiz qolmaydi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. (1-rasm, Tizimdan foydalanuvchilarning mantiqiy strukturasi)



1) Tizim administrator sifatida ishlash uchun quyidagi vazifalari mavjud:

- Talabalar va Fakultet vakillari borasida turli xil so'rovlarni amalga oshirish
- So'rovlarni amalga oshirgandan so'ng ularni tahrirlash
- Foydalanuvchilarni yani talabalrni ro'yxatdan o'tkazish
- Tizim foydalanuvchilarini Login va parolini xavfsizlik jihatdan tekshirish

(2-rasm, Foydalanuvchi ma'lumotlarini tahrirlash sahifasi)



2) Tizim talaba sifatida ishlash uchun quyidagi vazifalari mavjud:

- Talaba avval ro'yxatdan o'tadi
- Talaba o'zining ilmiy va ijodiy faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari haqida ma'lumotlarni dasturga kiritadi
- Talaba o'zi kiritgan ma'lumotlar asosida turli so'rovlarni amalga oshiradi
- Talaba kerakli ma'lumotlarni qog'ozga chop etishi mumkin

-Talaba o'zi kiritgan ma'lumotlar saqlanayotgan fayllarni yuklab olishi mumkin. (3-rasm, Talabaning tizimdagi o'ziga tegishli ma'lumotlarni qidirish sahifasi)



Yuqorida keltirib oʻtilgan avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratish va ularni amaliyotga tadbiq etilishi oliy taʼlim tizimi boshqaruv jarayonlarini bir muncha samaradorligi oshgan hisoblanadi. Boshqaruv jarayonlari samaradorligi asosan ortiqcha qogʻozbozlikdan chekinish va vazifalar ijrosini taʼminlash uz vaqtida bajarilishi bilan bogʻliqdir. Ortiqcha qogʻozbozlikdan chekinish va vazifalar ijrosi uz vaqtida bajarilishini amalga oshirish uchun yuqorida keltirilgan avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari asosiy vosita bulib xizmat qiladi.

Boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish usullari va texnologiyalarini yaratish nafaqat oliy taʼlim balki boshqa sohalardagi boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarini ham yaratadi.

Oliy taʼlim tizimidagi boshqaruv jarayonlarini ulardagi asosiy vazifalarni kompyuter va kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshirish ish faoliyatlarini tartiblashtirishga xizmat qiladi. Mazkur tizim yuqori bosqichli algoritmik tillar asosida yaratildi, dasturiy taminotdan foydalanish uchun shaxsiy kompyuterga qoʻshimcha talablar qoʻyilmaydi. Yaratilgan tizim oliy taʼlim muassasasi talabalari ijodiy faoliyati monitoringini amalga oshirishni avtomatlashtirish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni Toshkent sh. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.


2. Вейнеров О.М., Самохвалов Э.Н. Проектирование баз данных САПР. М.: Высшая школа, 1990, с.144.

MAKTAB KUTUBXONASINING MA'LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMINI YARATISH

M. Karimov, X. Nuriyev

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Tizimning ma'lumotlar bazasi va ushbu ma'lumotlar bazasi bilan ish ko'radigan dastur loyihasidan tashkil topgan.



1- rasm. Ma'lumotlar bazasining mantiqiy strukturasi


Tizimdan foydalanishda har doim ushbu yagona ma'lumotlar bazasiga murojaat qilinadi. Shu tufayli barcha foydalanuvchilar bitta ma'lumotlar bazasini shakllantiradilar. Shuning uchun bunday tarmoq texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta'minotlar biron –bir server kompyuterga o'rnatiladi. Tizimning qismlari bo'lgan ma'lumotlar bazasi va dasturiy loyihani alohida – alohida server kompyuterlariga o'rnatish xam mumkin. Bu jarayonda dastur loyihasining ma'lumotlar bazasiga ulanish qismidagi parametrlar qiymatlarini tahrirlash zarur, ya'ni ma'lumotlar bazasi joylashgan server-kompyuterning tarmoqdagi manzili (yoki nomi), ma'lumotlar bazasiga kirish huquqi berilgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimining foydalanuvchisi nomi va paroli hamda ma'lumotlar bazasini nomi ko'rsatiladi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi bo'lgan dasturni ishga tushirish uchun joriy katalogda quyidagi yorliqni faollashtirish kerak:



2-rasm. Tizimga kirish

Dastur faollashtirilgach ekranda quyidagicha dastur interfeysi paydo bo'ladi:




3-rasm. Tizimning asosiy oynasi

Bu interfeysda asosiy bajariladigan amal berilgan kitoblar bo'yicha hisobot bo'lgani uchun interfeysning markaziy qismida "Berilgan kitoblar" tugmasi joylashtirilgan. Shuningdek menyular qatori ham joylashtilgan.

Bosh menu quyidagi qismlardan tashkil topgan:

- O'quvchilar;
- Kitoblar.




4-rasm. O'quvchilar haqida ma'lumotlarni tahrirlash

Dasturdan chiqish uchun "Chiqish" menyusi bosiladi:



5-rasm. Tizimdan chiqish

O'qituvchilar haqidagi ma'lumotlarni ko'rish va tahrirlash uchun menyudagi "O'quvchilar" buyrug'i tanlanadi:



6-rasm. "O'quvchilar" buyrug'i tanlash natijasi

Bazaga yangi o'quvchi qo'shish uchun quyidagi "Qo'shish" tugmasi bosiladi va hosil bo'lgan formaga quyidagicha tarzda ma'lumot kiritiladi (7-rasm):

7-rasm. O'quvchi haqida ma'lumot kiritish

Ma'lumotlar bazasiga mavjud sinflar haqida ma'lumot qo'shish uchun quyidagi dastur qismidan foydalaniladi:

8-rasm. Sinfni tahrirlash oynasi

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, mazkur ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini ko'plab umumiy o'rtata'lim makatablarida amalida tadbiq qilish mumkin.

Adabiyotlar

1. Sattorov A. Ma'lumotlar bazasini boshqarish sistemasi. –Toshkent: “Fan va texnologiya” , 2006 y.
2. Sh. F. Madrahimov, S. M. Gaynazarov, C++ tilida programmalash asoslari, Toshkent – 2009.
3. M.M. Aripov. N.A. Otaxanov. Dasturlash asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Tafakkur Bo'stoni», 2015 y.
4. Қосимов С.С., Ахборот технологиялари. Тошкент, “Алоқачи” нашриёти, 2006 й.

3-ШЎЪБА

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ БОШҚАРИШ ТИЗИМЛАРИНИ ЯРАТИШ

БЕЛГИЛАРНИНГ ИНФОРМАЦИОН ВАЗНИНИ АНИҚЛАШНИНГ ЭВРИСТИК ЁНДАШУВИ

М. М. Камиров, А. Ш. Ҳамроев, О. О. Жамолов

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялар
университети ҳузуридаги ахборот коммуникация технологиялари илмий-
инновацион маркази*

Табиатда реал объектларни таниб олиш, фарқлаш ёки қиёслаш масалаларини замонавий компьютер технологиялари воситасида тадқиқ этиш учун асосан уларнинг хусусиятлари (белгилари, аломатлари, хоссалари)га алоҳида эътибор қаратилади. Объект – бу предмет, жараён, ҳодиса, ҳолат деган тушунчаларни англатади. Объектларнинг белгиларини тадқиқ этиш уларни интеллектуал таҳлил қилиш имкониятини яратади. Бу борада етарлича тадқиқотлар олиб борилган бўлсада, маълумотларни интеллектуал таҳлиллаш (Data Mining), тимсолларни аниқлаш (Pattern Recognition), катта маълумотлар (Big Data) илмий йўналишларида уларни янада чуқурроқ тадқиқ қилиш учун турли усул ва алгоритмлар яратилмоқда ва такомиллаштириб борилмоқда.

Юқорида келтирилган илмий йўналишларнинг энг муҳим масалалари сифатида маълумотларга дастлабки ишлов бериш, белгилар фазосини шакллантириш, белгиларнинг информацион вазнини аниқлаш, таснифлаш, кластеризация, башоратлаш каби масалаларни келтириш мумкин.

Ушбу ишда берилган ўқув танланмада белгиларнинг информацион вазнини аниқлаш масаласини ҳал қилишнинг бир ёндашуви устида мулоҳаза юритилади.

Маълум предмет соҳа объектлари ҳақидаги ахборотлар компьютер хотирасида кўп сонли маълумотлар тўплами сифатида сақланиб келаяпти. Маълумотлар базаларида объектлари ҳақидаги ахборотларнинг кескин ортиб кетиши уларни тезкор ва интеллектуал таҳлил қилишга оид масалаларни вужудга келтиради. Бунинг учун қўйиладиган масалага мос равишда предмет соҳа маълумотлари тўплами (бош тўпلام)дан ўқув танланма (объект-прецедентлар) жадвалини ажратиб олиш талаб этилади. Ўқув танланма объектлари соҳа мутахассиларининг тажрибалари асосида шакллантириш мақсадга мувофиқ. Бу ерда энг асосий муаммо объектларни тавсифловчи белгилар ва уларнинг қийматларини тўғри танлаш ҳисобланади. Ўқув танланма кўп сонли белгилардан иборат бўлса, белгилар фазосидаги информатив бўлмаган белгиларни қисқартириш масаласи пайдо бўлади.

Инсон табиатдаги турли хил объектларни уларнинг таснифий белгилари орқали бир зумда ажрата олади. Бу жараён инсон онгида жуда тезликда амалга оширилсада, у икки объектни фарқларини аниқлаш учун алоҳида (информатив бўлган) белгиларни излай бошлайди. Бу жараён, яъни таснифий белгилар воситасида объектларни қиёсланиши кетма-кет амалга оширилади. Шунини алоҳида таъкидлаш жоизки, кишилар объектларни фақатгина ўзлари аввалдан ўрганган объектлар билан қиёслаш оладилар, танимаган объектлар ҳақида эса аниқ ахборот бера олмайдилар. Лекин кузатувчи шахс номаълум

объектларнинг маълум характеристикалари орқали қандайдир гуруҳларга ажратиши ва таҳлил қилиши мумкин.

Белгилар фазоси информатив белгиларини ажратиш масаласи қуйидаги икки босқичда амалга оширилади:

– таниб олиш масаласи учун белгилар жамланмасини ажратиш (соҳа мутахассислари тажрибалари асосида);

– ўқув танланмада иштирок этувчи белгиларнинг информацион салмоғини аниқлаш орқали ажратиш (соҳа мутахассислари тажрибалари ва алгоритмик таъминот асосида).

Берилган предмет соҳа ўқув танланмасида белгиларнинг информацион салмоғини аниқлаш масаласини ечиш учун $\{S\}$ тўплам кўринишидаги m та объектлар ажратиб олинган деб фараз қилайлик, $\{S\} = \{S_1, S_2, \dots, S_m\}$. Ҳар бир S_j объект n ўлчовли белгилар фазосида $a_{ij} = x_i(S_j) \in X_i$, $X_i \in X$, ($i = \overline{1, n}$, $j = \overline{1, m}$) кўринишда тавсифланади, $S_j = (a_{1j}, a_{2j}, \dots, a_{nj})$, ҳамда ўзаро кесишмайдиган l та K_1, K_2, \dots, K_l синфларга ажратилган бўлади. Ишда $\{S\}$ тўплам белгилар фазосининг ҳар бир X_i белгиси учун $p(X_i)$ – информацион вазни ҳисоблаш талаб этилади.


Прецедентлар асосида таниб олиш масалалари учун бир қатор усул ва алгоритмлар ишлаб чиқилган. Улардан бири қисмий прецедентлик тамойилига асосланган баҳоларни ҳисоблаш алгоритмлари (БХА) ҳисобланади [1]. БХА асосий ғояси – бу объектни синфга тегишлилигини аниқлашда уларнинг белгиларини бир қанча қисм тўпламларга ажратиш ҳамда шу қисм тўпламлар асосида қиёслайди ҳамда ҳар бир қисмнинг синфларга берадиган овозларининг йиғиндисини ҳисоблайди. Натижада объектнинг синфлардан бирига берган энг юқори ёки қандайдир мезонларга нисбатан юқори берган овозига кўра унинг у ёки бу синфга тегишлилиги аниқланади.

БХАни такомиллаштириш давомида объектлар ва белгиларнинг муҳимлик ўлчовларини аниқлаш процедураси ишлаб чиқилган [1]. Унда асосан, $\{S\}$ ўқув танланманинг стандарт жадвал кўринишида бўлиши талаб этилади. Прецедентларга асосланган усул ва алгоритмлар (бўсағавий параметрлар, объектлар ва белгиларнинг информацион вазни ва ҳ.к.) параметрларини аниқлаш учун стандарт кўринишдаги $\{S\}$ ўқув танланма объектлари устида ўқитиш жараёни амалга оширилади. Бу жараён кўп сонли ҳисоблашларни талаб қиладиган эталон объектларни ўқитиш жараёни орқали аниқланади. БХАда A алгоритмни аниқлаш натижасида: $A(S_j, K_u) = \alpha_A(S_j)$, $\alpha_A(S_j) \in \{0, 1, \Delta\}$ бўлади. БХА ғояси бўйича ҳар бир белгининг информацион вазнини аниқлаш учун шу белги ўқув танланмадан олиб ташланади.

Ишлаб чиқилган мазкур ёндашув устида тажрибавий тадқиқот ўтказиш учун дастлабки иш сифатида модел масалалардан бири “IRIS” маълумотлар базасидан танлаб олинди. Унда синфлар сони 3 та ва уларнинг ҳар бирида 50 тадан объект мавжуд бўлиб, 4 та белгилар билан тавсифланади [3]. Тажрибавий тадқиқотларни амалга ошириш учун Delphi XE10.2 дастурлаш муҳитида “Белгиларнинг информацион вазнини аниқлаш” модули ишлаб

чиқилди. Мазкур модул ПРАСК-2 дастурий таниб олувчи мажмуаси [2] модули сифатида киритилади.

“IRIS” маълумотлар базасининг ҳар бир белгисининг информацион вазнини аниқлаш учун дастлаб барча n белги бўйича ўқитиш жараёни амалга оширилди. Ўқитиш натижаси бўйича сифат функционалининг қиймати 95,3 фоиз га тенг. Кейинги қадамларда ҳар бир i -белги ўчирилганда белгиларнинг информацион вазни (p_i) натижалари 1-расмда келтирилади.



1-расм. “IRIS” маълумотлар базаси белгиларининг информацион вазни натижалари

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, намуна сифатида олинган “IRIS” ўқув танланмаси ҳар бир белгисининг информацион вазни мавжуд ва уларни ўқув танланмадан ўчириб ташлаганда ўқитиш ва таниб олиш сифатига салбий таъсир кўрсатади. Белгилари миқдори кўп бўлган ўқув танланмаларда белгиларнинг информацион вазнини аниқлаш масаласи ўқув танланмада ноинформатив бўлган белгиларни қисқартириш масаласини ечишга хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Журавлев Ю.И., Камилов М.М., Туляганов Ш.Е. Алгоритмы вычисления оценок и их применение. –Ташкент: Фан, 1974. –124 с.
2. Камилов М.М., Хамроев А.Ш. Архитектура и основные структурно-функциональные блоки программно-распознающего комплекса частичной прецедентности. Научно-технический журнал. “Химическая технология. Контроль и управление”. – Ташкент, 2014, № 4. - С. 49-58.
3. Machine Learning Repository. Center for Machine Learning and Intelligent Systems. <http://archive.ics.uci.edu/ml/datasets.html>

OBJEKT LARNI TANISHDA SIFAT VA ISHONCHLILIKNI TA'MINLOVCHI KLASSIFIKATORLARNI TANLASH

Q. A. Bekmurotov, A. T. Hamiyev

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Samarqand filiali*

Aytaylik, T_{nml} (n -belgilar, m -obyektlar va l -sinflar soni) etalon tanlov berilgan bo'lsin [1]. T_{nml} dagi $K_k (k = \overline{1, l})$ sinflardan K_q sinf sifatida $K_q = \forall K_i$ va $K_p (q \neq p)$ sinf sifatida $K_p = T_{nml} \setminus K_q$ belgilaymiz.

Talab etiladi: T_{nml} ning hajmi hamda yangi S_j^* obyektlarni tanishda ro'y berishi mumkin bo'lgan xatolik ehtimoli \mathcal{E} va uning ishonchliligi η qiymatlarni hisobga olib, W_i^z klassifikatorning belgilar fazosining n_0 chekli o'lchamini aniqlash hamda $K_q \in T_{nml}$ ga xos n_0 ga ega bo'lgan shunday W_i^z larni topish kerakki, ularga mos ravishda qurilgan $R(S)$ hal qiluvchi qoida (HQQ) lar S_j^* larning K_q sinfga qarashli ekanligini aniqlashda \mathcal{E} va η larni qanoatlantirsin.

Qisman pretsedentli algoritmda [1] $K_q \in T_{nml}$ dagi $Z_\beta (\beta = \overline{1, m_q})$ larga nisbatan hosil qilinishi mumkin bo'lgan barcha W_i^z lar soni

$$m^* = m_q \cdot 2^n \quad (1)$$

aniqlanadi. Bu yerda $m_q - K_q$ - sinfdagi Z_β lar soni.

(1) bilan aniqlanadigan W_i^z lar orasidan α_i belgilari soni $n_0 (n_0 \leq n)$ tagacha bo'lgan α_i lardan iborat W_i^z larni tanlab olish uchun mumkin bo'lgan $R(S)$ lar soni N dan oshmaydi, bu yerda

$$N = 2^{n_0} \cdot C_{m^*}^{n_0} \quad (2)$$

aniqlanadi.

Demak $R(S)$ larning mumkin bo'lgan barcha holatlar soni aniq bo'ldi. Endi ushbu $R(S)$ larning mumkin bo'lgan barcha holatlar sonidan α_i lar soni $n_0 (n_0 \leq n)$ tagacha bo'lgan shunday W_i^z larni tanlash kerakki, ushbu W_i^z larga mos $R(S)$ lar S_j larni $K_q \in T_{nml}$ sinfga qarashli ekanligini berilgan \mathcal{E} va η larni qanoatlantirgan holda aniqlasin. Buning uchun Vapnik-Chervonenkis [2] ishlarida olingan natijalardan foydalanamiz.

Ulardan biri ta'kidlaydiki [2], agar T_{nml} da N ta $R(S_j)$ lar orasidan shunday bitta $R(S_j)$ topilsaki va u T_{nml} dagi S_j larni K_q larga xatosiz ajratsa, u holda $(1 - \eta)$ ishonchlilik bilan ta'kidlash mumkinki, S_j^* larni tanishdagi ehtimoliy xato \mathcal{E} dan oshmaydi, ya'ni

$$\mathcal{E} = \frac{\ln N - \ln \eta}{m} \quad (3)$$

Endi m, \mathcal{E}, η lar berilganda $n_0 = f(\mathcal{E}, \eta, l, n)$ ni hisobga olib (3) dan

$$\ln N = \varepsilon m + \ln \eta \quad (4)$$

hosil qilamiz.

(4) ning chap tomonidagi $\ln N$ ga N ning (2) dagi qiymatini qo'yamiz

$$\ln N = \ln 2^{n_0} + \ln C_{m^*}^{n_0} \quad (5)$$

(5) dan

$$\ln N = n_0 (\ln m_q + n \ln 2).$$

Hosil qilingan $\ln N$ qiymatini (4) ga qo'yib

$$n_0 = \frac{\varepsilon m + \ln \eta}{\ln m_q + n \ln 2} \quad (6)$$

aniqlanadi.

Agar $\eta, m, m_q, n, \varepsilon$ larga aniq qiymatlar bersak, u holda (6) dan n_0 ni qiymatlarini aniqlash mumkin (1-jadval).

1-jadval.

n_0 ning qiymatlarini aniqlash

| $\eta=0.95; m=1000; m_q=50; n=30.$ | | | | | |
|------------------------------------|------|------|------|------|------|
| ε | 0.01 | 0.03 | 0.05 | 0.07 | 0.1 |
| n_0 | 0.40 | 1.21 | 2.02 | 2.83 | 4.05 |

1-jadvaldan xulosa qiladigan bo'lsak, $\eta, m, m_q, n, \varepsilon$ larga aniq qiymatlar qabul qilganda ε ning qiymatlari oshishi bilan n_0 ning qiymatlari ham oshib boradi.

Shunday qilib, T_{nml} dan K_q ga xos tanlab olinadigan W_i^Z lar K_q dagi S_j larni K_p dagi obyektlardan xatosiz ajratishi uchun tanlab olinadigan har bir W_i^Z ga qo'shimcha talablar qo'yiladi.

Tanlab olinadigan har bir W_i^Z ning ajratish kuchini

$$F(W_i^Z) = \rho_i^Z / m \quad (7)$$

aniqlaymiz, bu yerda ρ_i^Z - W_i^Z yordamida to'g'ri sinflashtirilgan S_j lar soni.

Har bir W_i^Z uchun (7) yordamida hisoblangan ajratish kuchlari

$F(W_i^1), F(W_i^2), \dots, F(W_i^t), (t \leq l_1)$ orasidan eng katta ajratish kuchiga ega bo'lgan W_i^Z

$$F_{\max}(W_i^Z) = \max_{1 \leq Z \leq t} F(W_i^Z). \quad (8)$$

aniqlanadi.

Demak (8) yordamida $K_q \in T_{nml}$ dagi Z_β larga nisbatan $F_{\max}(W_i^Z), \dots, F_{\max}(W_i^Z)$ eng katta ajratish kuchiga ega bo'lgan $W_1^Z, W_2^Z, \dots, W_{n^*}^Z$ ($n^* \leq m^*$) tanlanadi.

(6) asosida topilgan n_0 ning qiymati asosida tanlanadigan har bir W_i^Z ning eng kichik yetarli ajratish kuchini

$$F_{\min}(W_i^Z) \geq \frac{r_i^Z}{n_0} \quad (9)$$

baholash mumkin, bu yerda r_i^Z - W_i^Z tarkibida qatnashadigan α_i lar soni.

W_i^Z ning eng kichik yetarli ajratish kuchi, W_i^Z ni tanlashda barcha w_i^Z larni emas, balkim

$$F_{\max}(W_i^Z) \geq F_{\min}(W_i^Z) \quad (10)$$

munosabatni qanoatlantiradigan W_i^Z larni tanlash imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, T_{nml} dan $K_q \in T_{nml}$ ga xos tanlab olinadigan W_i^Z larning har birining ajartish kuchi (10) shartni qanoatlantirishi zarur. U holda n_0 ta α_i ga ega bo'lgan har bir W_i^Z , K_q dagi S_j larni K_p dagi S_j lardan xatosiz ajratadi va ularga mos qurilgan $R(S_j)$ yordamida S_j^* larni tanishda ε va η larni qanoatlantiradi.

Yuqorida keltirilgan model asosida T_{nml} da K_q dagi S_j larni K_p dagi S_j lardan xatosiz ajratuvchi K_q ga xos bo'lgan n_0 ta α_i ga ega W_i^Z larni hosil qiluvchi algoritim va dasturiy ta'minot ishlab chiqildi.

[1-3] ishlarda keltirilgan model va algoritmlardan farqli ravishda ushbu model va algoritmda:

- Z_β larga nisbatan W_i^Z larni tanlab olish jarayonigacha $\eta, m, m_q, n, \varepsilon$ larning berilgan qiymatlari asosida W_i^Z tarkibiga kiruvchi α_i lar soni n_0 (6) ko'rinishda aniqlanadi;

- n_0 ning qiymati asosida W_i^Z lar tizimidan (9) va (10) larni qanoatlantiradigan W_i^Z tanlab olinadi. Bu esa W_i^Z lar tizimidan tanlab olinadigan W_i^Z lar sonining keskin kamayishiga olib keladi va buning natijasida EHMda hisoblashlar hajmi keskin kamayadi.

Adabiyotlar

1. Абдукаримов Р.Т. Камиллов М.М, Кондратьев А.И. Информационно - распознающие системы частичной прецедентности/- Т.: «Фан», 1984. 102 - с.
2. Вапник В.Н., Червоненкис А.Я. Теория распознавания образов (статистические проблемы обучения). – М.:Наука, 1974.-415 с.
3. Бекмуратов К.А . Васильев В.И., Бекмуродов Д.К. Нахождение предельно-допустимых значений размерности признаковов пространств из обучающей выборки. //Академия Наук Республики Узбекистан. Институт математики и информационных технологий. Современное состояние и перспективы развития информационных технологий. Том 2. – Ташкент, 2011. – С. 309-313.

CHEKLOVLAR VA KECHIKISH SHAROITLARIDAGI DISKRET NOSTATSIONAR TIZIMLAR VA ULARNING BASHORATLASH

F. M. Nazarov

Samarqand davlat universiteti

Mazkur ishda cheklovlar va kechikish sharoitlaridagi diskret nostatsionar tizimlar va ularning modellarining tahlili keltirilgan. Cheklovlar va kechikish

sharoitlaridagi diskret nostatsionar tizimlar ko'rsatkichlarini bashoratlash va ularni boshqarish bo'yicha asosiy ko'rsatmalar keltirilgan.

Mavzuning dolzarbligi: Jamiyatda axborot tizimlarini takomillashtirish hamda ularni himoyalash usul va algoritmlarini ishlab chiqishga, ularni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda boshqaruv nazariyasini qo'llash amaliyoti asosida ko'p o'lchovli jarayonlarni avtomatlashtirish hamda cheklovlar va kechikish sharoitlaridagi diskret nostatsionar tizimlar modellarining parametrlarini aniqlash usullariga qiziqish ortib bormoqda. Murakkab texnologik jarayonlarni modellashtirish amaliyotida e'tirof etilgan va keng qo'llaniladigan eng istiqbolli usullaridan biri - bu bashoratlash modellari bilan modellashtirish usuli.

Boshqarish tizimida uning muvaffaqiyatli ishlatilishini aniqlaydigan ushbu usulning asosiy ustunligi, qayta ishlash tizimini soddalashtirish va bashoratlangan ma'lumotlarni hisobga olish qobiliyatidir. Bunda nostatsionar ob'ektlarning murakkab tuzilmalarini boshqarish imkonini beradi, bu jarayonlarni optimallashtirish uchun parametrlar modelini belgilashdagi cheklovlar va kechikish sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda bashoratli modellarga asoslangan tizimlar jadal rivojlanish bosqichida qolmoqda, bu so'nggi yillarda nashr etilgan ilmiy nashrlar tomonidan tasdiqlangan va asosiy muammo sifatida qaralib kelinmoqda.

Bashoratli boshqaruv g'oyalari rivojlanish jarayonida nostatsionar modellarni qo'llash, boshqaruv tizimiga ma'lumotlar xususiyatlarini yetkazib berish, real vaqt rejimida zamonaviy optimallashtirish usullarini qo'llash, turli xil tizimlardagi nostatsionarliklar, obyektlardagi cheklovlar va boshqalar asosiy tayanch muommolar hisoblanadi. Biroq o'rganiladigan ob'ekt modelining tarkibida kechikishlar va cheklovlarlar mavjudligi, shuningdek, kiruvchi ma'lumotlar parametrlari bilan diskret nostatsionar tizimlarning bashoratlash boshqaruvini tahlil qilish masalasi to'liq ko'rib chiqilmagan. Cheklovlar va kechikish sharoitlarida ishlaydigan diskret nostatsionar tizimlar parametrlarini bashoratlash, monitoring qilish usul va algoritmlarini ishlab chiqish asosiy muommolardan biridir.

Tizimda nostatsionarliklar mavjudligi sharoitida bashoratlashni boshqarish muammolarini hal qilish, boshqaruvda kechikishlarni hisobga olish, ob'ekt ma'lumotlar parametrlarini bashoratli boshqarish va tizim ma'lumotlar bazasi arxitekturasini ishlab chiqish muammolarini hal qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Cheklovlar va kechikish sharoitlaridagi diskret nostatsionar jarayonlarning modellashtirish va bu modellar yordamida jarayonlarni aks etadigan raqamli ma'lumotlarni ishlab chiqish ishning asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadi. Berilgan ob'ektga har xil ko'rinishda taqdim etiladigan cheklovlar qo'yiladi. Nostatsionar ob'eyklar, kuzatish sohasi va boshqariluvchi chiqish modeli mos ravishda quyidagi munosabatlar bilan ifodalansin:

$$\begin{cases} x_{t+1} = A_t x_t + B_t u_t + w_t \\ x_{t|t=0} = x_0 \end{cases} \quad (1)$$

$$\psi_t = H_t x_t + v_t \quad (2)$$

$$y_t = G_t x_t \quad (3)$$

Bu yerda $x_t \in R^n$ - ob'ekning holati, $u_t \in R^m$ - boshqaruvchi ta'sir (ma'lum kirish), $\psi_t \in R^l$ - kuzatishlar, nazorat sistemasining chiqishi, $x_t \in R^n$ - boshqariluvchi chiqishlar, A_i, B_i, H_i, G_i - tegishli o'lchamlarning matritsalarini.

Boshqaruvchi va ob'ekt holatidaga cheklovlarni hisobga olish muhim hisoblanadi, agar ular hisobga olinmasa maqbul bo'lmagan natijalarga olib kelishi mumkin, ya'ni noturg'un tebranish holatlariga olib kelishi mumkin. Cheklanishlar quyidagi tenglamalar ko'rinishida ifodalanadi.

$$a_1(t) \leq S_1 x_1 \leq a_2(t) \quad (4)$$

$$\varphi_1(x_t, t) \leq S_2 u_t \leq \varphi_2(x_t, t) \quad (5)$$

Bu yerda S_1 va S_2 cheklanishlarga qo'yiladigan x_t va u_t vektorlar komponentalarini aniqlovchi nollar va birlardan iborat to'liq rangdagi strukturali matritsalar; $a_1(t), a_2(t), \varphi_1(x_t, t), \varphi_2(x_t, t)$ - berilgan vektorlar o'lchovlarining vektor funksiyalari.

Ba'zi maslalarda strukturali matritsalar ham t ga bog'liq bo'lishi mumkin.

Bashoratlovchi boshqaruvni sintez qilish bo'yicha ishlarda boshqaruvga cheklashlarning quyi va yuqori chegaralari odatda faqat vaqtga bog'liq funksiyalar bilan beriladi. Ushbu ishda bunday holatlar olib tashlangan, yuqori va quyi chegaralar holat vektor komponentalariga bog'liq cheklanishlar uchun yechiladigan holatlar nazarda tutilgan.

Bundan tashqari A_i, B_i matritsalar jufti boshqariluvchi, A_i, H_i matritsalar jufti esa to'liq ko'zatuvcanchilikka ega deb qaraladi.

(1)-(3) modellar u_t boshqaruv va φ_t kuzatishlar vektori haqida t joriy vaqt momentigacha bo'lgan ma'lumotdan foydalangan holda bashoratlash gorizonti deb ataladi hamda N deb belgilanadi va biror davrdagi ob'ekt holatini bashoratlash uchun foydalaniladi.

Masala shundan iboratki φ_t kuzatishlar bo'yicha shunday boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish kerakki, unda y_t sistemalar chiqish vektori (4) - (5) cheklanishlarni hisobga olgan holda berilgan \bar{y}_0 vektoriga yaqin bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan modellar asosida cheklovlar va kechikish sharoitlaridagi diskret sistemalarning bashoratlash modellari ishlab chiqiladi. w_t tasodifiy qo'zg'alishlar va v_t o'lchash parametri Gauss taqsimotiga ega bo'lgani uchun Kalman ekstrapolyatoridan foydalanib ob'ekt va chiqish vektori holatini optimal bashoratlash mumkin.

Bajarilgan ishda diskret nostatsionar tizimlar va ularga qo'yilgan cheklanishlar shartlarining modellari tahlili bayon e'tildi. Cheklovlar va kechikish

sharoitlaridagi nostatsionar tizimlarni bashoratlash va ularni boshqarish masalasi dolzarbligi asoslandi.

Adabiyotlar

1.А. Axatov., F. M. Nazarov. Разработка модели прогнозирования временных рядов нестационарных дискретных систем на основе нейронной сети. Проблем информатики международный научный журнал-2018 й. №2. [34-50] б.

2. Домбровский В. В., Домбровский Д. В., Ляшенко Е. А. Управление с прогнозирующей моделью системами со случайными зависимыми параметрами при ограничениях и применение к оптимизации инвестиционного портфеля // Автоматика и телемеханика. - 2006. -№ 12.-С. 71-85.

3. Абдуллаев А.М. Моделирование и прогнозирование технико-экономических показателей. Ташкент: ТИНХ, 1988. -79с.

БАҲОЛАРНИ ҲИСОБЛАШ АЛГОРИТМЛАРИДА МАНТИҚИЙ КОРРЕКЦИЯЛАШ ПРОЦЕДУРАЛАРИ

М. Х. Худайбердиев, Д. А. Хамроев

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети ҳузуридаги ахборот коммуникация технологиялари илмий
инновацион маркази*

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети*

$$\left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_1}} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right) \geq \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right),$$

$$\left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_1}} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right) > \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k^1}} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right)$$

munosabatlar bajarilgan bo'lsa, Pareto turidagi mezon bo'yicha yaxshiroq hisoblanadi.

Agar Pareto turidagi mezon bo'yicha φ_{k_0} dan yaxshiroq bo'lgan $\varphi_k \in \Phi$ mavjud bo'lmasa, φ_{k_0} qaror Pareto turidagi mezon bo'yicha muqobil hisoblanadi.

Pareto turidagi mezonning xossalari mujassamlashtirish, normallashtirish va ustuvorlik mezonini tanlashda noaniqliklar mavjud bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

$\varphi_k \in \Phi$ yechimning noravshan muhitda Pareto turidagi mezon bo'yicha yaxshilanish tushunchasini kiritamiz: Pareto turidagi mezon bo'yicha φ_k dan yaxshiroq bo'lgan $\varphi_{k_1} \in \Phi$ yechim mavjud bo'lsa $\varphi_k \in \Phi$ yechim yaxshilanuvchi deyiladi.

Yaxshilanuvchi qarorlarning xossalari quyidagi tasdiqlar bilan xarakterlanadi.

1-tasdiq. Barcha $q \in \{1, \dots, Q\}$ va aqalli bitta $q^1 \in \{1, \dots, Q\}$ ga (bu yerda $c^q = c - \gamma_q$) nisbatan quyidagi

$$\left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_0}} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right) \leq c^q, \quad \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_0}} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right) < c^{q^1}$$

tengsizlik bajariladigan $\gamma \in R^Q$ vektor mavjud bo'lsa, $\varphi_{k_0} \in \Phi$ yechim ko'p maqsadli noravshan $\{\Phi, \Theta, A, F\}$, $F = \{F^1, \dots, F^Q\}$ qarorlarni qabul qilish holatidagina yaxshilanuvchi bo'ladi, bu yerda

$$c = \max_k \min_q \left[\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_q \right].$$

Isbot. Talab qilinayotgan tengsizliklar bajarilgan bo'lsin, u holda c^q ning ta'rifiga ko'ra shunday $\varphi_k \in \Phi$ mavjud bo'ladi, unga nisbatan

$$c \leq \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_q \right)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi, demak barcha $q \in \{1, \dots, Q\}$ va aqalli bitta $q^1 \in \{1, \dots, Q\}$ ga nisbatan

$$c^q \leq \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right), \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_0}} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right) < c^{q^1} \leq \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_1}} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right),$$

$$\left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_0}} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right) \leq c^q \leq \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right)$$

bo'ladi.

2-tasdiq. $\varphi_{k_0} \in \Phi$ yechim yaxshilanuvchi bo'lib, $\varphi_k \in \Phi$ yechim $\varphi_{k_0} \in \Phi$ yechimga nisbatan Pareto turidagi mezon bo'yicha yaxshiroq bo'lgan yechim deb hisoblansin. Barcha $q \in \{1, \dots, Q\}$ larga nisbatan

$$\gamma_q = \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_1}} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right) - \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r \right)$$

bo'lsin, bu yerda:

$$q^1 : \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_1}} \right) > \left(\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_0}} \right).$$

U holda:

$$\max_k \left[\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_q \right] = \min_q \left[\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_q \right] = \sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r .$$

Isbot. R^Q dan olingan barcha γ larga nisbatan

$$\min_q \left[\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_q \right] \leq c$$

ekanligini hisobga olib, barcha $q \in \{1, \dots, Q\}$ va aqalli bitta $q^1 \in \{1, \dots, Q\}$ ga nisbatan

$$\left[\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_0}} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_q \right] \leq \left[\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_q \right] \leq$$

$$\leq \max_q \left[\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_q \right] = \min_q \left[\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_k} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_q \right] \leq c ,$$

$$\left[\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_0}} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_{q^1} \right] < \left[\sum_{s=1}^m \mu_s f^{sq_{k_1}} / \sum_{r=1}^m \mu_r + \gamma_{q^1} \right] \leq c$$

munosabatga ega bo'lamiz. Bu yerdan isbotlanayotgan tengsizliklarning o'rinli ekanligi kelib chiqadi.

Adabiyotlar

1. Алиев Р.А., Алиев Р.Р. Теория интеллектуальных систем и ее применение. - Баку, Изд-во Чашыюглы, 2001. - 720 С.

2. Заде Л.А. Размытые множества и их применение в распознавании образов и кластер-анализе. // Классификация и кластер. -М: Мир. 1980. -С.208-247.

3. Ротштейн А.П., Штовба С.Д. Управление динамикой системой на основе нечеткой базы знаний // Автоматика и вычислительная техника. 2001. №2. С.23-30.

REAL VAQTDА YO'L BELGISINI GPU YORDAMIDA ANIQLASH VA TANIB OLISH

*M. A. Umarov, N. A. Karimov, B. A. Muxammadiyev
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Samarqand filiali*


Yo'l belgisini aniqlash va tanib olish malakali haydovchilarga ko'maklashish tizimida (MHKT) muhim funksiyalardandir. Yo'l belgisini aniqlash va tanib olish tizimi ko'pincha uch bosqichdan iborat: qayta ishlash, aniqlash va tanib olish. Ko'pgina mavjud tadqiqotlar aniqlash va tanib olishning aniqligini oshirish uchun olib borildi. Bu ish GPUga asosidagi ishlov berish vaqtini minimallashtirish uchun apparat samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Odatda, *xususiyatni ajratish va tasniflash* algoritmlari jadal rivojlangan. Algoritmning o'zlarini optimallashtirish aniqligini oshirishga uchun uchun ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, ammo apparat dasturlariga qaratilgan bir nechta ishlar mavjud. Ushbu maqolada, GPUda massivli parallel ishlov berish orqali yo'l belgisini aniqlash va tanib olish algoritmlarini tezlashtirish uchun ko'p yadroli arxitekturadan foydalanishni taklif etamiz. Maqsad, real vaqt rejimida yo'l belgilari aniqlash va tanib olish hisoblash vaqtini sezilarli darajada kamaytirishdir.

Ishning bog'liqligi. Ko'plab yo'l belgilarini umumiy xususiyatlardan foydalangan holda aniqlash va tanib olishga doir bir qancha ishlar mavjud [1], [2]. Shuningdek, bu ishlar birinchi navbatda algoritmga qaratilgan bo'lib, apparat platformalaridagi haqiqiy ishlash vaqtini emas, balki ushbu dizaynlarni amalda foydali bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Boshqa tomondan, aniqlik va hisoblash vaqtlari o'rtasidagi farqni hisobga oladigan ba'zi bir ishlar mavjud [3], [4], ammo eksperimental ma'lumotlar ularning turli xilligini ko'rsatdi. Bir xil standart ma'lumotlarni to'plamidan foydalanib baholashsiz, ularning natijalarini solishtirish qiyin.

Standart trafik belgisi ma'lumotlar to'plamlari Belgiya yo'l belgilari ma'lumotlar to'plami [1] va nemis yo'l belgilari benchmark [2], kabi hal qilish uchun qurilgan. Tadqiqotchilar ularning dizaynlaridan o'lchov sifatida treninglar va testlashda baholash uchun foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tasvir o'lchamlari qayta ishlash vaqtini va aniqligining samarasida mumkin bo'lgan yana bir muhim omilidir.

GPU orqali parallel ishlov berish. Oldindan ishlov berish va HOG algoritmlari murakkab hisob-kitoblar ekan, ushbu bo'limda biz GPU asosidagi tezlashtirishni tasvirlaymiz. Oldindan ishlov berish uchun odatiy nuqta operatsiyalari



1-rasm. Tavsiya etilgan tizimdagi uch bosqich


Bu GPU ni joriy etish uchun mos keladi. HOG ni sotib olish yanada murakkab. OpenCV kutubxonasidagi HOG ning mavjud GPU versiyasini o'zgartiramiz, bu CPU versiyasiga nisbatan hisobni tezlashtirishi mumkin. HOG funksiyalari kirish tasvirining ko'p miqdordagi miqdori bo'yicha hisoblanishi kerak va satrlar orasidagi bo'shliqlar kamayishi yoki yo'q qilinishi mumkin. Har bir darajadagi kirish ma'lumotlari tayyorlangandan so'ng, turli darajalarda HOG hisoblash vaqtida ma'lumotlarga bog'liqlik yo'q. OpenCV dasturida har bir daraja yadrolar o'rtasida ma'lumotlar sinxronizatsiyasini ta'minlash uchun avvalgi darajadagi hisob-kitoblarni bajargunga qadar to'xtaydi. Bunday stollar keraksiz va CUDA oqimlaridan foydalanmasliklari mumkin. Yadrolar bir nechta CUDA oqimlarida bir vaqtning o'zida ishlashi mumkin va boshqalarga ta'sir qilmasdan muayyan oqimda sinxronlash mumkin. CUDA oqimlaridan foydalanib, biz darajalar o'rtasidagi bo'shliqlarni sezilarli darajada kamaytiramiz va shu bilan HOG ni komplekslashtirish samaradorligini oshiramiz. Biroq, biz CUDA yadrolarini ko'paytirishni hisobga olishimiz kerak. Shuning uchun biz ushbu yondoshuvni faqat katta kirish tasvirlari uchun tavsiya qilamiz. Bizning holatda tasvirning boshlang'ich o'lchami 1236 dan 1628 pikselga teng. Bu CUDA yadrosini ishga tushirishni boshdan kechirish uchun etarlicha katta.

Davom ettirilgan natijalar. Tavsiya etilgan yo'l belgilarini aniqlash va aniqlash algo-ritmlari Tesla K20 GPU platformasida baholanadi. GPU da oldindan ishlov berish bosqichi taxminan 13 ~ 17 mil. Tushunish va aniqlash bosqichlari qayta ishlashning ko'p vaqtini hisobga oladi. Avvalo, har bir miqyosda HOG hisoblash vaqtini CPU va GPU ga solishtiramiz. Shakl 2da ko'rsatilgandek, miqyosi darajasi kichrayib, miqyosi miqdori oshgani sayin, GPU tezlashmasining tezligi sezilarli bo'ladi. Sinov suratining asl o'lchami 1236 tomonidan 1628 pikseldir. OpenCV kutubxonasi HOG hisoblash vaqtini CPU va GPU bilan taqqoslash uchun ishlatiladi.

Ikkinchidan, Belgiya Belgiya datasetida [2] 2000 tasvir yordamida GPU dasturimizni test qilamiz. Har bir rasm hajmi 1236 dan 1628 pikselga teng. Uch bosqichning umumiy ijro muddati qayd etiladi. Rasmlarni o'qish va SVM

parametrlarini o'qish kabi boshlash vaqti e'tiborsiz. Natijalarni ko'rsatish kabi post-processing time ham e'tiborsiz qilinadi. GPUda o'rtacha kvadrat tezligi 21,3 kv / sek.

Va nihoyat, Belgiya Belgiya tizimidan foydalanib, tavsiya etilgan tizimimizning aniqlash tezligi va tasnifi darajasi baholanadi. Biz



2-rasm. HOG computing time on CPU and GPU.

1918 ta sinovlar va aniqlash darajasi 91.69% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, BelgiumTS dataset tomonidan taqdim etilgan fon tasvirini foydalanib, noto'g'ri pozitsiyani o'lchovi. Har xil miqyosdagi darajadagi ushbu tasvirlardan 20 milliondan ortiq oyna chiqaramiz. Shunday qilib, har bir oyna uchun noto'g'ri pozitsiyalar (FPPW) 3:39 ni tashkil qiladi. 5. Shunga o'xshab, biz BelgiyaTSC datasetini tasniflash stavkasini baholash uchun foydalanamiz. BelgiumTSC datasetdagi har bir tasvir ba'zi bir fonda bitta trafik belgisini o'z ichiga oladi. Biz HOGni hisoblash va SVM tasnifini bajarishdan oldin har bir tasvirni 32 piksel hajmdagi 32 gacha oyna o'lchamiga o'zgartiramiz. Biz Belgiya Belgiya TSC ma'lumotlar bazasidan 2520 ta rasmni sinab ko'rdik va tasnif darajasi 93,77% ni tashkil qildik.

Natijalar. Ushbu maqolada GPU platformasida real vaqt rejimida yo'l belgisini aniqlash va tanib olish tizimi mavjud. 48 ta yo'l belgilari ishonchli aniqlik bilan aniqlashi va tanib olishi mumkin. U sekundiga 21,3 kadr bilan ishlaydi va har bir kadr 1236 dan 1628 pikselgacha yuqori piksellar bilan ishlaydi. Har bir kadrda alohida ishlov beriladi va avvalgi kadrlardan hech qanday ma'lumot talab qilinmaydi. Biroq, avvalgi kadrda olingan ma'lumotlar, yo'l belgilari kuzatilganda va aniqlashdagi aniqlikni yaxshilashda foydali bo'lishi mumkin. Bu umumiy tizim ish faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha kelgusi ishimizning bir qismi bo'ladi.

Adabiyotlar

1. M. Mathias, R. Timofte, R. Benenson, and L. V. Gool, “Traffic sign recognition - how far are we from the solution?” in Proceedings of IEEE International Joint Conference on Neural Networks (IJCNN 2013), August 2013.

2. S. Houben, J. Stallkamp, J. Salmen, M. Schlipsing, and C. Igel, “Detection of traffic signs in real-world images: The German Traffic Sign Detection Benchmark,” in International Joint Conference on Neural Networks, no. 1288, 2013.

3. E. Herbschleb and P. H. N. de With, “Real-time traffic sign detection and recognition,” pp. 72 570A–72 570A–12, 2009. [Online]. Available: <http://dx.doi.org/10.1117/12.806171>

О ВОЗМОЖНОСТЯХ ИМИТАЦИОННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ И ПАКЕТОВ ПРИКЛАДНЫХ ПРОГРАММ В ИССЛЕДОВАНИЯХ СЛОЖНЫХ СИСТЕМ

С. Отакулов, А. Самадов


*Самарқанд давлат университети,
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент
технологиялар университети Самарқанд филиали*

Построение математической модели сложной системы сопровождается определенными трудностями, связанными с многообразием связей между элементами, нелинейными ограничениями, большим числом параметров, влиянием различных случайных факторов и воздействий неопределенного характера. Эти трудности и обуславливают применение имитационного моделирования при исследовании больших систем. Имитационные модели позволяют достаточно просто учитывать такие факторы, как наличие дискретных и непрерывных элементов, многочисленные случайные воздействия и другие, которые часто создают трудности при аналитических исследованиях. Имитационное моделирование дает возможность изучить длительный интервал функционирования системы в сжатые сроки или, наоборот, изучить более подробно работу системы в развернутый интервал времени.

Имитационное моделирование может применяться в самых различных сферах человеческой деятельности. Оно особенно эффективно в следующих задачах: проектирование и анализ производственных систем; определение требований к оборудованию и программному обеспечению различных компьютерных систем; проектирование и анализ работы транспортных систем; оценка проектов создания различных организаций массового обслуживания; модернизация различных процессов в деловой сфере; определение политики в системах управления запасами; анализ финансовых и экономических систем.

В процессе имитационного моделирования сложной системы важным является декомпозиция системы на более простые части-блоки. При этом формулируются законы и «правдоподобные» гипотезы относительно поведения как системы в целом, так и отдельных ее частей. В зависимости от

поставленных перед исследователем вопросов вводится так называемое модельное время, моделирующее ход времени в реальной системе. В имитационном моделировании используются *два основных подхода к продвижению модельного времени*: продвижение времени от события к событию; продвижение времени с постоянным шагом.



Первый подход, использующий продвижение времени в модели от события к событию, применяется всеми основными компьютерными программами и большинством разработчиков, создающих свои модели на универсальных языках [1]. Второй подход в основном предназначен для систем, в которых можно допустить, что все события в действительности происходят в один из моментов n времени ($n = 0, 1, 2, \dots$) для соответственно выбранного шага Δt . Так, в экономических системах необходимые данные часто предоставляются за определенные промежутки времени, поэтому естественно в имитационной модели таких систем установить продвижение времени с постоянным шагом.

Продвижение времени посредством постоянного шага имеет недостатки, связанные с возникновением ошибок в результате обработки событий в конце интервала, в течение которого они происходят, а также необходимостью решать, какое из этих событий обрабатывать первым. Подобного рода проблемы можно частично решить, сделав интервалы Δt менее продолжительными, но тогда возрастает число проверок возникновения событий, что приводит к увеличению времени выполнения задачи. Поэтому продвижение времени с постоянным шагом не следует использовать в дискретно-событийных имитационных моделях, когда интервалы времени между последовательными событиями могут значительно отличаться по своей продолжительности.

Одно из наиболее важных решений, которые приходится принимать разработчикам моделей, касается выбора программного обеспечения. Использование пакета(языка) имитационного моделирования дает несколько преимуществ: 1. Пакеты имитационного моделирования автоматически предоставляют большинство функциональных возможностей, требующихся для создания имитационной модели, что позволяет существенно сократить время, необходимое для программирования, и общую стоимость проекта. 2. Имитационные модели, которые созданы с помощью пакетов моделирования, как правило, проще модифицировать и использовать. 3. Пакеты имитационного моделирования обеспечивают более совершенные механизмы

обнаружения ошибок, поскольку они выполняют автоматический поиск ошибок многих типов.

Современные программные пакеты поддерживают следующие функциональные возможности: генерирование случайных величин с заданными распределениями вероятностей; создание независимых прогонов моделей; сбор выходных статистических данных и создание отчета по всем прогонам; использование заложенных и созданных пользователем математических выражений и функций; создание собственных логических конструкций и использование стандартных схем; встроенное средство отладки модели с автоматической возможностью поиска ошибок в модели.

Имитационное моделирование широко и активно используется в развитых странах мира. Разработаны языки имитационного моделирования, такие как GPSS, Arena, AnyLogic, SIMPROCESS и др.

GPSS/H – язык для моделирования дискретных систем. В основе этого программного продукта лежит язык имитационного моделирования GPSS (General Purpose Simulating System – общецелевая система моделирования). Основное назначение GPSS – это моделирование систем массового обслуживания, хотя наличие дополнительных встроенных средств позволяет моделировать и некоторые другие системы (например, распределение ресурсов между потребителями). Возможности языка GPSS World: объектно-ориентированный интерфейс пользователя; высокопроизводительный транслятор моделей; программные эксперименты с автоматическим анализом данных; быстрая и удобная отладка с использованием графического интерфейса; пакетный режим с контролируемой процедурой выхода из приложения; диалоговые окна ввода блоков; возможность динамического вызова функций из внешних файлов.

AnyLogic – инструмент имитационного моделирования, позволяющий эффективно использовать и сочетать все существующие подходы к моделированию. Анимация в AnyLogic дает возможность наглядно представить динамику всей системы в процессе моделирования. Области применения программного продукта AnyLogic: рынок и конкурентоспособность, управление проектами, социальные и экологические системы, развитие городов, перемещение людей и транспортных средств, очереди, перевозки, эвакуация, производственные процессы, здравоохранение и другие. AnyLogic поддерживает как моделирование систем с дискретными, так и моделей с непрерывными событиями, а также комбинировать их[3]. Построение модели в AnyLogic не требует написания программного кода, но если стандартных средств не хватает (или их использование неудобно), есть возможность использования языка Java.

С помощью Arena можно достичь основных целей моделирования сложных систем: узнать структуру, основные свойства, законы развития и взаимодействие с окружающей средой; выявить «узкие места» в материальных, информационных и других потоках; выделить переменные, наиболее важные для успешного функционирования системы; научиться управлять системой, определять наилучшие способы управления при

заданных целях и критериях; прогнозировать прямые и косвенные последствия реализации заданных форм и способов воздействия на систему[2].

Литература

1. Бычков С. П., Храмов А. А. Разработка моделей в системе моделирования GPSS. Учеб. пособие. – М.: МИФИ, 1997.
2. Giaglis G. M., Paul R.G., Okeefe R. M. Discrete simulation for business simulation. – Berlin: Springer – Verlag, 2003.
3. Замятина О.М. Моделирование систем. Учебное пособие. –Томск. изд-во ТПУ, 2009.

TASVIRLAR OBYEKTLARINI KUZATISH ALGORITMLARINI TADQIQ ETISH USULLARI

D. B. Jurayev

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Hozirgi kunga kelib tasvirlarga raqamli ishlov berish va ularni qayta ishalash juda ko‘lab sohalarni qamrab olmoqda. Bunga asosiy sabab biz hohlaymizmi, hohlamaymizmi kunlik ehtiyojlarimizni qondirishda baribir tasvirlarga raqamli ishlov berishga duch kelamiz. Shunday sohalardan biri bu dinamik haraktdagi tasvir obyektlarni kuzatish (treking) dir.

Treking orqali harakatlanayotgan obyekt yoki jismning harakatini oldindan baholash va uning harakat trektoriyasini bilib olish mumkin bo‘ladi. Bu orqali ko‘cha yo‘l harakatini oson nazorat qilish va boshqarish, turli jinoyatlarni oldini olish va biz kuzatayotgan sahnadagi o‘zgarishlarni oson va tezda ilg‘ab olish imkoniyatini beradi.

Obyektlarni kuzatish algoritmlari (treking) - bu harakatlanuvchi va sekin harakatlanuvchi obyektlarni tasvir yoki kadrlardagi harakatini kuzatish va baholashdir. Bunda quyidagi masalalar yechiladi:

- kadrlar ketma-ketligidan turli obyektlar va ularning qismlari orasidagi uxshashlikni aniqlash;

- obyekt trektoriyasini topish;

- haraktdagi obyektlar tezligi va harakat yunalishini topish.

Treking bu – murakkab masala bo‘lib ,bunda haraktdagi obyektlar bir vaqtning ichida bir necha parametrlarning ta‘sirini ye‘tiborga olish lozim. Ular quydagilar:

- tasvirning o‘zgarishi , sahnaning yoritilganligi, kameradagi hhaloqitlar;

- o‘zining formasini o‘zgartiruvchi obyektlarning qatnashuvi (Masalan: yugirayotgan odam);

- obyektlarning boshqa obyektlar vositasida vaqtinchalik to‘sib quyilishi yoki ko‘rinmasligi(berkitib quyilishi);

- bir-biriga yaqin belgili bir nechta obyektlarning birgalikdagi harakati va ularning harakat trektoriyasining kesishishi;

- avvalgi ishlov berish bosqichida obyektlar tasvirlarini noto'g'ri segmentlashtirish natijasida hosil bo'lgan halaqitlar;

- real vaqt muhitida kuzatishni tashkil qilish zaruriyati.

Trekingni noto'g'ri amalga oshirish tahlil qilinayotgan obyekt harakati haqida noto'g'ri baholashga olib keladi. Avvalo harakatdagi obyektlarning ifodalash formasi aniqlashtirilishi lozim. Bu yerda minimal mumkin bo'lgan to'g'ri to'rtburchak orqali quydagicha ifodalanishi mumkin:

- obyektning og'irlik markazini ifodalovchi nuqtalar bilan belgilash yoki obyektning o'z ichiga olgan minimal mumkin bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni ko'satish;

- obyektning ifodalovchi kalit nuqtalar to'plamini korsatish, bunda y nuqtalar yordamida obyekt bir zumda topiladi;

- geometric premitivlar bilan ifodalash. Masalan (yellips yoki obyektning o'z ichiga olgan minimal mumkin bo'lgan to'g'ri to'rtburchak bilan);

- obyekt harakatlanganda turg'unlik xususiyatini yo'qotmagan sohalar to'plami asosida;

- obyekt tasvirning invariant xarakteristikalarini asosida trekking tashkil qilish. (Invariant deganda obyekt rangi, tuzilishi va h.k kiradi).

Trekingda vazifaning qo'yilishi:

- nuqta xususiyatlari uchun (Harris detector);

- vaqt xususiyatlari qo'shni nuqtalarda (Lukas-Kanade usuli).

Kuzatuv Harris detector xususiyati - Qidirish sohalarda asoslangan usul, shunga o'xshash burchagi Tasvir $I(x, y)$ burchagiga ega va uning funksiyasi:

$$R = \det M - k * (\text{trace} M)^2$$

$$M = \begin{bmatrix} \left(\frac{\partial I}{\partial x}\right)^2 & \left(\frac{\partial I}{\partial x}\right)\left(\frac{\partial I}{\partial y}\right) \\ \left(\frac{\partial I}{\partial x}\right)\left(\frac{\partial I}{\partial y}\right) & \left(\frac{\partial I}{\partial y}\right)^2 \end{bmatrix}$$

Xarris taklifi $k = 0,4$

Kuzatuv usul Lukas-Kanade xususiyatini $\Omega(x)$ bir siljitish x G tasvir bilan solishtirish, orasidagi dx farqni topish talab qilinadi:

$$E = \sum_{\Omega(x)} (I(x + \Delta x, t) - I(x, t + \Delta t))^2$$

$$I(x + \Delta x) \approx I(x) + \Delta x \frac{\partial}{\partial x} I(x)$$

$$0 = \frac{\partial}{\partial \Delta x} E \approx \sum_{\Omega(x)} \frac{\partial}{\partial \Delta x} (I(x, t) + \Delta x \frac{\partial}{\partial x} I(x, t) - I(x, t + \Delta t))^2$$

$$\Delta x = \left[\sum_{\Omega(x)} \left(\frac{\partial I}{\partial \Delta x}\right)^T (I(x, t) - I(x, t + \Delta t)) \right] \left[\sum_{\Omega(x)} \left(\frac{\partial I}{\partial \Delta x}\right)^T \left(\frac{\partial I}{\partial \Delta x}\right) \right]^{-1}$$

Kuzatuv qurilmalar LK-usuli xususiyatini yaxshilash standardi LK-usul faoliyatni murakkablashtiruvchi E funksiya yordamida erishilgan:

- Tomasi-Kanade - chiziqli tenglamalar muammo qayta shakllantirish (iteratif eritma);

- Shi-Tomasi-Kanade - bir birlik nuqtasi sahnada qo'shimcha o'zgarishlar hisobi;

- Jin-Favaro-Soatto - qo'shimcha o'zgarishlar va yorug'lik o'zgarishlar hisobi. Quyidagi sharoitlarda bir ob'ekt nazorat muammosi:

- real vaqt ishlaydigan (on-line, real vaqt);


- uzoq vaqt davomida kuzatish (uzoq muddatli);

- ob'ekt haqida oldindan ma'lum ma'lumotlarning yo'qligi (bilamiz oldindan ma'lumotning barchasi birinchi doirada ob'ekt chegarasi).

Ijobiy-salbiy cheklovlarni o'rganish.

Har bir sahnada:


1. Kuzatuv obyektlari mavjud
2. Trektoriyani aniqlash
3. Barcha Kuzatuv obyektlarilarni orbital kuzatib ijobiy misollarda ifodalash
4. Boshqa barcha Kuzatuv obyektlarilar salbiy qabul qilinadi
5. Kuzatuv obyektiga cheklovlar o'zgartirilgan tasnifi asosida o'rnatiladi



1-rasm. a) Ma'lumotlarni detector trekingi; b) Ma'lumotlarni harakat trekingi; c) O'zgartirilgan ish tasnifi

Kuzatilishga ko'ra optimallashtirish. Ikkinchi Venger optimallashtirish algoritmi, u boshlash orbitasida - (vaqt) treking birinchi majmui hisoblanadi va ish natijasi - $\{\lambda q\}$ orbitalarda juda ko'p (ob'ektlarini ketma - ketliklarini eij larni qayd qildi). Bu muammoni hal qilish uchun topilgan yo'l Optimal baholashdir. (1- usul)

Har bir nuqta eij trayektoriya mo'ljallangan λq uchun



2-rasm. Trekingning kuzatish usuli.

$$TAC(e_{ij}) = \frac{|S_T - S_W|}{|S_W|}$$

S_T - X (orbital barcha nuqtalarining majmui) ning ziddiyati
 S_W - tarqalish X miqdori (1) va X (2) (trayektoriyaning o'zaro eij ajralish bo'linmalari)

Optimal baholash (**2-usul**) Barcha orbitalarda uchun λ_q hisoblangan:

$$L(\lambda_q) = \sum_{\lambda_q} (TAC(e_{ij} \in \lambda_q^{(n)}))$$

Agar L (λ_q) keyin biron-sonli, kattaroqdir:

Yuqori tog' joylarida tasodifiy vazn graffik treking o'zgaradi.

Aniq optimallashtirish muammosi qayta hisoblanadi.

Trekingda obyektlarni tahlil qilishda algoritm real vaqtda ishlashi, cheksiz muddati kuzatish imkoniyati va tasvir qadamlarning yetishmasligini odini olish imkonini beradi. Kamchilik sifatida esa algoritm faqat bitta ob'ektni ergashishga majburdir.

Adabiyotlar

1. B. Yang, C. Huang, and R. Nevatia, "Learning affinities and dependencies for multi-target tracking using a CRF model," in Proc. IEEE Comput. Soc. Conf. Comput. Vis. Pattern Recognit., 2011, pp. 1233–1240.

2. W. Choi and S. Savarese, "A unified framework for multi-target tracking and collective activity recognition," in Proc. Eur. Conf. Comput. Vis., 2012, pp. 215–230.

MATNDAN NUTQ YARATISH TUSHUNCHASI

F. A. Axmedov, Q. N. Elbegiyev

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Kompyuterlarning dastlabki avlodlari chiqa boshlagan paytlarda fan arboblari uchun kompyuter bilan nutqli muloqot qilish faqat orzu bo'lgan xolos. O'sha paytlarda fantastik filmlarning eng sevimli sohasi - kompyuterning gapira olishi va nutqni taniy olishi bo'lib qolgan. Turli mintaqalarda olimlar (kompyuter mutaxassisi, elektronik va hokazo) bu orzularning ushalishi yo'lida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ular ikkita asosiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan:

1. Matndan nutq yaratish.
2. Nutqni tanish.

Bu ikki xildagi muammolar turlicha tahlil qilingan. Hozirgi kunda olimlar Matndan nutq yaratish (MNY) tizimi va nutqni tanish tizimlari bo'yicha ilmiy ishlar olib borishmoqda va agar bu tizimlar birlashtirilsa, kelajakda nutqni tushunadigan va suhbatlasha oladigan kompyuterlarni va turli qurilmalarni yaratish imkoniyatlari vujudga keladi.

MNY tizimi – bu berilgan matnni nutq tovushlariga o'tkazish tizimidir. Bunda matn manbaasi turlicha bo'lishi mumkin. Shu o'rinda MNY tizimi matnni qayta

ishlash va nutq yaratish qismlarini o‘z ichiga qamrab olgan tizimdir. Ideal MNY tizim deganda inson nutqini aniq va to‘liq tushuna oluvchi tizim tushuniladi. Misol uchun u raqamlarni va qo‘lyozma matnlarni o‘qiy olishi lozim, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz eta olishi zarur va boshqalar.

MNY tizimi ikki asosiy qismdan iborat: Matnni tahlil qilish qismi va nutq hosil qilish qismi. Matnni tahlil qilish qismi ideal tizimning eng murakkab qismidir, chunki, unda qandaydir matnni tushunishga va aniq natija olishga buyurtma beriladi, matn esa o‘ta aniqlikda grammatik tahlil qilinadi. Matnni tahlil qilish qismining asosiy vazifasi – kiritiluvchi matnni nutq hosil qilish qismiga muvofiq “mos bo‘linmas qismlar”ga ajratishdir. “Mos bo‘linmas qismlar” hosil qilish usuli nutq hosil qilish qismidan foydalangan holda tanlaniladi. Matnni tahlil qilish qismining ikkinchi vazifasi – so‘z va gapdagi talaffuzni aniqlashdir. Bunda ma‘lumot nutq hosil qilish qismiga u tushunadigan formatda yuboriladi. Matn tahlili qismining bunday vazifalari ko‘p jihatdan MNY tizimining sifat darajasini belgilab beradi. Nutq hosil qilish qismi ko‘proq nutqni hosil qilishga mas‘ul. Bu jarayon matn tahlili qismidan keladigan ma‘lumotni qabul qilish va chiquvchi nutqni hosil qilishdan iborat. Nutq hosil qilishning ikki xil usuli mavjud: asoslangan qoidalar asosida hosil qilish va difonlarni birlashtirish orqali hosil qilish. Foydalanilgan usulga muvofiq, bir qancha tizimosti jarayonlar bajariladi. Misol uchun tizim ishga tushishidan oldin ovoqli fayl hosil qilish uchun asosiy tovush birliklari ma‘lumotlar bazasidan foydalaniladi.

MNY tizimi ishlash jarayonining har bir qismiga muvofiq kompyuter uchun dastur tuziladi. Dasturchi tuzilishi kerak bo‘lgan dastur ko‘rinishini oldindan tasavvur eta olishi kerak. Ba‘zi topshiriqlar uchun bu oson, ammo, tabiiy tilni tahlil qilish juda katta qiyinchilikka olib kelishi mumkin. Ilgari tizimga foydalaniluvchi usullarni kiritish yo‘llarini aniqlash juda juda qiyin kechgan. Bunga sabab, o‘sha paytlarda dasturlashning klassik yondoshuvidan foydalanilgan. Shunga qaramasdan bu usullar odatda, ko‘pgina hollarda aniq natija bergan, ammo barcha hollarda emas. MNY tizimi tabiiy til matnlari bilan ishaydi, shu sababli MNY tizimi ham shu kabi muammolarga uchraydi.

O‘sha muammolardan biri-talaffuz qilishdir. Agar til fonetik bo‘lmasa, u holda MNY tizimi talaffuz bilan ishlay olmasligi mumkin. Biror bir tilning barcha so‘zlarining talaffuzini yozish bu bir yechimi, ammo, bu xotiradan ancha joy talab qiladi. Yechimning yana biri-talaffuzga oid bir qancha asosiy qoidalarni ishlab chiqish va uni kiritiluvchi so‘zlarga qo‘llashdir. Xotira bobida u yaxshiroq yechim va juda yaxshi lingvistik tadqiqot, biroq shunday bo‘lsa ham ba‘zi hollarda xatolikka yo‘l qo‘ymaslik, oldindan bu qoidalarni har bir so‘z uchun qo‘llash imkoniyati yo‘q. Muammoning yana biri-talaffuzdagi noaniqlik; ya‘ni bunda bitta so‘z uchun bir necha turdagi talaffuzlar to‘g‘ri kelib qolishi mumkin va matnni qayta ishlash qismida ulardan biri qabul qilinadi. Shuningdek matnni qayta ishlash qismi ma‘lum miqdorda qisqartirishlar bilan ham ishlaydi. Kundalik hayotga har bir yangi qisqartirishni kiritmay turib barcha qisqartirishlar bilan ishlovchi tizimni yaratish juda mushkul. Bundan tashqari ikki xil ma‘no beruvchi qisqartirishlar bo‘lishi mumkin. Misol uchun, MNY tizimi “bb” qisqartmasini “bilib” yoki “bo‘lib” ko‘rinishida talaffuz qilinishini hal etishi kerak. MNY tizimida yana bir qiyin masala

bu raqamlarni o‘qishdir. Tizim birinchi navbatda u o‘zi qanday raqamligini va uni o‘qishni qanday muvofiqlantirilishini tushunishi kerak. Normal raqamlarni o‘qish telefon raqamlarini o‘qishdan boshqacharoq. Biron ishlab chiqarish korxonasi tamxa seriya raqamini o‘qish boshqacha ko‘rinishda bo‘ladi. Misol uchun “Nokia 8850” ni “sakkiz ming sakkiz yuz ellik” emas, “Nokia sakson sakkiz, ellik” deb o‘qishi kerak.

Talaffuzni ishlab chiqishning eng qiyin masalalaridan biri – bu bir xil ko‘rinishdagi vaziyatda farqlar bo‘lishi mumkinligidir. Quyidagi ikki holatni ko‘rib chiqamiz:

-kim ketishni xohlaydi? –Men ketishni xohlayman;

-siz nima qilishni xohlaysiz? - Men ketishni xohlayman.

Bu yerda birinchi misolda “Men” so‘ziga, ikkinchi misolda esa, “ketishni” so‘ziga alohida urg‘u beriladi. Matnni qayta ishlash tizimi bunday vaziyatlarni tushuna olishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Allen J., Hunnicutt S., Klatt D. *From Text to Speech: The MITalk System*. Cambridge University Press, Inc.
2. Taylor P. – “Text-To-Speech-Synthesis”, University of Cambridge, 2007.
3. B.Bahriddinova, “Hozirgi o‘zbek tili fonetika-fonologiyasi” – ma’ruzalar matni, Qarshi Davlat Universiteti, 2007-y.
4. Б. М. Лобанов, Л. И. Цирульник «Компьютерный синтез и клонирование речи». – Минск, «Белорусская Наука», 2008. – 316 стр.
5. Джеймс Л. Фланаган. Анализ, синтез и восприятие речи. – М., Связь, 1968. – 394 с.
6. В. Н. Сорокин. Синтез речи. – Наука, 1992.

NUTQ SINTEZATORLARI AVLODLARI

F. A. Axmedov, D. Q. Kamolov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Nutqni sintez qilish – bu biror bir matnni qabul qilib olib, chiqishda ovozli nutq hosil qilib beruvchi texnologiyadir. Ingliz tilida bu tushuncha “Text-To-Speech” (Matndan nutqqa o‘tkazish tizimi, (TTS)) deb yuritiladi. Hosil qilinuvchi nutq avvaldan yozib olingan inson nutqining turlicha qoidalar asosida olingan qisman bo‘laklari hisoblanadi.

Birinchi avlod sintezatorlari. Mazkur avlod sintezatorlarining aksariyati nutq sintez qilishning ko‘pgina zarur xususiyatlarini avtomatik ravishda hisoblash imkoniyatlariga ega emas edilar. Shuning uchun ham bu sintezatorlar ixtiyoriy matndan nutq sintez qila olmagan.


Qo‘llanilish uslublariga ko‘ra, birinchi avlod sintezatorlari quyidagi turlarga ajratilgan:

- akustik sintezatorlar;
- artikulyatsion sintezatorlar.

Artikulyatsion sintezlash o‘zining inson nutqini shakllantirish jarayonini modellashtirish orqali sintezlangan nutq olish g‘oyasiga ega bo‘lgan. Bunda

artikulyatsiyalar, nutq trakti shakllari, ovoz tizimining rezonans xususiyatlari va shu kabi boshqa ma'lumotlar qo'llanilgan.

Artikulyatsion sintezdagi ko'pgina yondashuvlar – inson nutqida, uning yuzidagi audiovizual sintez sohasi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu bog'liqlik nutqda ishtirok etgan yuz va boshqa mushaklar harakatini modellashtirishga yo'naltirishga oid yondashuvlarni jiddiy o'rganib chiqishni talab etadi. Hozirgi zamonaviy sintezatorlarning aksariyati yuqori sifatli nutqni generatsiyalash imkonini beruvchi, tavsiya etilgan yondashuvlardan foydalanmaydigan tizimlardir. Ammo artikulyatsion sintez artikulyatsion fonetika va nutq fiziologiyasi sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarda dolzarbligini saqlab qolgan.



1-rasm. Matndan artikulyar nutq olish sintezatori sxemasi

Formant sintezlash artikulyar sintezlashdan farqli ravishda, fiziologik jarayonlarni emas, ularning natijasi bo'lgan nutq tebranishlarining akustik xususiyatlarini modellashtiradi. Bu metod yetarli darajada muloqot nutqini sintezlash va shu bilan bir qatorda, nutq signalining qisqacha xususiyatlarini ham bilish imkonini beradi.

Formant nutqli akustik tizimlarning chastotali rezonans sifatida (ya'ni uzatish funksiyasining qutblariga mos holda) taqdim etiladi. Formant chastotasi, kengligi va boshqa parametrlari tizimning akustik xususiyatlari orqali aniqlanadi.

Formantlar chastotasi (muhim parametr) nutq traktining geometrik konfiguratsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Nutq jarayonida nutq traktiga bog'liq ravishda, formant chastotalar ham o'zgaradi. Yetarli bo'lish shartiga ko'ra, va nutq sintez qilish uchun, odatda, 200-2000 Gs oraliqda joylashgan ikkita yoki to'rtta formant chastotasi kerak bo'ladi.

Chiziqli old aytish metodi chiziqli old aytish koeffitsienti (ChOAK) deb ataluvchi to'g'ridan-to'g'ri ovoz traktini uzatish funksiyasi parametrlaridan foydalanadi.

ChOAK-sintezator quyidagi vaqt bo'yicha o'zgaruvchi parametrlarni ishlatadi:

- o'rtacha tovush balandligi;
- asosiy ton davomiyligi;
- tovush-shovqin belgisi;

- chiziqli old aytish koeffitsientining oldindan aniqlanganlari soni.

Foydalaniluvchi koeffitsientlar sonining qanchalik aniqlik bilan hisoblanishi va tebranish manbaasining qanchalik sifatli modellashtirilishi – sintezlanuvchi nutq sifatini belgilaydi.

Ikkinchi avlod sintezatorlari. Yigirmanchi asr o‘rtalariga kelib, kompyuter texnikalarining taraqqiy topishi avtomatik nutq sintez qilish tizimini yaratuvchilarga avvaldan ma’lum bo‘lmagan, berilgan matndan nutq hosil qilishdek anchagina keng qamrovli masalalarni yechish lozimligini ko‘rsatib qo‘ydi. O‘sha davrdan boshlab TTS lar o‘z taraqqiyot davrini boshladi.

Ideal holda, bu sintezatorlar ixtiyoriy murakkablikdagi matnlarni o‘qib, inson nutqini imitatsiyalab sintezlashi lozim edi. Natijada TTS sintezatorlar akustik protsessor va nutq signalini generatsiyalash texnologiyalaridan mustaqil ravishda ishlaydigan *lingvistik ishlov berish bloki* ni qo‘shdi.

Uchinchi avlod sintezatorlari. Nutq sintezatorlarining uchinchi avlodi quyidagi ikkita texnologiya bilan taqdim etildi:

1) Yashirin Markov modeli (HMM – Hidden Markov Models) asosida sintezlash;

2) Qismni belgilab sintezlash (Unit Selection).

Bu texnologiyaning umumiy xususiyatlari – sintezlash jarayonida katta hajmli nutq ma’lumotlaridan foydalanishi va yuqori sifatli tabiiy nutqni sintezlashidir.

Qismni belgilab sintezlash. Hozirgi kunda, Unit Selection tabiiy tilga anchayin yaqin nutq sintezlashni ta’minlovchi metod sifatida, nisbatan ko‘proq qo‘llanilmoqda.

Belgilab sintezlash – bu konkatenativ sintezlash metodidan boshqacha ko‘rinishga ega. Chunki u nutq signalini hosil qilishda avvaldan yozib olingan insonning tabiiy nutqidan olingan qismlardan foydalanadi.

Juda katta bo‘lmagan so‘zlar majmuasidan olingan, alohida, maxsus tayyorlangan ovozi birikmalardan foydalanuvchi allofonli yoki difonli kompilyativ sintez qilish metodlaridan farqli ravishda, belgilab sintezlash metodi mumkin bo‘lgan barcha variantlar ichidan eng mos keluvchi qismni ajratib oladi va buning uchun tabiiy nutqning katta ko‘lamidan foydalanadi. Bu metodni qo‘llash uchun, avvaldan, bir necha o‘n soatlik ovozi nutqni yozib olish va unga zaruriy ishlovlar berish kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Allen J., Hunnicutt S., Klatt D. *From Text to Speech: The MITalk System*. Cambridge University Press, Inc.
2. Taylor P. – “Text-To-Speech-Synthesis”, University of Cambridge, 2007.
3. B.Bahriddinova, “Hozirgi o‘zbek tili fonetika-fonologiyasi” – ma’ruzalar matni, Qarshi Davlat Universiteti, 2007-y.
4. Б. М. Лобанов, Л. И. Цирульник «Компьютерный синтез и клонирование речи». – Минск, «Белорусская Наука», 2008. – 316 стр.
5. Джеймс Л. Фланаган. Анализ, синтез и восприятие речи. – М., СВЯЗЬ, 1968. – 394 с.
6. В. Н. Сорокин. Синтез речи. – Наука, 1992.

“DEEP LEARNING” AFZALLIKLARI - ISHLAB CHIQRISH SOHA MUTAXASISI NIGOHIDA

S. K. Kurbanov, U. B. Nuriddinov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

“Deep learning” mashina (kompyuter) o’rganish tizimlarida foydalaniladigan kichik maydon bo’lib, u sun’iy intellekt algoritmlariga asoslangan holda faoliyat ko’rsatadi. “Deep learning” obyektini aniqlash va tanib olish, hisoblab borish, ma’lumotlarni qidirish va saralash kabi masalalarda foydalaniladi. Mazkur ma’ruzada “deep learning” va uning afzalliklari to’g’risida ishlab chiqarish soha vakili tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar ko’rib chiqilgan.

Dunyoga mashhur Google kompaniyasi Ilmiy izlanish olib boruvchi laboratoriyasida Google ning ko’plab xizmatlarini tashkil etishda aynan “Deep learning” dan keng foydalanib kelinmoqda. Ushbu laboratoriya yetakchi izlanuvchi mutaxasisi Andrew Yan-Tak Ng 2013 yilda bo’lib o’tgan “Deep Learning, Self-taught Learning and Unsupervised Feature Learning” nomli konferensiyada “deep learning” haqida fikr bildirar ekan, jumladan shunday deydi:

“Miya simulatsiyasidan foydalangan holda:

- Aniqlash algoritmlarini yaxshiroq va foydalanish uchun osonroq tayyorlash;


- Mashina o’rganish va sun’iy intellekt sohasida tub o’zgarishlarni amalga oshirish mumkin.

Sun’iy intellekt sohasini yanada rivojlantirish yo’lida bu jarayon bizning eng katta qadamimiz bo’lishiga ishonaman.”

Keyinroq ushbu mutaxasis o’z g’oyalarini o’z izohlari bilan yanada mustahkamladi. Uning fikriga ko’ra “deep learning” ning asosi shundaki, biz hozirda katta neyron tarmoqlarini o’rganish uchun etarlicha tezkor kompyuterlar va ma’lumotlarga egamiz. “Extract Conference 2015” da Andrew o’zining “What data scientists should know about deep learning“ nomli ma’ruzasida shunday deydi: “Hozirgi zamonda bizda juda katta neyron tarmoqlari bor va biz bir vaqtning o’zida juda katta miqdordagi ma’lumotlarga qisqa vaqt ichida ega bo’lishimiz mumkin.”

Andrew shuningdek, bu jarayon hammasi miqdorga bo’g’liqligi muhim jihat deb izoh bergan. Chunki, ma’lumotlarni saralash va o’rganish jarayonida “deep learning” odatdagi neyron tarmoqlari usullariga qaraganda ko’proq ma’lumotlar bilan ishlashni tashkil etadi. Katta neyron tarmoqlarini qurishda va ularni ko’proq ma’lumotlarga o’rganishda ularning ishlashi o’sishda davom etmoqda va bu jarayon to’xtamaydi. Ayna shu jihat bilan “deep learning” boshqa neyron tarmoqlari usullaridan farq qiladi. Andrew ushbu fikrini quyidagi rasm bilan izohlagan:

Deep learning afzalligi



1-rasm. Ma'lumotlarni o'rganishda vaqt o'tishi bilan miqdorning o'sish jarayoni

Andrew “deep learning” haqida fikrlarini yakunlar ekan, neyron tarmoqlarining ushbu usulini foydali jihatlarini yanada yaxshiroq tushunish uchun bu usulni amaliyotda qo'llash lozimligini izohlaydi. Jumladan, 2015-yilgi “Extract Conference” da o'z nutqida mutaxassis shunday dedi:

“Deep learning ning zamonaviy qiymati nazorat qilingan o'rganish yoki nazoratga olingan ma'lumotlardan o'rganish hisoblanadi”.

Ya'ni mutaxassisning ushbu fikrini izohlayigan bo'lsak, “deep learning” usuli asosida saralangan ma'lumotlar qiymati juda yuqoridir, ushbu usul yordamida o'rganilgan va saralangan ma'lumotlar o'zining aniqlik darajasiga ko'ra yuqori o'rinda turadi. Sababi, ushbu usuldan foydalanganda har bir ma'lumot bir necha qatlamlar asosida o'rganiladi, solishtiriladi va tekshiriladi.

Biroz avvalroq ya'ni 2014 yilda Stenford Universitetida “Deep Learning” deb nomlangan ma'ruzasida shunday ajoyib fikr bildiradi:

“Deep learning asosida o'rganilgan ma'lumotlar aqldan ozdiradigan darajada aniqlikka egadir”.

Mutaxassis ushbu fikr asosida “deep learning” usulidan foydalanish orqali ma'lumotlarni aniqlash, saralash va tanlash ba'zan inson miyasidan ko'ra aniqroq natijalar berishi ham mumkindir. Bu jihat ayniqsa, juda katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlashda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Andrew Yan-Tak Ng. “What is deep learning”. – "Deep Learning, Self-taught Learning and Unsupervised Feature Learning", 2013.
2. Andrew Yan-Tak Ng. “What data scientists should know about deep learning“ – “Extract Conference”, 2015.
3. Andrew Yan-Tak Ng. “Deep Learning” – Stenford Universiteti, 2014.
4. <https://machinelearningmastery.com/what-is-deep-learning/>

YUZ TASVIRINI TANIB OLIISH JARAYONIDA UNING XARAKTERISTIK BELGILARINI AJRATIB OLIISH

G. R. Mirzaeva, B. X. Rustamov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Ma'lumki, yuz tasviriga asoslangan shaxsiy identifikatsiyalash tizimlarini loyihalashda bir qator vazifalarni, jumladan, kiruvchi tasvirni tahlil qilish, yuzni aniqlab olish, yuzni normallashtirish, yuz alomatlarini hisoblash, shuningdek tanib olish [1] bilan bog'liq vazifalarni hal qilish turadi. Bunday muammolarni echish uchun turli usullar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi vaqt sarf-xarajatlarini hamda echimlarning barqarorligini baholash bo'yicha kam o'rganilgan. Faqat shunday baholash mezonlari yordamida yuz tasviri orqali shaxsni biometrik identifikatsiya qilish tizimini yaratish uchun eng qulay bo'lgan metodlarni tanlash mumkin. Ular asosan uchta tizim osti tizimlaridan iborat: 1) tasvirdagi yuzni avtomatik ajratib olish; 2) yuz tasvirining asosiy xususiyatlarini belgilab olish; 3) tanib olish.

Ushbu tizim osti tizimlarni batafsilroq ko'rib chiqamiz.

1. Tasvirdagi yuzni avtomatik ajratib olish tizim osti tizimi. Rasmdagi yuz va uning asosiy elementlari (ko'z, burun, og'iz va boshqalar) joylashuvini aniqlash uchun turli yondashuvlar va algoritmlar ishlab chiqilgan [1-3]. Biroq, bugungi kunda shaxsni uning fotoportreti asosida tanib olish tizimlarini ishlab chiqaruvchilarni talabini qondiradigan aniq va tezkor optimal yechim topilmagan. Rangli tasvirlarda yuz qismlarini ajratishning bir qator algoritmlari taklif etilgan. U quyidagi bosqichlardan iborat: yuz sohasini aniqlash; ko'z joylashuvini aniqlash; og'iz va burun joylashuvini aniqlash.

2. Yuz tasvirining asosiy xususiyatlarini belgilab olish tizim osti tizimi. Ushbu tizim osti tizimning ishlashi tavsiflangan ob'ektning quyidagi matematik o'zgarishlariga asoslangan [3, 4]: kosinus, veyvlet, Furye, asosiy komponentlar, momentlar va boshqa asosiy xususiyatlar (birinchi asosiy komponentlar, chastota o'tkazish koeffitsientlari va boshqalar) ajratilishi natijasida yuzning asosiy alomatlarini keyinchalik identifikatsiyalash uchun foydalaniladi. Ushbu usullar orasidan asosiy komponentlar usulini ajratish mumkin. [5, 6] ga binoan, ushbu uslubning asosiy g'oyasi shundaki, har bir shaxsning yuz tasviri umumiy konfiguratsiyasi bilan bir-biriga o'xshash bo'lsa ham, tasvir maydonida erkin ravishda taqsimlanmagan. Shuning uchun, yuz tasvirini asl o'lchamlarga nisbatan kichikroq o'lchamlarda keltirish mumkin. Ushbu usulning asosiy maqsadi, yangi o'lchamda yuz tasvirlarni eng yaxshi taqsimlab beruvchi vektorlarni aniqlashdir.

Tasavvur qilaylik, I_1, I_2, \dots, I_m yuz tasvirlarining m to'plami mavjud. Asosiy komponentlar usuli yordamida tasvirlarning asosiy xususiyatlarini aniqlash algoritmi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: 1) E tasvirning o'rtachasi hisoblanadi; 2) E va I_u vektorlarining farqlari aniqlanadi; 3) korrelyatsiya matritsasi hisoblanadi; 4) R matritsasining λ_u xarakteristik sonlari va shunga mos f_u vektorlari aniqlanadi; 5) ozayib borish ketma-ketligida xususiy qiymatlar tartiblanadi; 6)

$\sum_{i=1}^k \lambda_i / \sum_{i=1}^n \lambda_i$ nisbatning tahliliga binoan asosiy komponentlarning kerakli soni (k) topiladi.

3. *Tanib olish tizim osti tizimi.* Ushbu tizim osti tizimida noma'lum tasvirning asosiy komponentlari ma'lumotlar bazasida saqlanadigan barcha tasvirlarning asosiy komponentlari bilan taqqoslash orqali tanib olish jarayoni amalga oshiriladi. Eng oddiy holatda, Evklid oralig'i $d(I, I_k)$ dan foydalanish mumkin. Tasvirni yaqinligini baholash uchun Mahalanobis metrikasi yoki Gauss taqsimotidan foydalanish tanib olishni yanada yaxshilaydi. Yuqori ishonchlik asosiy komponentlar tahlilini yuz tasvirining alohida qismlariga qo'shimcha qo'llash orqali erishiladi.

Keltirilgan ma'lumotlar va algoritmlar shaxsni yuz tasviri bo'yicha tanib olish tizimlarini yaratish uchun xizmat qiladi. Taklif etilgan yondoshuvlar va ular asosida yaratiladigan dasturiy tizim yuz tasvirini kriminalistik tekshirish, kirishga ruxsat tizimlarida, videokonferensiyalarda hamda turli shaxs identifikatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarda qo'llanilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Самаль Д.И., Старовойтов В.В. Подходы и методы распознавания людей по фотопортретам. - Минск, 1998. - 54с.
2. Раджабов С.С., Мирзаева Г.Р. Предварительная обработка изображения лица при идентификации личности человека // Южно-Сибирский научный вестник. Бийск – 2018. № 2 (22). – С.50-55.
3. Кухарев Г.А. Биометрические системы. – СПб.: Политехника, 2001. – 240 с.
4. Кухарев Г.А. и др. Методы обработки и распознавания изображений лиц в задачах биометрии. – СПб.: Политехника, 2013. – 388 с.
5. Фазылов Ш.Х. и др. Решение задачи распознавания лица // Проблемы информатики и энергетики, 2003. №3, С.49-55.
6. Turk M., Pentland A. Face Recognition Using Eigenfaces // Proceedings Computer Vision and Pattern Recognition, 1991. - Pp. 586-591.

ЎХШАШЛИКНИ БАҲОЛАШ АСОСИДА ТАНИБ ОЛИШ УСУЛЛАРИ

М. Т. Тўхтасинов, А. Ш. Мухаммадиев, Б. Х. Рустамов

Наманган муҳандислик қурилиш институти

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети

Объектлар, хусусан, рақамли тасвирдаги объектларнинг белгилари асосида уларни ўхшашлигини таққослаш масаласи “Образларни таниб олиш” илмий йўналишининг муҳим йўналишларидан ҳисобланади. Ҳозирги кунга қадар ушбу йўналишда кўплаб ишлар қилинган [1-4]. Ўз навбатида, олимлар томонидан таққослаш усуллари янада такомиллаштирилиб борилмоқда. Ушбу мақолада объектларнинг белгилар фазолари ўхшашлигини ўзаро таққослашнинг бир нечта усуллари келтирилган. Хусусан, биз томондан

Rekursiv signallarni moslashtirish jarayonlari, algoritmlari va ko‘p kanalli filtrlarni korrelyatsion xususiyatlariga moslash printsiplari ko‘rib chiqildi. Tavsiya etilgan adaptatsiya usuli filtrlarning tartibini va ularni moslashtirilgan ko‘rinishga olib keladi va optimal tizimning samaradorligiga yaqinroq bo‘lishga imkon beradi.

Analog texnologiyalarning nomutanosibligi passiv aralashuvlardan himoya vositalarini ishlab chiqishda va ularni rivojlanishga to‘sqinlik qildi. Raqamli signallarga ishlov berish va shovqinlarni bartaraf qilish uchun raqamli filtrga asoslanib suboptimal protsessorni qo‘llash imkonini berdi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish Doppler fazasiga passiv aralashishga moslashtirilgan chivinli filtrlarning yaratilishiga olib keldi. Passiv interferentsiya fonida radar signallarini qayta ishlashda, interferentsiyaning korrelyatsion xarakteristikalari, shuningdek ularning statsionar va statsionar bo‘lmaganligi sababli harakatdagi signallarni aniqlashning samaradorligiga sezilarli darajada to‘sqinlik qilmoqda. Interferentsiya parametrlarining apriori noaniqligini bartaraf etish moslashuvchan algoritmlarni va ishlov berish tizimlarini qurishga olib keladigan Bayesian yondashuv metodologiyasiga muvofiq, parazit parametrlariga va keyinchalik noma‘lum parametrlarni izchil hisob-kitoblar bilan [6] o‘zgartirishi bo‘yicha ishlov

berish algoritmlarini optimallashtirishga asoslangan. Passiv parazitlar fonida signallarga ishlov berish algoritmlarini optimallashtirish uchun quyidagi usullarda [4] keltirilgan. Signallarni moslashtirish uchun olingan natijalardan, noma'lum parazit parametrlarini baholashda (intervalli korrelyatsiya koeffitsientlari) va mos ulchamlarni qurishda algoritmlarni sintez qilish keraklidir [1-3].

Biz bu yerda bir chastotali $U_j = x_j + iy_j, j = \overline{1, N}$ signallarning bir-biri bilan qanday farqlanishini ko'rib chiqamiz. Gauss signalining interferentsiya statistikasi xususiyatlari, ularning R_c va R_n elementlarining korrelyatsiya matritsalarini bilan tavsiflanishi va ularning $R_{jk} = \rho_{jk} e^{i(j-k)\theta}$ elementlarini qaraymiz. Bu erda $\rho_{jk} = \rho[(j-k)T]$ - signalning korrelyatsiya koeffitsientlari (ρ_{jk}^c) yoki shovqin (ρ_{jk}^n), θ - signalning takrorlash davri T ($\theta_c = \psi$) yoki davrga mos kelgan interferentsiyasi ($\theta_n = \varphi$).

Signal manbaini uzluksiz va alohida tekshirish uchun tuzilmaviy diagrammasida an'anaviy "yarim chiziqli filtri - ko'p kanalli filtr" va yarim optimal tizimlarni qo'llaymiz, deb taxmin qilamiz. Berilgan buyruqlar m ning rekursiv bo'lmagan chastotali filtrining moslashuvi og'irlik koeffitsientlarining vektorini empirik tarzda aniqlashdan iborat.

$G = \{G_k\}, k = \overline{1, m}$ kiruvchi signallaridan aytilgan mezonlar asosida maqbullarini tanlash keraklidir. Gaussning kiruvch signallarini statistik baholash uchun ushbu mezonda signal-to-shovqin nisbatini yaxshilash samara beradi.

$\mu(\psi) = G^{T*} R_c G / G^{T*} (R_n + \lambda I) G$, bu erda $\lambda = \sigma_m^2 / \sigma_n^2$ - ichki shovqin va aralashuvning tarqalish nisbati;

$I = [\delta_{jk}]$ - hisobga olish matrisasi; δ_{jk} - Kronecker belgisi.

Signalning korrelyatsion xarakteristikalarini hisobga olib va chastataning o'zgarish intervali $(-\pi, \pi)$ ni hisobga olsak, quyidagiga ega bulamiz:

$$\mu = \frac{1}{2\pi} \int_{-\pi}^{\pi} \mu(\psi) d\psi = G^T * \frac{\widetilde{R}_c G}{G^T} * (R_n + \lambda I) G,$$

bu erda \widetilde{R}_c - transformatsiyalangan signalning korrelyatsion matrisasi bo'lib, ularning elementlari ikkilik xususiy funksiyasini hisobga olgan holda, hisob-kitob matritsasiga mos keladigan elementlarini inobatga olsak $\widetilde{R}_{jk}^{(c)} = \rho_{jk}^{(c)} \text{sinc}[(j-k)\pi]$, nihoyat biz quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\mu = \frac{G^{T*} G}{G^{T*} (R_n + \lambda I) G} = [((G^T (T^*) R_n G) / (G^T (T^*) G)) + \lambda]^{-1} \quad (1)$$

Signallarni moslashtirish jarayonida $\mu_{max} \rightarrow \max_G \mu$ ni amalga oshiradigan G vektorini hosil qilish kerak. Matritslarning xarakteristik soni ekstremal xususiyatlaridan, (1) ifodada Rayleigh munosabatlarining minimal xarakteristik tenglama $(R_n - \alpha I) = 0$ ning ildizi sifatida $\mu_{max} = (\alpha_{min} + \lambda)^{-1}$ ni olish mumkin. G vector λ ga bog'liq emas va tenglamadan α_{min} uchun mos keladigan matritsaning vektori R_n bo'ladi

$$(R_n - \alpha_{min} I) G = 0 \quad (2)$$

Bayeziy yondashuviga muvofiq, biz bu (2) tenglamadan foydalansak quyidagi vektorlarni hosil qilamiz $\widetilde{R}_n = [\widetilde{R}_{jk}^n] = [\rho_{jk}^{(n)} e^{i(j-k)\varphi}]$, $\widetilde{G} = \{\widetilde{G}_k\} = \{\widetilde{g}_k e^{ik\varphi}\}$, $k =$

$\overline{0, m}$. Koeffitsientlari \tilde{g}_k , $\tilde{g}_0 = g_0 = 1$ shartlarni inobatga olsak $\tilde{\rho}_{jk} = \rho_{jk}^{(\Pi)}$ bo'ladi va α_{min} minimum qiymatga erishamiz. Xususan, $m = 1$ uchun $\tilde{g}_1 = g_1 = -1$ bo'ladi. $\tilde{g}_k = (-1)^m \tilde{g}_{m-k}$ koeffitsientlarining simmetriya xususiyatini hisobga olgan holda adaptiv filtrining (AF) boshqa buyurtmalari uchun adaptiv algoritmlarning o'ziga xos turini topamiz:

$$m = 2, \quad g_0 = g_2 = 1, \quad \tilde{g}_1 = -\frac{2\tilde{\rho}_{12}}{1 - \tilde{\alpha}_{min}},$$

bu yerda $\tilde{\alpha}_{min} = 1 + \frac{\tilde{\rho}_{13}}{2} \left(1 - \sqrt{1 + \left(\frac{\tilde{\rho}_{12}}{\tilde{\rho}_{13}} \right)^2} \right)^2$ va $m = 3, \quad g_0 = -g_3 = 1,$

bo'lganda $\tilde{g}_1 = -\tilde{g}_2 - \left(1 + \frac{\tilde{\rho}_{13} - \tilde{\rho}_{14}}{1 - \tilde{\rho}_{13} - \tilde{\alpha}_{min}} \right) \cong - \left(1 + \frac{\tilde{\rho}_{13} - \tilde{\rho}_{14}}{1 - \tilde{\rho}_{13}} \right),$

$\tilde{\alpha}_{min}$ ning $\rho_{jj} = 1$ ga mos qiymatini inobatga olsak, amalda shovqinlarni pasaytirish samaradorligiga ta'sir qilmaydi.

Qo'yilgan talablarni soddalashtirish orqali (1) ifodadan o'zgartirilgan mezonni olamiz

$$\gamma = G^T R_{\Pi} G \quad (3)$$

$g_0 = 1$ chegaraviy qiymani hisobga olsak, $\gamma_{min} \rightarrow \min \gamma$ holatiga mos keladigan koeffitsientlar tenglamadan aniqlanadi $\frac{\partial(G^T R_{\Pi} G)}{\partial g_k} = 0.$

Adaptiv algoritmlar uchun $\tilde{\rho}_{1k}$ qiymatini hisoblash usuli yordamida quyidagilarga erishamiz:

$$m = 1, \quad g_0 = 1, \quad \tilde{g}_1 = \tilde{\rho}_{12}; \quad m = 2, \quad g_0 = g_2 = 1, \quad \tilde{g}_1 = -2\tilde{\rho}_{12};$$

$$m = 3, \quad g_0 = -g_3 = 1, \quad \tilde{g}_1 = -\tilde{g}_2 = -\frac{\tilde{\rho}_{12} - \tilde{\rho}_{13}}{1 - \tilde{\rho}_{12}}.$$

Yo'qoridagi (1) va (3) algoritmlarning samaradorligini solishtiradigan bo'lsak, taxminiy algoritmlar aniq algoritmlardan sezilarli darajada past emas va ularning amalga oshirilishi uchun taxminan korrelyatsiya koeffitsiyentlarining soni $m - 1$, ya'ni bitta aniq qiymatdan kamroq bo'lsa, taxminiy algoritmlarga afzallik beriladi. Ko'rib chiqilgan adaptive feltirlashning raqamli shaklda amalga oshirilishi murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu adaptive feltirlash tizimini sezilarli darajada murakkablashtiradi va real vaqt rejimida arifmetik ishlov berish operatsiyalari tezligini oshirish uchun talablarni oshiradi. Ko'rib chiqilgan moslashish algoritmlari orqali signallar aralashuvni loyihalashni optimallashtirishga imkon beradi. Ko'rsatkichlar va ko'p kanalli filtrlarning kombinatsiyasiga asoslanib, koordinatali signallarni qayta ishlash tizimlarini moslashtirish va tartibga solish. Passiv signallarni interferentsiyaning interperiod korrelyatsiya koeffitsientlarini baholash uchun sintezlangan algoritm proyektor va ko'p kanalli filtrlarni moslashtirish uchun ishlatiladigan asimptotik jihatdan samarali va izchil maksimal ehtimollik kiritishlarini olish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Radar Handbook / Ed. by M. I. Skolnik. – 3rd ed. – McGraw–Hill, 2008. – 1352 p.
2. Рабинер, Л. Теория и применение цифровой обработки сигналов / Л. Рабинер, Б. Гоулд. – М.: Изд-во «Мир», 1978. – 848 с.

3. Кузьмин, С. З. Цифровая радиолокация. Введение в теорию / С.З. Кузьмин. – Киев: КВиЦ, 2000. – 428 с.
4. Skolnik, M. Introduction to Radar System / M. Skolnik. – 3rd ed. – New York: McGraw-Hill, 2001. – 862 p.
5. Barton, D. Radar System Analysis and Modeling / D. Barton. – Norwood, MA: Artech House, 2005. – 534 p.
6. Barton, D. Radar Equation for Modern Radar / D. Barton. – MA: Artech House, 2013. – 428 p.

НУТҚ СИГНАЛЛАРИ АСОСИДА ШАХСНИ ТАНИБ ОЛИШ ДАСТУРИ

*Н. С. Маматов, Ю. Ш. Юлдошев, Ш. Ш. Абдуллаев, П. Б. Нуримов
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети ҳузуридаги ахборот коммуникация технологиялари илмий-
инновацион маркази*

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети Нукус филиали*

Сўнгги йилларда шахсни нутқи асосида таниб олиш тизимлари жадал ривожланмоқда. Ушбу тизимларнинг ривожланишига асосий сабаб биометрик кидирув, бошқарув, верификациялаш, хавфсизлик, банк ва электрон тижорат каби соҳалардаги талабнинг ошишидир.

Шахсни нутқи асосида таниб олиш тизимларининг бошқа биометрик таниб олиш тизимларидан муҳим афзалликларидан бири унинг кам харажатлилиги ҳисобланади [1]. Бундан ташқари, замонавий шахсни нутқи асосида таниб олиш тизимлари ишончлилиқ даражаси бўйича баъзи таниб олиш тизимларидан қолишмайди ва айримларидан эса юқори ҳисобланади. Масалан, шахсни тасвири асосида таниб олиш тизимларига нисбатан юқоридир [2].

Нутқ таниб олиш тизимларининг ривожланиши инсон нутқини автоматик таниб олиш билан бирга уни синтезловчи интеллектуал тизимларнинг яратилишига ҳам олиб келди. Шахс нутқининг ягоналиги бошқа биометрик тизимлар каби 100% ишончли таниб олишни кафолатлай олмайди.

Нутқи асосида таниб олиш тизимларида юзага келадиган хатоликларнинг асосий манбаи сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

- атроф-муҳитдаги ҳодиса ва жараёнлар (ҳалақитлар, реверберация ва бошқалар);
- нутқнинг ўзига хослиги (давомийлиги, тоналлиги, овоз даражаси ва бошқалар);
- алоқа каналининг сифати (узатиш канали ва ёзиш ускуналаридаги ўзгаришлар, нутқ сигнални кодлашдаги хатоликлар ва бошқалар); [2-5].

Шахсни нутқи асосида таниб олиш кўплаб масалаларни ечишни талаб қилади:

- нутқ сигналнинг тўхташ ва турли ҳалақитли қисмларини ташлаб юбориш орқали воқал қисмини ажратиб олиш;

- суҳандонлар нутқларини ажратиш (диаризациялаш масаласи);
- суҳандон нутқини характерловчи белгиларини аниқлаш.

Суҳандонни таниб олиш ва верификациялаш технологияси қуйидаги масалаларни ечиш имконини беради:


- матн ва тилга боғлиқ бўлмаган ҳолда шахсни таниб олиш;
- аудио файллар орасидан қидирилаётган шахс нутқи мавжуд бўлган файлларни аниқлаш;
- аудио маълумотлардаги шахсларни аниқлаш;
- оператор ишини автоматлаштириш (масалан, кириш-чиқишни назорат қилишда);
- катта ҳажмдаги нутқ ахборотларини қайта ишлаш [12].

Ҳар бир шахснинг нутқ органлари ўзига хосдир. Бу эса унинг идивидуал нутқ белгиларига эга эканлигини кафолатлайди. Шунинг учун инсонлар турли шахслар овозини фарқлай олади. Бироқ компьютерлар орқали шахсни нутқи асосида таниб олиш масаласини ҳал этиш ўта мураккаб масалалардан биридир. Мазкур масала бир неча ўн йиллардан бери тадқиқ этиб келинмоқда ва ҳозирги кунда ҳам тадқиқотлар давом этмоқда. Сўнгги йилларда нутқли ахборотни таниб олиш сифати сезиларли даражада ошди. Бироқ, шахсни ихтиёрий муҳитдаги аудио ёзуви асосида автоматик таниб олиш масаласи долзарблигича қолмоқда. Шунинг учун ушбу соҳада мавжуд алгоритмларни тадқиқ қилиш ҳамда янги усул ва алгоритмларни ишлаб чиқиш масаласи долзарбдир. Шахсни нутқи бўйича таниб олиш масаласи кирувчи сигнал оқимидан шахс нутқини ажратиб олиш, таснифлаш ва мос равишда жавоб қайтаришдан иборат. Мазкур масала одатда иккита кичик таниб олиш ва верификация масалаларга ажратилади [1].


Шахсни нутқи асосида таниб олишнинг мавжуд усуллари кўриб чиқилди ва улар кирувчи нутқ сигналдан белгиларни ажратиб олиш ҳамда олинган белгилар асосида суҳандон моделини қуришда қўлланилди. Бунда кирувчи нутқ сигнали асосида тизимда рўйхатга олинган суҳандонни аниқлаш жараёни ҳар бир усулда қайдайдир мезон бўйича сақлаб қўйилган моделлардан энг яқин моделни аниқлаш амалга оширилди.

Таниб олиш тизими Java дастурлаш тилида ёзилган. Чунки Java тилида кўплаб кутубхоналарнинг мавжудлиги ва масалани ҳал қилишда катта маълумотлар массивлари билан юқори тезликда ишлаш талаб этмайди. Белгиларни ажратиш масаласини ҳал этишда эса Sphinx4 нутқ таниб олиш кутубхонасидан фойдаланилган. Sphinx4 – очик кодли мослашувчан кутубхона бўлиб, нутқ таниб олиш соҳасида тадқиқотлар олиб бориш учун яратилган. Машинани ўқитиш алгоритмлари кутубхонаси сифатида Weka кутубхонасидан фойдаланилди. Ушбу кутубхона катта миқдордаги машинани ўқитиш соҳасидаги кўплаб алгоритмларнинг реализациясини ўз ичига олади. Ушбу ишда фойдаланилган K-means++ алгоритми ҳам бу кутубхонада мавжуд.

1 ва 2 – расмларда суҳандонни овоз бўйича идентификация қилиш тизимининг ўқитиш ва идентификация режимида ишлаш схемалари келтирилган.




1- расм. Ўқитиш режимида тизим ишлашининг умумий схемаси



2- расм. Идентификация режимида тизим ишлашининг умумий схемаси

3- расмда кирувчи нутқ сигналдан белгиларни ажратиб олиш жараёни тўлиқроқ кўрсатилган.



3-расм. Кирувчи нутқ сигналдан белгиларни ажратиб олиш

Дастурни ишлаб чиқиш учун MatLab дастурий муҳити танланган бўлиб, пакет таркибига товуш сигнали билан ишловчи тайёр кутубхоналар бириктирилган. Бундан ташқари MatLab таркибига Guide Builder муҳити ҳам таалуқли бўлиб, фойдаланувчи график интерфейсини яратиш имконини беради. Нейрон тармоғини моделлаштириш учун Neural Networks пакети ва таснифлаш учун Гаус аралашма модели танланган. MatLab таркибига кирувчи Wavelet Toolbox пакети вейвлет алмаштиришларини амалга ошириш ва таҳлили учун жуда қулай ҳисобланади. Matlab нинг стандарт аудиони қувватловчи функцияси тизимда мавжуд ва товуш сигналини ёзишга имкон беради.

Шахсни таниб олиш масаласини ечиш учун дастлаб фойдаланувчи маълумотлар базаси асосида нейрон тармоқни ўқитишни амалга оширилади. Барча амаллар фойдаланувчи интерфейси орқали амалга оширилади. Бундан ташқари овоз ёзишни бошқариш, овозли файлни очиш ва сақлаш, уни эшитиш каби амаллар ҳам ҳамда нутқ сигналини график ифодалаш имконияти мавжуд.

Нутқ базасини шакллантириш учун 25 та одам жалб қилинган. Ҳар бир суҳандон 5 тадан калит сўзларни айтган. Бундан ташқари тестлашда овозни синтезлаш тизимларидан ёзиб олинган овозлар ҳам фойдаланилди. Масалани ҳал қилишда Google cloud Speech API ва Yandex SpeechKit тизимлари танланди. Шу билан таниб олиниши зарур овозлар сони 70 тага етказилди.

SpeechKit Cloud API — бу HTTP API бўлиб, илова яратувчилар учун Яндекс нутқ технологияларидан фойдаланиш имконини беради:

SpeechKit ёрдамида базани шакллантиришда 4 та аёл киши ва 8 та эркак овозидан фойдаланилди.

Speech API – COM технологиясига асосланган иловалар яратиш интерфейси бўлиб нутқ таниб олиш ва синтез қилишга йўналтирилган. COM технологияси Microsoft компаниясининг технологик стандарти бўлиб, ҳар бири бир нечта дастурларда фойдаланиш мумкин ўзаро ишловчи объект компоненталари асосида дастурий таъминот яратишга мўлжалланган.

Speech API дан 4 та эркак ва 4 та аёл кишининг овозини олишда фойдаланилди.

Суҳандонни овоз бўйича идентификация модули тестлашдан ўтказилди. Фарқни кузатиш мақсадида таниб олиш тизими суҳандонни овоз бўйича идентификация қилиш модулисиз ишлатиб кўрилди (1-жадвал).

1-жадвал. Таниб олиш тизимида модулнинг ишлаш сифатини баҳолаш

| Суҳандонлар сони | Тестлар сони | Идентификация модулисиз таниб олиш коэффициенти, % | идентификация модули билан таниб олиш коэффициенти, % |
|------------------|--------------|----------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|
| 4 | 20 | 97 | 100 |
| 15 | 100 | 79 | 98 |
| 25 | 200 | 66 | 92 |
| 40 | 350 | 64 | 89 |

Турли синфларга тегишли суҳандонлар овозлари билан тестлаш ўтказилди:

Биринчи синф – эркак овози.

иккинчи синф – аёл овози.

учинчи синф – бола овози.

Ўтказилган тестлардан кўриниб турибдики, суҳандонни овоз бўйича идентификация қилиш модулини нутқ таниб олиш тизими таркибида қўллаш суҳандонни тўғри идентификация қилиш фозини оширди. Овоз бўйича идентификация модули нутқ таниб олиш тизимидан ташқарида тестдан ўтказилди. Тест мақсади суҳандонларни классификациялаш сифатини аниқлаш.

Ўтказилган тестлардан шуни кўриш мумкинки, овоз бўйича идентификация модули суҳандон тегишли синфларни юқори аниқликда аниқлади.

Ҳозирги пайтда шахсни нутқи асосида таниб олиш имконини берувчи нутқ сигналларини таснифлашнинг кўплаб усуллари мавжуд ва уларнинг катта қисми ишлаб чиқиш босқичида ва ёпиқ ҳолда учрайди. Шунинг учун шахсни таниб олишнинг очиқ модулини ишлаб чиқиш талаб этилади. Таҳлил натижалари нейрон тармоғи узлуксиз кўзғатиш функциясидан фойдаланилган ҳолатда бу каби тармоқлар ўқитиш танланмасини умумлаштириш қобилиятига эгаллигини, таҳлил қилишга қулайлиги ва таснифлаш самарадорлиги юқори эканлигини ва таснифлаш масаласини ҳал этиш учун нейрон тармоғидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ эканлигини кўрсатди.

Таклиф этилган дастурий модул нутқ таниб олиш тизими ишини янада яхшилаш учун мўлжалланган. Ушбу модул ёрдамида тизим суҳандонларни уларнинг овози характерли белгилари асосида таниб олиши мумкин бўлиб, бу суҳандонни таниб олиш ишончилигини оширади. Ушбу модул билан биргаликда тизим ишончилиги 10-25 фоизга ошгани тестлаш натижасида кўринди.

Адабиётлар

1. <http://www.speechpro.ru/>. Нутқ технологиялари маркази.
2. Матвеев, Ю. Н. Технологии биометрической идентификации личности по голосу и другим модальностям // Вестник МГТУ им. Н. Э. Баумана. Электронное научно-техническое издание. 2012. № 3(3).
3. <http://vestnik.bmstu.ru/catalog/it/biometric/91.html/>
4. Капустин А. И., Симончик К. К. Система верификации дикторов по голосу «Цифровая обработка сигналов и ее применение». М., 2010. Т.1. с 207-210.
5. Обзор основных методов распознавания дикторов Е.А.Первушин. <http://cyberleninka.ru/article/n/obzor-osnovnyh-metodov-raspoznavaniya-diktorov.pdf>.
6. ru.wikipedia.org/wiki/Распознавание_по_голосу
7. Дьяконов, В. МАТЛАБ: Учебный курс // В. Дьяконов. Санкт-Петербург.: Питер, 2001. - 560 с.

СЎРОВЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТАЯНЧ ВЕКТОРЛАР МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҚЎЛЛАШ

Б. Б. Мўминов, У. Б. Бекмурадов

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети,*

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
Самарқанд филиали*

Ресурсларни синфлашга хос жуда катта ўлчамдаги масалаларда маълумотлар баъзан чизиқли бўлинишга имкон беради. Бироқ умумий ҳолатда бу тахмин бажарилмайди, бажарилганда ҳам барибир ноодатий ресурсларнинг кичик сонини эътиборга олмаган ҳолда маълумотларнинг асосий массивини ажратадиган қарорга устунликни бериш керак.


Агар D ўқув тўплам чизиқли бўлинадиган бўлмаса, унда одатда кенг ажратувчи ораликни куришда бир нечта хатоларга йўл қўйилади. Ҳар бир нотўғри синфланган намунага ораликка қўйилган

$$y_i(\vec{w}^T \vec{x} + b) \geq 1$$

шарт қанчалик кучли бузилишига боғлиқ. Бунинг учун масалага ўзгарувчилар (slack variables) ξ_1 киритилади. ξ_1 ўзгарувчининг нолли бўлмаган қиймати \vec{x} векторга ораликка бериладиган талабларни бузиш имконини беради, лекин бунинг учун катталиқка пропорционал хатолик (exsertion) берилади (1-расм).

Фиктив ўзгарувчиларга эга таянч вектор усулида оптималлаштириш масаласини шакллантириш қуйидаги кўринишга эга.

Масала: \vec{w} , b ва ξ_i параметрларни топиш керакки, қайсики $\frac{1}{2} \vec{w}^T \vec{w} + C \sum \xi_i$ функция минимумга эришади ва барча $\{(\vec{x}_i, y_i)\}$ лар учун $y_i(\vec{w}^T \vec{x}_i + b) \geq 1 - \xi_i$ тенгсизлик бажарилсин.



1-расм. Кенг оралик ва фиктив ўзгарувчига эга синфланиши

Оптималлаштирилган масала ечими келишувли (мослашувчан) характерга эга: у кенгликни таъминлаш учун кўчиришга тўғри келадиган оралик кенглиги ва нуқталар сони ўртасидаги мувозанатни ўрнатади. $\xi_1 > 0$ фиктив қийматни ўрнатиб, \vec{x} нуқта учун оралик кенглигини бирдан кичик

қилиш мумкин, лекин бунинг учун $C\xi_1$ хатоликга тўғри келади. ξ_1 катталиқ суммаси ўқитишда хатолар чегарасининг юқори нуқтасини аниқлайди. Юмшоқ оралиқли таянч векторлар усули (soft-margin SVM) оралиқ кенглиги ҳисобига ўқитишда хатолар сонини минималлаштиради. C параметр бошқарув параметрик деб аталади. У қайта ўқитишни бошқариш имконини беради: агар C параметр катта бўлса, унда геометрик оралиқни камайтириш ҳисобига маълумотларни эътиборга олмаслик мақсадга мувофиқ эмас; агар C параметр кичик бўлса, унда фиктив ўзгарувчилар ёрдамида баъзи нуқталарни осонлик билан ҳисобга олиш ва маълумотларнинг асосий вазнини моделлаштирадиган оралиқни ҳосил қилиш мумкин.

Юмшоқ оралиқли синфлашнинг иккилик масаласи қуйидагича шакллантирилади.

Масала: қуйида келтирилган икки шарт асосида

$$A = \sum \alpha - \frac{1}{2} \sum_i \sum_j \alpha_i \alpha_j y_i y_j \vec{x}_i^T \vec{x}_j \rightarrow \max \quad (1)$$

функцияни максималлаштирувчи параметрларни топинг.

Шартлар

- 1) $\sum_i \alpha_i y_i = 0,$
- 2) $0 \leq \alpha_i \leq C$ барча $1 \leq i \leq N$ ларда

Иккилик масалада на ξ_i , фиктив ўзгарувчилар, на улар учун Лагранж кўпайтирувчиси ҳосил бўлмайди. Унда фақат таянч векторлар учун Лагранж кўпайтирувчисининг эҳтимоли бўлган катталигини чекловчи C ўзгармас қолади. Олдингидек, таянч векторлар α_i ноль қийматлари билан \vec{x}_i нуқталар ҳисобланади. Иккилик масаланинг ечилиши қуйидаги кўринишга эга.

$$\vec{w} = \sum \alpha y_i \vec{x}_i \quad (2)$$

Бунда $b = y_i(1 - \xi_i) - \vec{w}^2 \vec{x}_i$ учун $k = \arg \max_k \alpha_k$.

Синфлаш учун маълум кўринишдаги \vec{w} вектор керак эмас. Синфлашни (3) формулада бўлганидек скаляр кўпайтмани ҳисоблаш ёрдамида амалга ошириш мумкин.

$$f(\vec{x}) = \text{sing} \left(\sum_i \alpha_i y_i \vec{x}_i^T \vec{x} + b \right) \quad (3)$$

Қоидага кўра, таянч векторлар ўқув тўпламнинг кичик қисмини ташкил этади. Бироқ агар масала чизиқли бўлиниш хусусиятига эга бўлмаса, ёки оралиқ кичик бўлса, унда ҳар бир нотўғри синфланган нуқта ёки оралиқ ичида ётган нуқта α_i ноль қийматга эга бўлади.

Сўровларни шакллантиришда бир нечта синфли таянч векторлар усули. Таянч векторларнинг стандарт усули икки синф бўйича синфлаш учун мўлжалланган. Анъанавий равишда таянч векторлар усули ёрдамида бир нечта

синфлар бўйича синфлаш учун юқорида таърифланган усулларнинг биридан фойдаланилади. Хусусан, энг кўпи амалиётда “бири қолганларига қарши” тамойили (баъзан бу тамойил “бири барчасига қарши” деб аталади (One-Versus-All - OVA)) бўйича ишлайдиган $|C|$ синфловчилар яратилади, кейин эса тест хужжат ажратувчи сиртдан энг узоқда бўладиган синф танланади. Бошқа стратегия “бири бошқасига қарши” тамойили бўйича ишлайдиган синфловчилар бирлигини қуриш, кейин эса кўпчилик синфловчилар томонидан таклиф қилинган синф танланишидан иборат. Бу жараён $|C|(|C|-1)/2$ синфловчилар яратилишини кўзда тутишига қарамасдан, уларнинг ўқитилишига кетадиган вақт ишда камайиши мумкин, чунки ҳар бир синфловчи учун ўқув тўплам анча кичик.

Бироқ бу барча стратегиялар унчалик яхши эмас. Кирувчи хусусиятлар ва мос келувчи синфдан ташкил топган, жуфтлар бўйича қурилган $\Phi(\vec{x}, y)$ хусусиятлар вектори бўйича бинар синфловчини қурган ҳолда бир неча синфлар учун синфловчи ишлаб чиқиш яхшироқ. Тестлаш босқичида синфловчи $y = \underset{y'}{\operatorname{argmax}} \vec{w}^T \Phi(\vec{x}, y')$ синфни танлайди. Ўқитиш босқичида тўғри ва энг яқин нотўғри синфга мос келувчи қийматлар орасидаги фарк оралиқ ҳисобланади, шунинг учун квадрат дастурлаш масаласи қуйидаги шартга эга бўлади:

$$\forall i \forall y \neq y_i, \vec{w}^T \Phi(\vec{x}_i, y_i) - \vec{w}^T \Phi(\vec{x}_i, y) \geq 1 - \xi_i.$$


Бу умумий усул ёрдамида турли чизиқли синфловчилар учун кўп синфли синфлаш масаласини шакллантириш мумкин. Бундан ташқари, бу синфлар ўзларида нафақат мустақил категориал белгилар тўпламини намоён қилишадиган, балки ўзаро боғлиқликлар билан ихтиёрий тузилган объектлар бўлиши мумкин бўлган синфлашни оддий умумлаштирилишига мисолдир. Таянч вектор усулининг бундай вариантлари тузилишли таянч вектор деб аталади (structural SVM).

Таянч векторларнинг чизиқсиз усули. Ҳозиргача маълумотлар тўпламини чизиқли ажратишга йўл қўядиган ҳолатларни кўриб чиқадиган усулларни сўровни шакллантириш учун фойдаланишни кўрдик. (эхтимол, баъзи истисно ёки камчиликлар билан). Сўровларни шакллантиришда матнларни синфлаштиришда, агар маълумотлар бирлиги чизиқли синфловчиларни қўллаш имконини бермаса нима қилиш керак? Бир ўлчамли ҳолатни кўриб чиқамиз. 2-расмнинг юқори қисмида келтирилган маълумотлар чизиқли синфловчи билан осон танланади, ўрта қисмдаги маълумотлар эса – йўқ. Ўрта қисмдаги маълумотларни таниш учун интервални ажратиш керак. Бу муаммони ечиш усулларида бири маълумотларни кейинчалик фазода чизиқли синфловчининг қўлланилиши билан катта ўлчамдаги фазода акс эттиришдан иборат. Масалан, 2-расмнинг пастки қисмида чизиқли синфловчи агар маълумотларни акс эттириш учун икки ўлчамли текисликда квадрат функциядан фойдаланилса (бошқа вариант кутбלי координаталар ҳисобланади) маълумотларни осон таниши кўрсатилган. Асосий ғоя дастлабки хусусиятлар соҳасини ўқув тўплам чизиқли бўлинадиган анча юқори ўлчамли хусусиятлар соҳасида акс эттиришдан иборат.

Албатта, бунда олинган синфловчи дастлабки маълумотларни умумлаштирадиган тарзда маълумотлар нуктаси орасидаги муносабатлар долзарб ўлчамини сақлаши мумкин.

Таянч векторлар усули, бошқа қатор чизиқли синфловчилар каби маълумотларнинг анча юқори ўлчамдаги фазога бундай акс эттирилишини осон ва эффективли амалга ошириш имконини беради. Бу усул ядрога ўтиш деб аталади (kernel trick). Таянч векторлар усули асосида қурилган чизиқли синфловчи маълумотларга мос келувчи векторлар орасидаги скаляр кўпайтма ҳисобланишига асосланган. Қуйидаги белгиланишни киритамиз: $K(\vec{x}_i, \vec{x}_j) = \vec{x}_i \vec{x}_j^T$. Бу ҳолатда энди маълум синфловчини қайтадан бошқа кўринишда ёзиш мумкин

$$f(x) = \text{sign} \left(\sum_i \alpha_i y_i K(\vec{x}_i, x) + b \right) \quad (4)$$



2-расм. Чизиқли ажратишни чизиқли ажратиш мавжуд бўлган анча юқори ўлчамдаги тўпламга қўймайдиган маълумотлар проекцияси

Дейлик, энди $\Phi: \vec{x} \mapsto \phi(\vec{x})$ функциядан фойдаланган ҳолда ҳар бир нуктани анча юқори ўлчамдаги фазода акс эттиришга қарор қилдик. Бу ҳолатда скаляр кўпайтма $\phi(\vec{x}_i)^T \phi(\vec{x}_j)$ кўпайтмага айланади. Агар бу скаляр кўпайтмани (ўзида ҳақиқий сонни намоён этадиган) дастлабки нуқталар бўйича нисбатан осон ва эффективли ҳисоблаб бўлса, унда $\vec{x} \mapsto \phi(\vec{x})$ кўринишни аслида бажариш шарт эмас. Бунинг ўрнига шунчаки $K(\vec{x}_i, \vec{x}_j) = \vec{x}_i \vec{x}_j^T$ катталиқни ҳисоблаш, кейин эса функция қийматидан (4) формуладан фойдаланиш мумкин. К ядро – бу хусусиятларнинг қандайдир кенгайтирилган фазосида скаляр кўпайтмага мос келувчи функцияси.

Функционал таҳлил терминологиясидан фойдаланган ҳолда, “қандай функциялар ядро (kernels) бўла олади?” деган саволни берамиз. Ядроларни баъзан Мерсер ядролари (Mercer kernels) дейиш аниқроқ айтилади, чунки улар

Мерсер шартларини қониқтириши керак: $\int g^2(\vec{x})dx$ интеграл якуний бўладиган ҳар қандай $g(\vec{x})$ функцияда қуйидаги шарт бажарилиши керак.

$$\int K(\vec{x}, \vec{z})g(\vec{x})g(\vec{z})d\vec{x}d\vec{z} > 0 \quad (5)$$

К ядро узлуксиз, симметрик бўлиши, шунингдек, Грамнинг маълум мусбат матричасига эга бўлиши керак. Бу шартлар ядрони гилберт фазога (гилберт фазо – бу скаляр кўпайтмага нисбатан тўлиқ вектор фазо), яъни скаляр кўпайтма К қиймат билан мос келадиган фазога айлантирадиган кўриниш мавжудлигини кафолатлайди. Агар ядро Мерсер шартини қониқтирмаса, унда квадрат дастурлашнинг мос келувчи масаласи ечимга эга бўлмаслиги мумкин. Аксинча ҳолатда, таянч векторларнинг чизиқсиз усулига бағишланган 90 % ишлар қуйида кўриб чиқиладиган ва очик ядролар ҳисобланган икки вектор функциялари оиласининг иккитадан биридан фойдаланиши билан қониқиш мумкин.

Ядроларнинг энг тарқалган оиласи поленомиял ядро ва радиал базис функцияси ҳисобланади. Поленомиял ядролар (Polynomial kernels) $K(\vec{x}_i, \vec{x}_j) = (1 + \vec{x}^T \vec{x})^d$ кўринишига эга. $d = 1$ бўлганда ядро чизиқли ҳисобланади. $d = 2$ бўлганда кенг ишлатиладиган квадрат ядро ҳосил бўлади.

Радиал базис функциясининг энг кўп тарқалган шакли гаусс тақсимланишининг зичлик функцияси ҳисобланади.

$$K(\vec{x}, \vec{z}) = e^{-(\vec{x}\vec{z})} \quad (6)$$

Радиал базис функцияси чексиз ўлчамли гилберт фазосида маълумотларнинг акс эттирилишига эквивалент, шунинг учун радиал базис функциясини квадратик ядро каби аниқ кўрсатиб беришнинг иложи йўқ. Бу икки оиладан ташқари бошқа ядроларнинг ишлаб чиқилишига бағишланган қизиқ ишлар мавжуд (улардан баъзилари матнларни синфлаш соҳасида умидли натижаларни олиш имконини беради). Таянч векторлар усули назариясида машинали ўқув терминологиясидан бирмунча фарқ қиладиган алоҳида тилдан фойдаланилади.

Поленомиял ядролар хусусиятлар конъюнкциясини моделлаштириш имконини беради (Polinom тартибига). Бошқача қилиб айтганда, агар алоҳида сўзлардан кўра кўпроқ ахборот берадиган сўзлар жуфтлигини моделлаштиришни хоҳласак, масалан, *ахборот* ва *технологиялари* ёки *глобал* ва *тармоқ*, унда квадрат ядрони қўллаш керак. Агар фойдали ахборотни триплетлар берса, унда куб ядродан фойдаланиш керак. Масалада бир вақтда дастлабки хусусиятлар даражаси пайдо бўлади, лекин матнларни синфлаш соҳасидаги кўпгина дастурларда бу, эҳтимол, талаб ҳам қилинмайди. Бироқ бу математик ҳисоблар натижаси ҳисобланади ва одатда зарар келтирмайди. Радиал базис функцияси доиралар ажратадиган (гиперсфералар) хусусиятлардан фойдаланиш имконини беради, аммо ажратувчи сиртнинг хусусиятлари ўзаро таъсирида улар анча мураккаброқ бўлиши мумкин.

Адабиётлар

1. Anh, Vo Ngoc, Owen de Kretser, and Alistair Moffat. Vector-space ranking with effective early termination. 2001. In Proc. SIGIR, pp. 35-42. ACM Press.
2. Arroso, Luiz André, Jeffrey Dean, and Urs Hölzle. Web search for a planet: The Google cluster architecture. 2003. IEEE Micro 23 (2): 22-28. DOI: dx.doi.org/10.1109/MM.2003.1196112.
3. Мўминов Б.Б. Маълумотларни излаш тизими. –Т.: Фан ва технология. 2016. -210 б.
4. Мўминов Б.Б. Маълумотларни излаш усуллари. –Т.: Фан ва технология. 2016. -276 б.

ИЗЛАШ ТИЗИМЛАРИДА МАШИНАЛИ ЎҚУВ ВА ТАЯНЧ ВЕКТОРЛАРГА АСОСЛАНГАН МОДЕЛЛАРНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШГА ЁНДАШУВ

Б. Б. Мўминов, У. Б. Бекмурадов

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари Самарқанд филиали

Синфловчиларнинг сифатини оширишга йўналтирилган машинали ўқув соҳасидаги йигирма йиллик жадал суратларда илмий тадқиқотлар натижасида усулларнинг янги авлоди пайдо бўлди, хусусан – таянч векторлар усули (Support Vector Machines - SVM), мустақамланган қарор шажаралари (Boosted decision trees), бошқариладиган мантикий регрессия (regularized logistic regression), нейрон тармоқлар (neural networks) ва тасодифий ўрмонлар (random forests) усуллари. Бу усуллардан кўплари, шу қаторда бу бобда таърифланган таянч векторлар усули маълумотларни излаш масалаларини ечиш учун муваффақиятли қўлланилади, хусусан матнларни синфлашда ҳам. Таянч векторлар усули “кенг ораликли” синфловчи турини ўзида намоён этади: унинг мақсади – ўқув тўпламнинг барча нукталаридан максимал узоқлаштирилган синфлар орасидаги ажратувчи сиртларни топиш бўлган (эхтимол, баъзи нукталарни ташландиқ ёки шовқин сифатида эътиборга олмаган ҳолда) вектор тўплам моделига асосланган машинали ўқув усулларига тегишли.

Таянч векторлар усули: чизиқли ажратиладиган синфлар учун. Агар ўқув тўплам чизиқли ажратишга йўл қўядиган икки маълумотлар синфига эга бўлса, унда бу маълумотларни ажратиш мумкин бўлган чизиқли синфловчиларнинг катта сони мавжуд. Икки синфни ажратувчи чизиқ ўртаси орқали ўтувчи ажратувчи сирт бир ёки икки синф наъмуналарига жуда яқин ётувчи ажратувчи сиртдан кўра яхшироқ эканлиги интуитив равишда аён. Содда Байес усули каби бошқа усуллар маълум мезондан фойдаланган ҳолда энг яхши чизиқли ажратувчини топади. Хусусан, таянч векторлар усули


маълумотларнинг ҳар қандай нуқталаридан узоқлаштирилган ажратувчи сиртни излайди. Бу сирт ва маълумотларнинг энг яқин нуқтасигача бўлган масофа синфловчи оралиғи (margin) деб аталади.

Таянч векторлар усулида функция ажратувчи ҳолатига таъсир қилувчи маълумотлар кичик тўплами билан тўлиқ аниқланиши (одатда кичик) албатта кўзда тутилади. Бу нуқталар таянч векторлар деб аталади (support vectors) (вектор тўпланда нуқтани координаталар боши ва бу нуқта орасидаги вектор сифатида кўриб чиқиш мумкин). Оддий масала учун оралиқ ва таянч векторлар 1-расмда кўрсатилган. Маълумотларнинг бошқа нуқталари ажратувчи сиртни танловига таъсир қилмайди.



1-расм. Таянч векторлар: оралиқ чегарасида ётувчи беш нуқта

Оралиқни максималлаштириш яхши фикрдек туюлади, чунки ажратувчи сирт яқинида ётган нуқталар катта ноаниқликка олиб келади; 50% эҳтимол билан синфловчи икки қарордан ҳар қайсисини қабул қилиши мумкин. Катта оралиқли синфловчи қарорлар ноаниқлигини пасайтиради. Шу билан у ишончилиқнинг маълум заҳирасини яратади: ўлчашнинг кичик хатоси ёки ҳужжатнинг биров ўзгариши нотўғри синфланишга олиб келмайди. Таянч векторлар усулининг бошқа интуитив асосланиши 2-расмда кўрсатилган. Бутун тузилма бўйича SVM синфловчи ажратувчи сирт атрофида кенг оралиқ бўлишини талаб қилади. Агар синфлар орасида кенг чизик кўйишга уриниб кўрилса, унда буни бажариш мумкин бўлган бурчаклар диапазони гипертексисликлар учун бўлгандан анча кам бўлиб чиқади. Натижада моделни эслаб қолиш сифими камаёди ва моделнинг тест маълумотларни тўғри умумлаштириш қобилияти ошишини кутиш мумкин.




2-расм. Кенг оралиқли интуитив асосланган синфлаш

Кенг оралиққа интилиш модели эслаб қолиш сиғимини камайтиради: икки тўплам орасида кенг ажратувчи чизикни жойлаштириш мумкин бўлган бурчаклар диапазони ажратувчи гипертекислик учун бўлгандан кичик.

Таянч векторлар усулининг расмий алгебраик таърифини келтирамиз. Ажратувчи гипертекислик b силжиш параметрик (x ўқида кесишиш нуқтаси билан) \vec{w} ажратувчи гипертекисликка нормал вектори билан берилади. Бобда машинали укув усуллари бўйича бу вектор одатда вазнлар вектори деб аталади (weight vector). Нормал векторига перпендикуляр барча гипертекисликлар орасида битта керакли гипертекисликни танлаш учун b параметрдан фойдаланилади. Ажратувчи гипертекислик нормал векторига перпендикуляр экан, гипертекисликдаги барча \vec{x} нуқталарни $\vec{w}^T \vec{x} = b$ тенглик қониқтиради. Энди дейлик, ҳар бир элементи \vec{x} нуқталар ва y_i синфнинг мос келувчи белгиларидан ташкил топган $D = \{(\vec{x}, y_i)\}$ ўкув тўплам мавжуд. Таянч векторлар усулида икки синф доим $+1$ ва -1 (1 ва 0 эмас) деб аталади, силжиш параметри эса (intercept term) доим b ҳарфи билан белгиланади (\vec{w} векторга қўшилувчи сифатида қўшилмайди). Бунинг натижасида математик ифодалар тушунарлироқ бўлади. Бу ҳолатда чизикли синфловчи қуйидаги формула билан таърифланади

$$f(\vec{x}) = \text{sing}(\vec{w}^T \vec{x} + b) \quad (1)$$

-1 қиймат бир синфни билдиради ва $+1$ эса бошқа синфни билдиради.



3-расм. r нуқта ва ажратувчи сирт ρ нинг геометрик оралиғи

Нукталарнинг синфланиши шубҳа уйғотмайди, агар у ажратувчи сиртдан узокда ётган бўлса. Маълумотларнинг берилган бирлиги ва гипертекисликларни ажратувчи учун (\vec{w}, b) гипертекисликка нисбатан \vec{x}_i биринчи намунанинг функционал оралиғи деб (functional margin) $y_i(\vec{w}^T \vec{x} + b)$ катталikka айтилади. Бу ҳолатда ажратувчи сиртга нисбатан маълумотлар бирлигининг функционал оралиғи минимал функционал оралиққа эга маълумотлар бирлигидаги ҳар қандай нукталарнинг функционал оралиғидан катта (2 кўпайтирувчиси 3-расмда кўрсатилганидек, оралиқнинг бутун кенглигини ҳисоблаш ҳисобига ҳосил бўлади).

Бироқ бу аниқланишдан фойдаланиш билан бир муаммо боғлиқ: қиймат етарлича чекланмаган, чунки функционал оралиқни \vec{w} ва b параметрларни шунчаки масштаблаган ҳолда исталганча катталаштириш мумкин. Масалан, агар \vec{w} векторни $5\vec{w}$ вектор билан, b параметрни $-5b$ параметр билан алмаштирилса, унда функционал оралиқ 5 марта катталашади: $y_i(5\vec{w}^T \vec{x} + 5b)$. Шундан келиб чиқиб, \vec{w} вектор катталигини қандайдир чеклаш керак.

\vec{x}_i нукта ва ажратувчи сирт орасидаги Евклид масофа ўзида нимани намоён этади? 3-расмда u r симболи билан белгиланган. Маълумки, нукта ва гипертекислик орасидаги энг қисқа масофа табиийки, \vec{w} векторга параллел бўлган, текисликка перпендикуляр билан аниқланади. Бу йўналишдаги бирлик вектор $\vec{w}/|\vec{w}|$ кўринишига эга. Диаграммадаги пунктир чизик r векторнинг $r\vec{w}/|\vec{w}|$ параллел кўчишини ўзида намоён этади. \vec{x} векторга энг яқин, гипертекисликда ётувчи нуктани \vec{x}' орқали белгилаймиз. Шундай қилиб,

$$\vec{x}' = \vec{x} - yr \frac{\vec{w}}{|\vec{w}|} \quad (2)$$

Бу ерда y сонга кўпайтириш ажратувчи сиртнинг икки томони бўйича икки ижобий \vec{x} вектор учун шунчаки белгини ўзгартиради. Бундан ташқари, \vec{x}' нукта сиртда ётибди, демак, $\vec{w}^T \vec{x}' + b = 0$ тенгликни қониктиради. Шундан келиб чиққан ҳолда,

$$\vec{w}^T \left(\vec{x} - yr \frac{\vec{w}}{|\vec{w}|} \right) + b = 0 \quad (3)$$

Бу тенгликни r га нисбатан ечган ҳолда қуйидаги ечимни ҳосил қиламиз.

$$r = y \frac{\vec{w}^T \vec{x} + b}{|\vec{w}|} \quad (4)$$

Ажратувчи гипертекисликларга энг яқин нукталар, олдингидек, таянч вектор ҳисобланади. Геометрик оралиқ (геометрик margin) – бу икки синф таянч векторлари орасида ўтказиш мумкин бўлган чизикнинг максимал кенглиги. Бошқача қилиб айтганда, бу қиймат (4) формула бўйича ҳисобланган, r минимал қийматдан икки баробар катта қиймат, ёки, эквивалент равишда, 2- расмда кўрсатилган ажратувчи чизиклардан бирининг максимал кенглиги. Геометрик оралиқ масштаблашга боғлиқ эмаслиги аён: \vec{w} параметрни $5\vec{w}$ ва b параметрни $5b$ га алмаштириш геометрик оралиқ ўзгаришига олиб келмайди, чунки у \vec{w} узунлик билан нормаллаштирилади. Бу

\vec{w} векторга геометрик ораликқа таъсир қилмаган ҳолда масштаб бўйича ҳар қандай чекланиш қўйишимиз мумкинлигини билдиради. Масалан, $|\vec{w}| = 1$ чекланишни ўрнатиш мумкин. Бу ҳолатда геометрик оралик функционал билан бир хил бўлади.

Функционал оралиқни таянч векторлар усули ёрдамида йирик масалаларни ечиш қулайлигига уринган ҳолда ихтиёрий равишда масштаблаш мумкин экан, маълумотларнинг барча нуқталар функционал оралиғи бирдан кичик бўлмаслигига ва ҳеч бўлмаса бир маълумотлар векторида бирга тенглашишига уриниб кўрамыз. Бошқача қилиб айтганда, барча нуқталар учун қуйидаги тенгсизлик бажарилиши

$$y_i(\vec{w}^T \vec{x} + b) \geq 1 \quad (5)$$

ва бу тенгсизлик тенгликка айланадиган таянч векторлар мавжуд бўлиши керак. \vec{x} нуқтадан гипертекисликкача масофа $r_i = y_i(\vec{w}^T \vec{x} + b)/|\vec{w}|$ га тенг экан, геометрик оралик $\rho = \frac{2}{|\vec{w}|}$ га тенг. Мақсадимиз – геометрик оралиқни максималлаштириш. Бошқача қилиб айтганда, қуйидаги шартларни қониқтирувчи \vec{w} ва b параметрларни топиш талаб қилинади.

- $\rho = \frac{2}{|\vec{w}|}$ катталиқ максимумга эришади

- барча $(\vec{x}_i, y_i) \in D$ да $y_i(\vec{w}^T \vec{x} + b) \geq 1$ бўлади.

$\frac{2}{|\vec{w}|}$ катталиқни максималлаштириш $\frac{|\vec{w}|}{2}$ катталиқни минималлаштиришга эквивалент. Бу таянч векторлар усулида минималлаштириш масаласини якуний стандарт шакллантиришга олиб келади.

Қуйидаги шартларни қониқтирувчи \vec{w} ва b параметрларни топиш лозим.

1) $\frac{1}{2} \vec{w}^T \vec{w}$ катталиқ минимумга эришади.

2) Барча $(\vec{x}_i, y_i) \in D$ ларда $y_i(\vec{w}^T \vec{x} + b) \geq 1$ тенгсизлик бажарилади.

Шундай қилиб, чизиқли чекланишларда квадрат функцияни минималлаштириш зарур. Квадрат оптималлаштириш масаласи (quadratic optimization) – бу ечилиши учун кўпгина алгоритмлар ишлаб чиқилган оптималлаштиришнинг яхши ўрганилган математик масаласи. Таянч векторлар усулини квадрат дастурлашнинг стандарт кутубхоналари ёрдамида амалга ошириш мумкин (Quadratic Programming - QP), лекин сўнгги вақтларда таянч векторлари усулини амалга ошириш учун квадрат дастурлашнинг махсус усулларини таклиф қиладиган кўп ишлар пайдо бўлмоқда. Натижада анча мураккаб, лекин моделларни қуриш учун кенг ишлатиладиган анча тез ва масштабланадиган кутубхоналар ишлаб чиқилди.

Бироқ таянч векторлар маъносини тушуниш учун қўйилган оптимал масалани ечиш ҳақидаги қуйидаги ахборотни келтириш фойдали. Бу ечимни топиш учун тўғри масаланинг ҳар бир $y_i(\vec{w}^T \vec{x} + b) \geq 1$ чекланиши билан Лагранжнинг α_i мос келувчи кўпайтирувчиси боғлиқ бўлган иккилик масалани шакллантириш лозим.

$$A = \sum \alpha_i - \frac{1}{2} \sum_i \sum_j \alpha_i \alpha_j y_i y_j \vec{x}_i^T \vec{x}_j \rightarrow \max \quad (6)$$

(6) катталиқнинг максимумига эришиши учун $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_N$ ларни топиш масаласи.

$$\sum_i \alpha_i y_i = 0, \quad (7)$$

$\alpha_i \geq 0$ барча $1 \leq i \leq N$

Бу масаланинг қуйидаги кўринишга эга:

$$\vec{w} = \sum \alpha_i y_i \vec{x}_i \quad (8)$$

Бунда ихтиёрий \vec{x}_i учун $b = y_i - \vec{w}^T \vec{x}_i$ ва $\alpha_i \neq 0$

Бу ечимда α_i параметрларнинг кўпчилиги нолга тенг. Ҳар бир ноль қиймат мос келувчи \vec{x} вектор таянч ҳисобланишини билдиради. Шундай қилиб, синфлаш функцияси қуйидаги кўринишга эга бўлади.

$$f(\vec{x}) = \text{sing} \left(\sum_i \alpha_i y_i \vec{x}_i^T \vec{x} + b \right) \quad (9)$$

Иккиланган масалада максималлаштириш керак бўлган ифода синфлаш функцияси каби (\vec{x} ва \vec{x}_i) нуқталар жуфтлигининг скаляр кўпайтмасига эга ва бу маълумотлардан фойдаланишнинг ягона усули.

Адабиётлар

1. Anh, Vo Ngoc, Owen de Kretser, and Alistair Moffat. Vector-space ranking with effective early termination. 2001. In Proc. SIGIR, pp. 35-42. ACM Press.
2. Arroso, Luiz André, Jeffrey Dean, and Urs Hölzle. Web search for a planet: The Google cluster architecture. 2003. IEEE Micro 23 (2): 22-28. DOI: dx.doi.org/10.1109/MM.2003.1196112.
3. Мўминов Б.Б. Маълумотларни излаш тизими. –Т.: Фан ва технология. 2016. -210 б.
4. Мўминов Б.Б. Маълумотларни излаш усуллари. –Т.: Фан ва технология. 2016. -276 б.

НУТҚ СИГНАЛИ БЕЛГИЛАРИНИ АЖРАТИБ ОЛИШ УСУЛЛАРИ

*Н. А. Ниёзматова, Ю. Ш. Юлдошев, Ш. Ш. Абдуллаев, П. Б. Нуримов
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети ҳузуридаги ахборот коммуникация технологиялари илмий-
инновацион маркази*

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети Нукус филиали*

Сўнгги йилларда сўзловчини овоз бўйича идентификация қилиш тизимлари (СОБИҚТ) жадал суратларда ривожланмоқда. Ушбу тизимларнинг ривожланишига асосий сабаб сифатида биометрик қидирув, йўловчилар ва ҳайдовчиларни овози бўйича верификациялаш, овозли биометрия ёрдамида ахборотларга рухсатни чеклаш каби соҳаларда талабнинг ошиб бораётганлигани келтириш мумкин.

Сўзловчини овоз бўйича идентификация қилиш тизимларининг бошқа биометрик идентификация қилиш тизимларидан муҳим афзаллиги уларнинг

арзонлигидир. Бундан ташқари, замонавий СОБИҚТ ишончилилик даражаси бўйича бошқа тизимлардан кам эмас ва баъзида улардан юқорироқ ҳисобланади. Масалан, шахсни тасвири асосида идентификация қилиш тизимларига нисбатан [2].

Нутқ таниб олиш тизимларининг ривожланиши инсон нутқини автоматик таниб олиш билан бирга уни синтез қилувчи интеллектуал тизимларнинг яратилишига олиб келди. Инсон овозининг уникалликка қарамай бошқа биометрик тизимлар қатори ҳеч қайси СОБИҚТ ҳам 100% ишончли идентификация қилишни кафолатлай олмайди.

Сўнги йилларда нутқли ахборотни таниб олиш сифати сезиларли даражада ошди, бироқ сўзловчини ихтиёрий муҳитда автоматик таниб олиш масаласи ҳамон долзаб бўлиб қолмоқда. Айнан шунинг учун бу соҳада мавжуд алгоритмларни тадқиқ қилиш ҳамда янги ечимларни қидириш шу кунинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади. Шахсни овоз бўйича таниб олиш масаласи кирувчи овоз оқимидан одам нутқини ажратиб олиш, таснифлаш қилиш ва мос тарзда жавоб қайтаришни ўз ичига олади. Бу одатда иккита кичик масалаларга ажратилади: идентификация ва верификация [1].

Идентификация бу шахсни овоз намунасини олдиндан сақланган мавжуд намуналар билан солиштириш орқали аниқлаш жараёнидир. Идентификация натижаси, одатда, кирувчи овоз намунасига энг катта эҳтимол билан мос келувчи ва шаблонга тўғри келувчи тизимда рўйхатга олинган шахс тўғрисидаги маълумот (масалан, фойдаланувчи номи) ҳисобланади.

Верификация эса сўралаётган идентификаторга овоз намунасининг мослигини аниқлаш жараёнидир. Бунда овоз намунаси билан бирга тизимда рўйхатга олинган идентификатор ҳам узатилади.

Ушбу ишда матнга боғлиқ бўлмаган тарзда суҳандонни овоз бўйича автоматик идентификация қилиш масаласи кўриб чиқилади ва алгоритм ишлаб чиқилади. Масалани ҳал қилишда қуйидаги мавжуд муаммо ва чекловларни инобатга олиш зарур:

- Суҳандоннинг эмоционал ҳолати
- Мураккаб акустик шароит(турли ҳалақитлар)
- Ўқитиш ва таниб олишдаги турли алоқа каналлари
- Овознинг табиий ўзгариши
- Шахсни овоз бўйича таниб олиш турли соҳаларда қўлланилиши мумкин:
- Криминалистика ва суд экспертизаси
- Хавфсизлик
- Банк технологиялари
- Электрон тижорат
- Телематика

Нутқ бир нечта турли босқичларда ўзгаришлар натижасида ҳосил бўладиган мураккаб сигнал ҳисобланади:

Семантик, тил, артикуляция(одамнинг нутқ органлари мажмуи босқичида) ва акустик (товушнинг физик хусусиятлари босқичида)

Ушбу ўзгаришлар натижасида нутқ сигнали хусусиятларидаги фарқларни ўзида акс эттирди. Суҳандонни овоз бўйича таниб олиш масаласини ҳал қилишда ушбу фарқланишлар ҳар бир одам овозини индивидуал характеристикаларини ажратиш учун фойдаланилиши мумкин.

Сигнални ўзгартиришнинг бир нечта усуллари мавжуд ва уларнинг энг кенг тарқалганларини қуйида кўриб чиқамиз.

Фурье алмаштириши – мос бир частотада ҳар бир синусоиданининг амплитуда ва фазасини тавсифловчи функция.

